

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**



**“PENSIYA ISHI” KAFEDRASI**

**“XORIJIY MAMLAKATLAR PENSIYA  
TIZIMI”**

fanidan

**O‘QUV USLUBIY MAJMUA**



**TOSHKENT – 2018**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**



**“PENSIYA ISHI” KAFEDRASI**

**“XORIJIY MAMLAKATLAR PENSIYA  
TIZIMI”**

fanidan

**O‘QUV USLUBIY MAJMUA**

Bilim sohasi:	200000	–	Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta‘lim sohasi:	230000	–	Iqtisod
Ta‘lim yo‘nalishi:	5231300	–	Pensiya ishi

**TOSHKENT – 2018**

Fanning O'quv-uslubiy majmuasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 201\_\_ yil \_\_\_\_\_dagi \_\_ sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

**Mamatov B.S.** TMI, "Pensiya ishi" kafedrasini mudiri, i.f.n.;  
**Tursunov J.P.** – TMI, "Pensiya ishi" kafedrasini assistenti.

Taqrizchilar:

**Vaxabov A.V.** – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti "Makroiqtisodiyot" kafedrasini mudiri, i.f.d., prof. (*turdosh OTM*);  
**Davronov Sh.Z.** – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Boshqarma boshlig'i. (*kadrlar buyurtmachisi*);  
**Xo'jamqulov D.Yu.** – TMI, "Baholash ishi va investitsiyalar" kafedrasini dotsenti, i.f.n.

Fanning O'quv-uslubiy majmuasi kafedraning 2018-yil \_\_\_\_\_dagi \_\_ sonli yig'ilishida muhokama qilingan va fakultet Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri**

**B. Mamatov**

Fanning O'quv-uslubiy majmuasi Byudjet hisobi va davlat jamg'armalari fakulteti Kengashida muhokama qilingan va institut Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan (2018-yil \_\_\_\_\_dagi \_\_ sonli qaror).

**Fakultet dekani**

**O. Komolov**

**KELISHILDI:**

**O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i**

**T. Baymuratov**

Fanning O'quv-uslubiy majmuasi institut o'quv-uslubiy Kengashining 2017-yil \_\_\_\_\_dagi \_\_-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqlash uchun tavsiya qilingan.

**O'quv ishlari bo'yicha prorektor**

**I. Qo'ziyev**

Fanning O'quv-uslubiy majmuasi institut Kengashining 2018-yil \_\_\_\_\_dagi \_\_-sonli majlisi bayoni bilan ma'qullangan.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining bugungi bosqichida iqtisodiyotni barqaror va mutanosib rivojlantirish, jahon bozorlarida mustahkam o'rin egallash, shular asosida izchil iqtisodiy o'sishni ta'minlash, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini yanada oshirish, faol ijtimoiy siyosatni olib borish orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash borasidagi vazifalarni to'liq va samarali amalga oshirish vazifalarini bajarishda davlat maqsadli jamg'armalarining hamda ularning muhim tarkibiy qismi bo'lgan davlat maqsadli fondlari amal qilish mexanizmlarini puxta o'rganish har qachongidan ham dolzarbdir.

“Xorijiy mamlakatlar pensiya tizimi” fanining O'quv-uslubiy majmuasi bakalavriatning “Pensiya ishi” ta'lim yo'nalishi davlat ta'lim standartlari va “Xorijiy mamlakatlar pensiya tizimi” fanining fan dasturida belgilangan talablarga muvofiq egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni shakllantirish, fanga oid jahondagi ilm-fan, texnika, texnologiyalarning so'nggi yutuqlarini, ilg'or xorijiy tajribalarni keng yoritish va ularni hisobga olgan holda fan mavzularini shakllantirish, o'quv jarayonini kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarga erishish, mustaqil bilim olish va o'rganish hamda nazoratni amalga oshirishni ta'minlaydigan o'quv-uslubiy vosita bo'lib, talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallar, elektron ta'lim resurslari, o'qitish texnologiyasi, baholash metodlari va mezonlarini o'z ichiga oladi.

Ushbu O'quv-uslubiy majmuada “Xorijiy mamlakatlar pensiya tizimi” fanining o'quv dasturiga muvofiq ravishda ma'ruzalar matnlari, amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha uslubiy tavsiyalar, mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma, fanning namunaviy va ishchi-o'quv dasturlari, fan yuzasidan testlar, nazorat savollari, talabalar bilimini baholash mezonlari, fan mavzulari bo'yicha tarqatma materiallar, fan mavzularini o'zlashtirish bo'yicha asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda boshqa didaktik materiallar jamlangan.

# **1-MAVZU: “XORIJIY MAMLAKATLAR PENSIYA TIZIMLARI” FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI**

## **Reja:**

- 1.1. “Xorijiy mamlakatlar pensiya tizimlari” fanining o’qitishning zarurligi
- 1.2. “Xorijiy mamlakatlar pensiya tizimlari” fanining predmeti, vazifalari
- 1.3. “Xorijiy mamlakatlar pensiya tizimlari” fanining boshqa fanlar bilan bog’liqligi, fanni o’rganish doirasida magistrantga qo’yiladigan talablar

**TAYANCH SO’Z VA IBORALAR:** Xorijiy mamlakatlar pensiya tizimlari, pensiya ta’minoti tizimi, davlatning ijtimoiy siyosati, pensiya ta’minoti, davlat budjeti, davlat pensiya tizimi, nodavlat pensiya tizimi, davlat maqsadli jamg’armalari, byudjetdan tashqari fondlar, davlat budjeti, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, xalqaro moliya munosabatlari, byudjet tizimi, xalqaro moliya, davlat moliyasini boshqarish.

## **1.1. “Xorijiy mamlakatlar pensiya tizimlari” fanining o’qitishning zarurligi**

Mamlakatda fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimi, pensiya jamg’armalari mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi kompleks va strategic vazifalarni ham o’z zimmasiga oladi. Har bir davlatning ijtimoiy siyosatida aholining ijtimoiy yordamga muxtoj qatlamini ijtimoiy qo’llab- quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

Davlatning ijtimoiy siyosati, pensiya ta’minoti to’g’risidagi tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar shuni ko’rsatadiki, rivojlangan davlatlarda katta mablag’ga ega bo’lgan budjetdan tashqari pensiya jamg’armalari faoliyat ko’rsatadi. Birlashgan millatlar tashkiloti ma’lumotlariga ko’ra aholining qarishi va pensiya ta’minotini moliyalashtirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Shuni ta’kidlash joyizki, mamlakatda pensiya jamg’armalarini yaxshi rivojlanganligi nafaqat ijtimoiy yordamga muxtoj insonlarni kelajakka bo’lgan rejalarini barqarorligiga ishonch beradi, balki pensiya jamg’armalari bilan shlovchi banklar, davlat budjeti, pensiya mablag’larini o’z faoliyatining asosiy ta’minotchisi deb bilgan fond birjalari rivojiga katta ta’sir ko’rsatadi.

Mamlakatimizda pensiya tizimining barqaror va ishonchli faoliyat yuritishi, izchil yuqori o’sish sur’atlari, iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan ijtimoiy o’zgarishlar, mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo’lidagi dadil qadamlarimizda ijtimoiy barqarorlik, ijtimoiy ziddiyatlarga yo’l qo’ymaslik masalalari dunyo jamoatchiligi, shuningdek, nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan e’tirof etildi.

O’zbekistonda ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish, mamlakatimiz aholisining daromadlari va turmush darajasini muttasil oshirib borish masalalari doimiy e’tibor markazida bo’ldi. Respublikamizda ish haqi 20,2 foizga, budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdori esa 26,5 foizga o’sdi. Aholining real daromadlari yil mobaynida 23,1 foizga ortdi. Mustaqil taraqqiyotimizning dastlabki yillaridan boshlab ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash, aholining daromadlari va turmush sharoitida keskin tafovut bo’lishiga yo’l qo’ymaslikka katta e’tibor qaratildi. Pensiya tizimining choratadbirlari, daromadlarni boshqarish usullari, mablag’lar hajmining optimal holatini ta’minlash, pensiya fondiga mablag’larni o’z vaqtida va to’liq tushirish, xarajatlarni optimallashtirish va jamg’arib boriladigan pensiya tizimini uyg’unlashtirish ishlari takomillashtiriladi.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotida davlatning etakchilik roli katta ahamiyatga ega, ya’ni mazkur davlatlar iqtisodiyotini erkin tadbirkorlik bilan davlat tomonidan boshqarish "birlashib ketgan"ligini qayd etish mumkin. Davlatning asosiy boshqarish dastagi bu soliq va moliya siyosati orqali tadbirkorlikka ta’sir etish hisoblanadi.

Ijtimoiy sug'urta badallari aksariyat davlatlarda majburiy xarakterga ega bo'lib ham yollanma mehnatkashlardan ham tadbirkorlik sub'ektlaridan undiriladi. Ayrim mamlakatlarda ba'zi kasb egalari (advokat, shifokor, me'mor, artist va boshqalar) tomonidan ham badallar belgilangan.

Umuman olganda dunyo amaliyotida tashkiliy-huquqiy jihatdan qaralganda ikki xil ko'rinishdagi pensiya tizimi amal qiladi:

1. Davlat pensiya tizimi;
2. Nodavlat pensiya tizimi.

Shundan kelib chiqqan holda rivojlangan davlatlar pensiya tizimi tajribasidan O'zbekistonda qo'llash mumkin bo'lgan holatlarni asoslash maqsadida qator xorij mamlakatlari tajribasiga murojaat qilamiz.

Evropaga a'zo mamlakatlardan biri bo'lgan Chexiyada davlat va xususiy pensiya tizimi amal qiladi. Chexiya aholisi tez sur'atlar bilan keksaymoqda. Tug'ilganlar uchun umr ko'rish davomiyligi erkaklar uchun 2005 yildan hozirga qadar 7,1 yilga (72,6 yoshdan 79,7 yoshga) ortgan bo'lsa, ayollar uchun 5,1 yilga (79 yoshdan 84,1 yoshga) ortgan. Demografik bog'liqlik darajasi (umumiy aholiga nisbatan 65 yoshdan ortganlar soni) 2010 yildagi 17,9 foizdan 2020 yilda 20,2; 2030 yilda 22,9; 2040 yilda 25,3; 2050 yilda 30,9, 2060 yilda 33,4 foizgacha ortishi prognoz qilinmoqda. Shundan kelib chiqqan holda 2060 yilga borib 65 yoshdan yuqori aholi soni 1,6 mln.kishidan 3,2 mln.kishigacha, 75 yoshdan yuqorilar soni 0,7 mln.dan 2,0 mln.kishigacha, 85 yoshdan yuqorilar 0,2 mln.kishidan 0,7 mln.kishiga ortishi kutilmoqda.

Chexiya davlatida hozirga paytda bir nafar pensionerga mehnatga layoqatli 1,8 shaxs to'g'ri keladi, 2050 yilda bu ko'rsatkich 1,2 bo'lishi taxmin qilinmoqda<sup>1</sup>.

Chexiyada davlat pensiya tizimi mablag'lari ish haqidan to'lagan sug'urta to'lovlaridan kelib chiqib ish beruvchi tomonidan to'langan sug'urta to'lovlari va yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan to'lovlar hisobiga shakllantiriladi. Mamlakatda xususiy pensiya fondlarining faoliyati Moliya vazirligi tomonidan nazorat qilinishi turli xil ko'rinishdagi risklardan saqlanish hisoblanadi. Xususiy pensiya jamg'armasidagi pullarni 60 yoshdan keyin olish huquqiga ega.

Chexiya pensiya ta'minotining 90 foizidan ortig'i davlat ulushiga, qolgani xususiy pensiya fondlari zimmasiga to'g'ri keladi. Davlat va xususiy pensiya ta'minoti birgalikda uzluksiz bog'langan. Xususiy fondlarga o'tkaziladigan summaning limiti 3 foiz qilib belgilangan.

Xususiy pensiya fondiga kirish ixtiyoriy, lekin kirgandan keyin pensiya yoshiga etgunga qadar majburiy to'lov amalga oshiriladi. Fuqarolar biror xususiy Pensiya fondidan boshqa fondga o'tishi har besh yilda bir marta amalga oshirilishi mumkin.

Chexiya qonunchiligiga ko'ra xususiy pensiya fondlari mablag'larini quyidagi yo'nalishlarda joylashtirishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan:

- Davlat qimmatli qog'ozlariga;
- Konservativ fondlarga;
- Barqarorlashtirish jamg'armasiga;
- Davlat aktsiyadorlik jamiyatlari aktsiyalariga.

Har bir xususiy fond a'zosi mablag'larini joylashtirish yo'nalishini ixtiyoriy tanlaydi, lekin bunda yoshga qarab riski yuqori joylarga keksa yoshdagi fuqarolarning mablag'lari joylashtirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Chexiya pensiya tizimida islohotlarni amalga oshirishda bosqichma-bosqich amalga oshirish tamoyilidan foydalaniladi. Pensiya yoshining o'zgarishi birdaniga o'zgartirilmasdan ijtimoiy adolatlilikni ta'minlash maqsadida aholiga sezilarli ta'sir etmaydigan tartibda amalga oshirilmogda, jumladan pensiyaga chiqish yoshi 2 oyga oshirilib borilmogda.

---

<sup>1</sup>[www.opac.skunb.ru](http://www.opac.skunb.ru) – “Пенсионная реформа в Чехии: цели и риски”

AQShda federal soliqlar ichida ijtimoiy sug'uptaga solinadigan soliq mavjud. Ijtimoiy sug'urtalashga ajratmalar - federal byudjet daromadlarining miqdor jihatidan ikkinchi moddasi bo'lib, federal byudjetga keladigan soliq tushumlarining 34,1 foizini tashkil etadi. Ish beruvchi va xodimlar badallarni har bir xodimga bir xil hisoblab chiqariladigan stavka bo'yicha to'laydilar. Ijtimoiy ta'minotga ajratmalar ko'rinishidagi stavka 6,2 foiz miqdorida (soliqning eng yuqori miqdori - 76200 dollar), tekin tibbiy yordamga esa 1,45 foiz miqdorida belgilangan.

Yollanma xodim va ish beruvchilar uchun umumiy kombinatsiyaviy (aralash) stavka 15,3 foizni tashkil etadi. Bundan tashqari, ish beruvchilardan ish haqi fondining 6,2 foizi miqdorida ishsizlik nafaqasiga ajratmalar undiriladi (soliqning eng yuqori miqdori - 434 dollar).

AQShda pensiyaning bazaviy miqdori pensiya yoshiga ham ta'sir etadi.

Xususan, eng erta pensiya yoshi 62 yoshni tashkil etgani holda bazaviy pensiya miqdori umumo'rnatilgan pensiya yoshidagi pensiya miqdoriga nisbatan kam bo'ladi. Hamda pensiya yoshiga etgandan keyingi faoliyat uchun bazaviy pensiya miqdori har bir qo'shimcha ishlangan yil uchun 1 foizga ko'paytirilib boriladi.

AQSh pensiya tizimining xususiyatlaridan yana biri pensiya yoshining o'rnatilishi hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, institutda "Pensiya ishi" magistratura mutaxassisligida ta'lim oluvchi talabalarda xorijiy mamlakatlar pensiya tizimining ilg'or tajribalarini keng miqyosida ochib berish, ularda ushbu yo'nalish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar hosil qilishning zarurligi ushbu fanning o'qitishni taqozo etadi.

## **1.2. «Xorijiy mamlakatlar pensiya tizimi» fanining predmeti, vazifalari**

«Xorijiy mamlakatlar pensiya tizimi» fanini o'qitishning maqsadi — kelgusida yuqori malakali iqtisodchi mutaxassislar bo'lib etishadigan talabalar uchun rivojlangan, rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida pensiya ta'minoti tizimi haqida nazariy bilimlar berish, xorijiy mamlakatlarda pensiya tizimining xususiyatlari, ularni boshqarish jarayonlarining muhim yo'nalishlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, fan o'z predmetini o'rganish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirishni belgilaydi:

- Xorijiy mamlakatlarda qo'llaniladigan pensiya ta'minoti shakllarining iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini o'rganish;
- Pensiya tizimi modellarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
- Pensiya tizim modellaridan foydalanishiga qarab mamlakatlarni guruhlash, mazkur mamlakatlarda pensiya tizimining rivojlanish tendentsiyalarini baholash;
- Shimoliy Amerika pensiya tizimi xususiyatlarini o'rganish;
- Aholi pensiya ta'minoti bo'yicha pensiya ta'minoti tizimidan Germaniyadan foydalanish holati, rivojlanish bosqichlari va tendentsiyalarini yoritish;
- Frantsiya pensiya tizimining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarini hamda ularning ijobiy natijalarini umumlashtirish, uni O'zbekistonda ijodiy qo'llash oqibatlari bo'yicha ko'nikmalar hosil qilish;
- EI a'zo boshqa davlatlar pensiya ta'minoti tizimining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berish;
- Lotin Amerika davlatlarida pensiya ta'minoti tizimi shakllaridan foydalanish xususiyatlarini o'rganish, xususan Chili va Argentinaning ijobiy natijalarini, boy tajribasidan milliy pensiya tizimida foydalanish yo'llari yuzasidan ishlanmalarni shakllantirish yuzasidan ko'nikmalar hosil qilish;
- Avstraliya pensiya tizimi xususiyatlari
- Yaponiya va Janubiy Koreya pensiya tizimi
- Xitoy pensiya tizimi

- Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlarining pensiya ta'minoti tizimi
- Rossiya pensiya ta'minoti
- Qozog'iston pensiya tizimining xususiyatlari

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

“Xorijiy mamlakatlar pensiya tizimi” fanini o'qitishning maqsadi – kelgusidayuqori malakali iqtisodchi-mutaxassislar bo'lib etishadigan magistrantlarga rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardagi pensiya ta'minotining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish, pensiya tizimi to'g'risida nazariy bilimlar berish, pensiya tizimini modernizatsiyalash va yangilash sharoitida rivojlangan mamlakatlardagi budjetdan tashkari pensiya fondi faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish, samarali boshqarish va moliyaviy nazorat jarayonlarning muhim yo'nalishlari bo'yicha asosiy ma'lumotlar berishdan iborat.

Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqqan holda fan o'z predmetini o'rgatish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirishni belgilaydi:

- pensiya tizimining iqtisodiy-ijtimoiy mohiyati va asosiy vazifalarini o'rganish;
- rivojlangan davlatlar pensiya tizimiga asosiy ta'sir etuvchi omillarni belgilash;
- rivojlanagan mamlakatlarda pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
- pensiya tizimining shakllarini o'rganish;
- turli mamlakatlardagi pensiya tizimndagi ijobiy va noqulay tomonlarini ko'rsatish;
- pensiya ta'minotidagi ijtimoiy xatarlarni ahamiyatini ilmiy asoslash;
- mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash va yangilash davrida
- Byudjetdan tashqari Pensiya fondining xorijiy tajribalarini o'rganish;
- xorijiy mamlakatlarda pensiya fondi daromadlari va xarajatlarining ijrosi mexanizmini ko'rib chiqish;
- pensiya tizimini samarali boshqarish va xarajatlarini optimallashtirishni o'rganish;

### **1.3. «Xorijiy mamlakatlar pensiya tizimi» fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi, fanni o'rganish doirasida magistrantga qo'yiladigan talablar**

“Xorijiy mamlakatlar pensiya tizimi” fani bakalavriat bosqichida o'rganilgan “Davlat maqsadli jamg'armalari va budjetdan tashqari fondlar”, “Davlat budjeti”, “Xalqaro iqtisodiy munosabatlar”, “Xalqaro moliya munosabatlari”, magistraturaning “Byudjet tizimi” “Xalqaro moliya”, “Davlat moliyasini boshqarish” kabi fanlardan olingan nazariy asoslarga tayanadi.

Shu bilan birga, “Xorijiy mamlakatlar pensiya tizimi” fani magistraturadagi qator maxsus fanlar, jumladan, "Davlat pensiya ta'minoti tizimi", “Pensiya ta'minotining nazorati”, “Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti” kabi fanlarni o'zlashtirish uchun nazariy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur fanni o'rganish jarayonida magistrantlar pensiya tizimini boshqarish nazariyasi va amaliyotiga oid bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim. Magistrantlar umumnazariy fanlardan olgan bilimlari bilan bir qatorda, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi pensiya tizimi qonunchiligi borasidagi yangiliklardan, pensiya fondi faoliyatini boshqarish amaliyotidagi va xorijiy mamlakatlarda xususiy pensiya ta'minotidagi o'zgarishlardan xabardor bo'lishlari lozim.

O'quv rejasiga muvofiq, mazkur fanni o'zlashtirish uchun ma'ruza mashg'ulotlari, amaliy mashg'ulotlar, o'qitishning interaktiv uslublari va vositalari yordamida olib boriladi.

Fan bo'yicha magistrantlarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan

Talablar “Xorijiy mamlakatlar pensiya tizimi” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida magistr:

- pensiya tizimining davlat iqtisodiyoti va moliya tizimiga ta'siri;
- tug'ilish - o'lish indekslarini pensiya yoki davlat budjetiga ta'siri;



- davlat pensiya ta’minoti tizimining uslubi va uslubiyoti;
- rivojlangan davlatlar pensiya tizimini boshqarish yuzasidan moliya siyosatining asosiy yo’nalishlari;
- pensiya tizimi yuzasidan xalqaro amaliyot va rivojlangan tajribalar haqida tasavvurga ega bo’lishi;
- pensiya tizimining tashkiliy-huquqiy asoslarini tahlilini;
- pensiya fondi faoliyatida barcha pul oqimlari harakati bilan bog’liqligini;
- pensiya fondida pul operatsiyalari va kapital harakati bilan bog’liq operatsiyalarini;
- xususiy pensiya tizimi faoliyat ko’rsatishining tashkiliy-xukukiy elementlarini;
- xususiy pensiya tizimi bo’g’inlari mablag’larini xarakatchanligi va etarliligini baholash usullarini;
- xususiy pensiya tizimi faoliyatidagi axborot tizimini ahamiyatini;
- davlat pensiya tizimining joriy moliya yilidagi holati tahlilini;
- Davlat va xususiy pensiya tizimi o’rtasida pul oqimlari xarakati tahlilini;
- pensiya fondi xarajatlari va daromadlarining ijrosi natijalarini baholash mezonlarini;
- xalqaro pensiya tizimi amaliyoti va rivojlangan tajribalar asosida ijtimoiy xizmat samaradorligini oshirish yo’nalishlarini bilishi va ulardan foydalana olishi;
- pensiya fondi daromadlari va xarajatlari ijrosining tezkor va yakuniy hisobotlarini tayyorlash;
- rivojlangan mamlakatlar pensiya ta’minoti ijrosi asosida davlat pensiya tizimi holatini tahlil etish;
- xususiy pensiya fondiga mablag’larni jalb qilish imkoniyatlarini baholash;
- pensiya tizimi takomillashtirish bilan fuqarolarning ijtimoiy himoyasini barqarorligini ta’minlash.

Fanning o’quv rejadagi boshqa fanlar bilan o’zaro bog’liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi “Xorijiy mamlakatlar pensiya tizimi” fani ixtisoslik fani hisoblanadi. Dasturni amalga oshirish o’quv rejasida rejalashtirilgan fanlar (ilmiy tadqiqot metodologiyasi, iqtisodiy fanlar bilan bog’liq) va ixtisoslik (“Davlat pensiya ta’minoti”, “Byudjet tizimi”) fanlaridan etarli bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishlik talab etiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o’rni Xorijiy mamlakatlarda davlat pensiya tizimi davlat moliyasi tizimida amalga oshirilayotgan institutsional islohotlarning asosiy yo’nalishlaridan biri bo’lib, uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, samarali ijtimoiy himoya tizimini ta’minlaydi.

Har bir davlatning qanchalik rivojlangan bo’lishidan qat’iy nazar, moliyaviy imkoniyatlarining chegarasi mavjud. Davlat fuqarolarni ular mehnat kobilyatlarini yo’qotgunlariga qadar bo’lgan ijtimoiy ximoyalanganlik darajasida ijtimoiy ta’minlash imkoniga ega emas. Shuning uchun har bir davlat fuqarolarning ijtimoiy ta’minlanganlik darajasini o’z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda belgilaydi. Jamg’arib boriladigan pensiya ta’minotida keskin islohotlarni jadal davom ettirish, Pensiya fondi daromadlari va xarajatlari balansida yuzaga keladigan taqchillikni bartaraf qilish va ijobiy qoldiqqa erishish imkoniyatlarini beradi. Byudjetning g’azna ijrosiga o’tilishi barobarida pensiya fondini nazorat qilish chora-tadbirlari izchillik bilan budjet amaliyotiga joriy etiladi. Jahon andozalari va xalqaro budjet amaliyotining yangi talablari va mezonlari asosida pensiya tizimini o’rta muddatli istiqbolini belgilash, rivojlangan mamlakatlarda samarali amal qilayotgan xususiy pensiya ta’minotining joriy etish Byudjetdan tashqari Pensiya fondi organlari oldiga ham ulkan vazifalar qo’yadi.

Fanni o’qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar Magistrantlarning “Xorijiy mamlakatlar pensiya tizimi” fanini o’zlashtirishlari uchun ilg’or va zamonaviy usullardan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiiq qilish muhim ahamiyatga ega. Fanni o’zlashtirishda darslik, o’quv va uslubiy qo’llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, multimediyaga materiallari hamda budjet qonunchiligi to’g’risidagi va Xalqaro valyuta fondi (International Monetary Fond), Jahon banki (The

World Bank), Birlashgan millatlar rivojlatirish dasturi (United Nations Development Program), hisobotlar, ma'ruzalari va maqolalaridan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliy darslarda mos ravishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan: aqliy hujum, muammoli vaziyat vazifalarni echish, kichik guruhlarda topshiriqlar bajarish, amaliy ish o'yinlaridan foydalaniladi.

“Xorijiy mamlakatlar pensiya tizimi” fanining iqtisodiy fanlar tarkibida tutgan o'rnini. “Xorijiy mamlakatlar pensiya tizimi” fanining predmeti va mazmuni. Fanning maqsadi va asosiy vazifalari. “Xorijiy mamlakatlar pensiya tizimi” fanining mutaxassislik hamda boshqa maxsus fanlar bilan bog'liqligi.

Iqtisodiyotning taraqqiyoti darajasiga qarab, ijtimoiy hayot yo'nalishi shakllanadi, uning rivojlanishi bilan yuksala boradi, ijtimoiy vaziyat barqarorlashadi, jamiyat a'zolarining kelajakka ishonchi ortadi va faolligi tobora kuchayadi. Moliya tizimi esa jamiyat a'zolarining nafaqat bugungi, balki ertangi va kelajakdagi farovonligini belgilab beradi. O'zbekistonda bozor islohotlarning chuqurlashuvi sharoitida kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish yangicha amaliy va samarali shakllarni qo'llashni talab etadi. Jahon tajribasining ko'rsatishicha, pensiya fondi faoliyatini yo'lga qo'yishdan maqsad fonddan samarali foydalanishdir.

Xorijiy davlatlardagi moliya tizimida davlatning maqsadli fondlarining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatish, pensiya fondi haqida nazariy bilimlar berish, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida byudjetdan tashqari fondlarning faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish, samarali boshqarish va moliyaviy nazorat qilish jarayonlarini o'rganish muhim hisoblanadi.

“Xorijiy mamlakatlar pensiya tizimi” fanini o'qitishning maqsadi - kelgusida yuqori malakali iqtisodchi-mutaxassislar bo'lib etishadigan magistrantlar xorijiy mamlakatlardagi pensiya tizimini boshqarish haqida nazariy bilimlar berish, ularda davlatning hozirgi davrdagi ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib fan o'z predmetini o'rgatish uchun quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- ijtimoiy himoya tizimining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini o'rganish;
- ijtimoiy himoya tizimining tarkibi va pensiya tizimi tadbirlarini o'rganish;
- Yevropa mamlakatlarida pensiya tizimini boshqarishning tashkiliy asoslarini o'rganish;

- MDX davlatlarida pensiya tizimi va davlat boshqaruvi darajasida moliyaviy munosabatlarning amal qilishini o'rganish;

- rivojlangan davlatlarda pensiya tizimini boshqarish yuzasidan ilg'or tajribalarni respublikamizga tadbir etish xususiyatlarini o'rganish.

“Xorijiy mamlakatlar pensiya tizimi” fani “Iqtisodiy nazariya”, “Davlat moliyasini boshqarish”, “Davlat byudjeti”, “Davlat maqsadli fondlarini boshqarish” kabi fanlardan olingan nazariy asoslarga tayanadi.

Shu bilan birga “Xorijiy davlatlar pensiya tizimi” fani qator maxsus fanlarni o'zlashtirish uchun boshlangich manba hisoblanadi.

“Xorijiy mamlakatlar pensiya tizimi” fani magistraturadagi qator maxsus fanlar, jumladan, "Nodavlat pensiya jamg'armalari", "Pensiya jamg'armalaridagi aktivlarni boshqarish", "Davlat pensiya ta'minotini boshqarish" kabi fanlarni o'zlashtirish uchun nazariy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Davlat pensiya tizimi davlat moliyasi tizimida amalga oshirilayotgan institutsional islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, samarali ijtimoiy himoya tizimini ta'minlaydi. Har bir davlatning qanchalik rivojlangan va boy davlat bo'lishidan qat'iy nazar, moliyaviy imkoniyatlarining chegarasi mavjud. Davlat fuqarolarni ular mehnat kobiliyatlarini yo'qotgunlariga qadar bo'lgan ijtimoiy ximoyalanganlik darajasida ijtimoiy ta'minlash imkoniga ega emas. Shuning uchun xar bir davlat fuqarolarning ijtimoiy ta'minlanganlik darajasini o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda belgilaydi. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotida keskin islohotlarni

jadal davom ettirish, Pensiya fondidaromadlari va xarajatlari balansida yuzaga keladigan taqchillikni bartaraf qilish va ijobiy qoldiqqa erishish imkoniyatlarini beradi. Byudjetning g'azna ijrosiga o'tilishi barobarida pensiya fondini nazorat qilish chora-tadbirlari izchillik bilan byudjet amaliyotiga joriy etiladi. Jahon andozalari va xalqaro byudjet amaliyotining yangi talablari va mezonlari asosida pensiya tizimini o'rta muddatli istiqbolini belgilash, rivojlangan mamlakatlarda samarali amal qilayotgan xususiy pensiya ta'minotining joriy etish Byudjetdan tashqari Pensiya fondi organlari oldiga ham ulkan vazifalar qo'yadi. Ushbu fanni o'rganish jarayonida magistrantlar pensiya tizimini boshqarish nazariyasi va amaliyotiga oid bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim. Magistrantlar umumnazariy fanlardan olgan bilimlari bilan bir qatorda, xorijiy mamlakatlardagi pensiya tizimi qonunchiligi borasidagi yangiliklardan, pensiya fondi faoliyatini boshqarish amaliyotidagi va xorijiy mamlakatlarda xususiy pensiya ta'minotidagi o'zgarishlardan xabardor bo'lishlari lozim. O'quv rejasiga muvofiq, mazkur fanni o'zlashtirish uchun ma'ruza mashg'ulotlari, amaliy mashg'ulotlar, o'qitishning interaktiv uslublari va vositalari yordamida olib boriladi.

Har qanday mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini belgilashda moliya tizimining qay darajada tashkil etilganligiga alohida e'tibor qaratishi tabiiy hol, albatta. Moliya tizimida pensiya fondi alohida o'rin tutadi. Mazkur fondning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalari mavjud. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida pensiya fondlarining o'rni va roli juda muhimdir. Chunki Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini samarali boshqarishda, aholi turmush daraja-sini oshirishda, ishlab chiqarishni rag'batlantirishda bevosita Davlat byudjeti bilan birga byudjetdan tashqari fondlardan ham foydalaniladi.

Xorijiy davlatlarda «Byudjetdan tashqari fondlar avval maxsus fondlar va o'ziga xos hisobraqamlar ko'rinishida mavjud bo'lgan. Davlat o'zining faoliyat doirasini kengaytirishi bilan tobora yangi xarajatlarga ehtiyoj seza boshladi. Ularni qoplash uchun mablag'lar maxsus fondlarda to'plandi va maxsus maqsadlarga qaratildi.

## **2-MAVZU: PENSIYA TIZIMLARINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH TARIXI REJA**

- 2.1. Pensiya tizimlarining modellari va rivojlanish tarixi
- 2.2. Pensiya ta'minoti tizimida bismark modeli va uning xususiyatlari.
- 2.3. Pensiya ta'minoti tizimida beveredj modeli va uning xususiyatlari.
- 2.4. Dunyu mamlakatlarida pensiya ta'minoti tizimidagi pensiyalar turlari

**TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:** Pensiya tizimlari modellari, xalqaro mehnat tashkiloti, avlodlar birdamligi, xorijiy mamlakatlar pensiya tizimlari, pensiya ta'minoti tizimi, davlatning ijtimoiy siyosati, pensiya ta'minoti, davlat budjeti, davlat pensiya tizimi, nodavlat pensiya tizimi, davlat maqsadli jamg'armalari, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, xalqaro moliya munosabatlari, byudjet tizimi, xalqaro moliya.

### **2.1. Pensiya tizimlarining modellari va rivojlanish tarixi**

Har qanday davlatning eng muhim majburiyatlaridan biri o'z fuqarolari uchun ularning mehnat davridan keyin munosib keksalikni ta'minlash hisoblanadi. Bu funktsiyani bajarish uchun davlat mehnatga layoqatsiz aholi qatlamiga (qarilik, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha) ijtimoiy shaklga ega bo'lgan pensiya deb nomlanuvchi pul to'lovlarini to'lab boradi.

Pensiya tizimlarining ijtimoiy institut sifatida yuzaga kelishi ancha oldin sodir bo'lgan. Rim imperiyasida Yuliy Sezar davridayoq legionerlarga munosib keksalikni ta'minlash choralari ko'zda tutilgan. Har bir legionerga urushda bosib olingan yerlardan mulk ajratilgan.

Hozirgi paytda dunyoda pensiya tizimi tarixi XVIII-XIX asrlardan, davlat xizmatchilarining alohida kamsonli guruhlarning davlat pensiya ta'minotidan, mamlakatning barcha fuqarolarini qamrab oluvchi pensiya mexanizmiga o'tish davridan boshlab o'rganiladi. Bunda ayniqsa Yevropa mamlakatlari – Fransiya, Buyuk Britaniya va Germaniyalar ilg'or sanaladi. Birinchi pensiya ta'minoti Fransiyaning harbiy dengiz floti ofitserlari uchun 1673-yilda joriy etilgan. Buyuk fransuz revolyutsiyasi davrida, 1790-yilda davlat xizmatchilari bo'lgan, 30 yillik stajga ega bo'lib, 50 yoshdan oshgan fuqarolarning pensiyalari to'g'risida qonun qabul qilingan. Ilk keng ko'lamli pensiya tizimi kansler Otto Fon Bismark islohotlari tufayli paydo bo'lgan U sekin asta amaliyotga tadbiiq etilib, avvaliga bemorlar va nogironlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni (1884 y), keyinchalik esa umumiy pensiya ta'minotini ko'zda tutgan. Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh)da esa bunday tizim ancha kechroq, ya'ni 1935-yilda Ruzvelt tomonidan "Ijtimoiy himoya akti" imzolanganidan keyin, Buyuk Britaniyada 1908-yilda, Fransiya esa 1910-yilda tashkil etilgan.<sup>2</sup>

Birinchi, xususiy sektorda band bo'lganlarni davlat tomonidan yoshga doir pensiya bilan ta'minlash tizimi 1889-yilda Germaniyada tashkil etilgan. Bu ishga Germaniyaliklar ijtimoiy sug'urtalashni majburiy badallarga asoslagan holda yondoshganlar. Ish beruvchilar va ishchilar uni moliyalashirish uchun mablag'lar ajratishi ya'ni badallar to'lashi lozim bo'lgan. Germaniyada amalga kiritilgan tizim faoliyati, gildiyalar va ishchilar birlashmalari tashkil etgan ixtiyoriy o'zaro yordam fondlarining amaliyotiga tayangan edi. Yangi tizimdagi pensiya huquqi avval to'langan badallarga asoslangan. 1891-yilda Daniya va 1898-yilda Yangi Zelandiya muhtoj aholi qatlamiga maqsadli yordam berishga yo'naltirilgan pensiya tizimini amalga kiritdi. Bu tizim umumiy soliq daromadlari hisobiga moliyalashtirilib, ehtiyojlarni aniqlashni mo'ljallangan va to'lovlarning qat'iy miqdorini kafolatlagan. Bu tizimlar ko'proq muhtoj aholi qatlamiga oid an'anaviy qonunchilikdan

---

<sup>2</sup>К.э.н. Федотов А.И. История возникновения пенсионных систем в зарубежных странах. 2007.

kelib chiqqan.

Keyingi yillarda ko'pchilik g'arbiy Yevropa mamlakatlari german modeli bo'yicha pensiya sug'urtasi tizimini shakllantirdi, anglisakson mamlakatlar (AQShdan tashqari) va shimoliy Yevropa davlatlari esa ko'proq Daniya va Yangi Zenlandiya yo'lini tanladi. Bu tizimlar turli masalalarni hal qilgan. Germaniya modeli ishlovchilarning pensiyaga chiqqanidan so'ng mavjud ijtimoiy holatini saqlashga moslashtirilgan. Daniya modeli esa (Angliyada tadbiq etilgan) – muhtojlikni cheklashga qaratilgan.

XX asrda jahon davlatlari pensiya tizimlarining asta sekin yaqinlashuvi ro'y beradi. Sug'urta badallariga asoslangan tizimlarda avvalgi to'lovlardan qat'iy nazar, minimal pensiya kafolatlandi. Budget daromadidan moliyalashtiriladigan, barchaga teng bo'lgan pensiya miqdoriga asoslangan mamlakatlarda ehtiyojlarni aniqlash nazorati bekor qilindi. Buyuk Britaniyada qat'iy minimal pensiyalarga qo'shimcha ravishda majburiy ijtimoiy sug'urta tizimi kiritildi.

1920-yillarda AQShda shtatlar hukumati muhtojlilik belgilariga asoslangan pensiya tizimlarini qo'llashni boshlashdi. 1934-yilga kelib bu tizim 28ta shtatda mavjud edi. 1935-yilda AQShda pensiya sug'urtasining federal tizimi joriy etildi.<sup>3</sup> Unga ko'ra Federal pensiya fondi Social Security tashkil etildi.

Shu yili Xalqaro Mehnat tashkiloti migrantlarning huquqlarini mustahkamlash maqsadida, qarilik, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalariga oid qonunlarning koordinatsion, ya'ni, o'zaro muvofiqlashtirilgan tizimini yaratish tashabbusi bilan chiqadi.

Pensiya dasturlarining o'ziga xos belgilaridan biri – ularning vujudga kelishi bosqichida siyosiy ommabopligi edi. Bu tushunarli: pensiyaga chiquvchi ishchilar o'tgan mehnat staji davomida, ularning pensiya to'lovlarini ta'minlovchi badallarni to'liq miqdorda to'lashmagan. Ularning pensiya to'lovlari og'irligi kelgusi ishchilar avlodi zimmasiga tushgan. Biroq qariyalar ulushi kam bo'lgan yosh industrial jamiyat uchun bu jiddiy muammoga sabab bo'lmagan.

Ikkinchi jahon urushi boshlanishi arafasida deyarli barcha industrial davlatlar o'z pensiya ta'minoti tizimiga ega bo'lsada, ularning ko'pchiligida pensiya tizimi va pensiya to'lovlari bilan ta'minlangan aholi ulushi chegaralangan edi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi o'n yillik, ko'plab rivojlangan davlatlarda qoplanish darajasining oshishi va pensiya to'lovlarning ommalashuvi davri bo'ldi.

Shuningdek bu davrda pensiya ta'minotiga oid qonunchilik bazasi takomillashib bordi. 1962-yilda Xalqaro Mehnat tashkiloti tomonidan №118-sonli "Mamlakat fuqarosi, chet elliklar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning teng huquqliligi to'g'risida"gi Konvensiya qabul qilindi. Unda ijtimoiy ta'minot sohasidagi teng huquqlilik tamoyili o'rnatildi. Bu konvensiyani ratifikatsiya qilgan Xalqaro Mehnat tashkiloti a'zolari o'z hududlarida Xalqaro Mehnat tashkilotiga a'zo boshqa davlat fuqarolarini, shuningdek qochoq va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni 1952-yilda №102-sonli konvensiya bilan kafolatlangan ijtimoiy ta'minlanish huquqlarini, o'z fuqarolari bilan bir qatorda ta'minlash majburiyatini olganlar. 1965-yilda №48-sonli konvensiya qabul qilindi. Unga ko'ra aniq bir shaxsning mehnat faoliyati bir necha mamlakatlarda amalga oshirilgan bo'lsa, bu holda har uch turdagi pensiyadan birini olayotganda aniqlanadigan mehnat staji davrlari yig'indisi qanday hisoblanishi masalalarini tartibga solish imkoniyati vujudga keldi. Bu masalalar yanada batafsil qilib 1982-yilda imzolangan №157-sonli konvensiyada ishlab chiqilgan.

Jahon tajribasini tahlil qilsak, XIX–XX asrlarda turli pensiya ta'minoti modellari aks etgan ikkita bazaviy nazariy-uslubiy yondoshuvlar shakllangan.<sup>4</sup>

Birinchisi, davlat pensiya tizimi ishtirokchilarining daromadini minimal darajada ta'minlashni kafolatlash zaruratiga qaratilgan bo'lsa, ikkinchisi, sug'urtalangan ishchining

<sup>3</sup> Beveridge Not Bismarck! European Lessons for Men's and Women's Pensions in Germany. February 2014.

<sup>4</sup> Naczyk, M.; Palier, B. (2012): France: Promoting funded pensions in Bismarckian corporatism?, in: Ebbinghaus, B. (ed.): Varieties of Pension Governance. The Privatization of Pensions in Europe. Oxford: Oxford University Press, 89–118.

daromadini, uning ish haqining ma'lum bir qismini rezervlab qo'yish xisobiga, pensiyadan oldingi daromadi bilan solishtirib, o'sha darajada saqlab qolishni ta'minlashga yo'naltirilgan. Ushbu yondoshuvlar asosi quyidagi pensiya tizimi modellaridan iborat. Ular turli yillarda shakllangan O.Bismark va U.Beveridj tamoyillari asosida qurilgan.

## **2.2. Pensiya ta'minoti tizimida bismark modeli va uning xususiyatlari.**

Bismark modeli, "avlodlar birdamligi" tamoyili asosida qurilgan bo'lib, birinchi marta 1889-yilda Germaniyada joriy qilingan. Uning negizi – taqsimlovchi mexanizmga asoslangan: ishlovchi fuqoro (bo'lajak pensioner)lardan kelib tushuvchi barcha joriy to'lovlar ya'ni badallar, "bugungi" pensionerlarning pensiya ta'minoti to'lovlari uchun sarflanadi.

Bismark konsepsiyasi ko'plab dunyo mamlakatlari tomonidan amaliyotda qo'llab quvatlangan. Unga ko'ra pensiya badallari ko'rinishida fondga to'lanuvchi pul mablag'lari, fond mulki sifatida, tasdiqlangan "Fond mulkini joylashtirish yo'nalishlari normativlari"ga muvofiq investitsion loyihalarga joylashtiriladi. Investitsiyasdan kelgan foyda, fondning pensiya ko'rinishidagi to'lovlarini to'lash manbasi bo'lib hisoblanadi. Bu model haligacha ko'plab davlatlarda amal qiladi (1.2-rasm). Bismark modeli doirasida qo'shimcha pensiya ta'minoti rejimlari mavjud bo'lib, ular jamg'arish tamoyillariga asoslangan, biroq ular unchalik ham rivojlanmagan. Pensiya yig'indisi o'rtacha ish haqining 70 foizini tashkil qiladi.

Bismark modeli xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Maqsadi – majburiy pensiya sug'urtasi yordamida ishlovchining hayot darajasi va sifatini saqlash (qoplash koeffitsienti 60-70%);
- Tizimni moliylashtirishda ishlovchi ishtirokining yuqori darajadaliigi;
- Ixtiyoriy pensiya rejalarining mavjudligi (qoplash koeffitsienti 10-20%);
- Umumiy qoplash koeffitsienti 90%;
- YaIM dagi ish haqi hajmi 45-50% atrofida;
- Majburiy pensiya sug'urtasiga rezervlanadigan mablag'lar ulushining yuqoriligi (YaIM 10-15 foiz);
- Qo'shimcha (nodavlat) korporativ pensiya sug'urtasi (YaIM 2-3 foiz).
- Pensiya tizimida davlatning roli minimallashtirilgan.

Beveridj modeli davlat tomonidan barcha aholi uchun oldindan belgilangan va minimal pensiya bilan ta'minlashni nazarda tutadi. Ushbu tizim doirasida davlatlar orasidagi farq asosan minimal pensiya miqdori summasida bo'lishi mumkin. Tizimni moliyalashtirish manbasi maxsus "ijtimoiy" soliq hisoblanadi. Biroq, bazaviy pensiya miqdori mehnat faoliyati davri mobaynida erishilgan hayot darajasiga umuman mos kelmasligi sababli, qo'shimcha pensiya ta'minoti turlari keng tarqalgan. Beveridj "Qo'shimcha pensiya dasturlari doimo jamg'arish tamoyili asosida quriladi, biroq barcha mamlakatlar uchun yagona "xususiy pensiya fondlari" modeli mavjud emas" deb hisoblagan.

Beveridj modeli 1942-yilda Angliyada ijtimoiy himoya tizimi ko'rinishida ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan. Bugungi kunda Buyuk Britaniya pensiya tizimi davlat sug'urtasi, professional (korporativ) va shaxsiy pensiyalarni o'z ichiga oladi. Davlat sug'urtasi ish beruvchilar (5-10,45 foiz ish haqi fondidan) va ishchilar (5-9 foiz oylik ish haqidan) badallari hisobiga shakllanuvchi minimal bazaviy pensiyani kafolatlaydi. Bu badallar davlatning joriy pensiya majburiyatlarini bajarish uchun ishlatiladi. Professional va shaxsiy pensiyalar majburiy emas. Ular jamg'arish tamoyiliga asoslangan, qo'shimcha pensiya ta'minoti dasturlari hisobiga shakllanadi. Professional pensiyalar ish beruvchilar tomonidan tayinlanadi, tashkilotlar pullarni pensiya fondlariga o'tqazishadi, yig'ilgan pullar qo'shimcha pensiya sifatida to'lanadi. Shaxsiy pensiyalar ishchilar tomonidan sug'urta kompaniyalari yordamida shakllantiriladi. Beveridj modeli amal qiluvchi davlatlarda o'rtacha pensiya miqdori o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 50 foizni tashkil etadi. Bundan

tashqari o'rtta sinf vakillarining "pensiya yoshida" shaxsiy jamg'armalari yetarlicha yuqoridir.

### **2.3. Pensiya ta'minoti tizimida beveridj modeli va uning xususiyatlari.**

Beveridj modeli xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Barcha pensiya yoshidagi aholini qamrab olib, bir xil pensiya miqdoridagi ta'minotni kafolatlaydi;
- Kafolatlangan qoplash miqdori ish haqidan 18-20%;
- Qo'shimcha korporativ pensiya sug'urtasining kafolatlangan qoplash miqdori 35-45%;
- Umumiy qoplash koeffitsienti 50-60%;
- Ish haqining YaIM dagi yuqori hajmi (60-65% atrofida);
- Majburiy pensiya sug'urtasiga rezervlanadigan mablag'lar qismining o'rtachaligi (ish haqi miqdoridan qariyb 12-14%, yoki YaIMdan 6-7%);
- Qo'shimcha (nodavlat) korporativ pensiya sug'urtasi (YaIM 3-4%).
- Pensiya tizimida davlatning roli maksimalashtirilgan.

Quyidagi davlatlar pensiya tizimida Beveridj modeli ishlatiladi:

Barcha ijtimoiy sug'urta dasturlari kabi, qariganda pensiya bilan ta'minlash, ijtimoiy himoya va stimullarga ta'sir ortasidagi balansni topishni taqazo etadi. Ijtimoiy sug'urta bo'yicha to'lovlar qariyalar guruhini muhtojlikdan va yashash darajasining keskin pasayishidan himoya qiladi.

Pensiya ta'minoti bevosita mehnatga layoqatsiz aholi qatlamini himoylash mehanizmi bo'lib, uning to'g'ri tashkil etilishi jamiyatning barqaror rivojlanishining eng muhim ijtimoiy kafolati va negizi hisoblanadi.

Sivilizatsiyalashgan jamiyatda insonlarning qariganda va mehnatga layoqatini yo'qotganda ta'minlash uchun mablag'larni yig'ish ehtiyoji individual muammodan umummilliy muammoga aylanmoqda.

Har qanday mamlakatning pensiya ta'minoti tizimi o'ziga xos tashkiliy, moliyaviy va boshqa qator xususiyatlarga ega. Deyarli barcha mamlakatlar pensiya ta'minotini "uch pog'onali" tizim orqali amalga oshirishadi.

### **4. Dunyu mamlakatlarida pensiya ta'minoti tizimidagi pensiyalar turlari**

Bunga quyidagi pensiya ta'minoti tizimlari kiradi:


1. Davlat pensiya ta'minoti tizimi
2. Xususiy (nodavlat) pensiya ta'minoti tizimi
3. Fuqarolarning shaxsiy (jamg'arib boriladigan) pensiya tizimi

Davlat pensiya ta'minoti mamlakatning har bir fuqarosini yoki alohida guruhlari (masalan, davlat xizmatchilari)ni qamrab oladi. Davlat pensiya ta'minoti fuqarolarining qariganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy ta'minlanishdan iborat huquqlarini ro'yobga chiqarishni ko'zda tutadi.

Davlat pensiyalari 3 guruhdan iborat:

1. Mehnat pensiyasi
2. Ijtimoiy pensiya va nafaqalar

### 3. Davlat xizmatchilari uchun pensiyalar



2.1 - rasm. Dunyo mamlakatlarida davlat pensiyalari turlari <sup>5</sup>

Mehnat pensiyasi - pensionerning ish stajidan va o'rtacha oylik ish haqidan, shuningdek to'lagan sug'urta badallari miqdoridan kelib chiqib hisoblanadi va tayinlanadi. Mehnat pensiyasini olish huquqi fuqaro ma'lum bir yoshga to'lganida paydo bo'ladi. Bu ko'rsatkich turli davlatlarda turlicha bo'lib, ko'pchilik xorijiy davlatlarda Xalqaro Mehnat Tashkilotining tavsiyasiga ko'ra u ayollar va erkaklar uchun 65 yosh qilib belgilangan. Bizda bu ko'rsatkich ayollarda 55 yosh, erkaklarda 60 yoshni tashkil qiladi.

Ijtimoiy pensiya va nafaqalar esa ish stajiga bog'liq bo'lmay, aholining ijtimoiy muhtoj qatlami uchun tayinlanadi va to'lanadi. Ijtimoiy pensiyalar turli davlatlarda turli shartlarda tayinlanadi. Masalan, AQShda ijtimoiy pensiya kam ta'minlangan fuqarolar uchun minimal pensiya miqdorida to'lanadi, agarda u fuqaro boshqa daromad manbaiga ega bo'lsa, ijtimoiy pensiya miqdori kamaytiriladi.

Davlat xizmatchilari uchun pensiyalar esa harbiy xizmatchilar, mansabdor shaxslar uchun tayinlanadi. Bu pensiya to'lovlari bevosita davlat budjeti hisobidan amalga oshiriladi. Masalan yaqin yillargacha Xitoy Xalq Respublikasida davlat pensiyasi faqatgina davlat xizmatchilari, amaldorlar uchun berilar edi.

Davlat pensiya ta'minoti tizimi ijtimoiy soliqlar va to'lovlar hisobiga moliyalashtirilib, unda ishtirok etish barcha ishlovchilar va ish beruvchilar uchun majburiy hisoblanadi. Demak, davlat pensiya tizimining asosiy moliyaviy manbai ijtimoiy sug'urta tizimiga kiritiladigan to'lovlar hisoblanadi. U umumiy oylik ish haqining hajmiga bog'liq bo'lib, turli mamlakatlarda turlicha ko'rsatkichga (Kanadada 5 foiz, Italiyada 30 foizgacha) ega. Ayrim mamlakatlar (AQSH, Kanada, Yaponiya)da to'lovlar ish beruvchi va ishchilar tomonidan teng miqdorda to'lanadi, boshqa mamlakatlar (Ispaniya, Italiya)da esa ish beruvchi zimmasiga yuk ko'proq tushadi. Ijtimoiy to'lovlar yoki soliqlar stavkalari har bir davlatning qonunchiligi bilan belgilab qo'yiladi (1-jadval).

Davlat pensiya ta'minoti odatda solidar (taqsimlovchi) tizimga asoslanadi. Solidar tizimda pensioner o'z pullarini emas, balki ayni paytda soliq va badallar to'lovchilari bo'lmish ishlovchilarning pullarini oladilar. Shu tariqa, taqsimlovchi tizim o'zida avlodlar birdamligini ifodalaydi.

"Avlodlar birdamligi" ijtimoiy tamoyil bo'lib, u majburiy tartibda amalga oshirilganda va davlat darajasida hamda demografik holat ijobiy bo'lgandagina to'laqonli ishlashi mumkin.

<sup>5</sup>Internet ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



Bu tizimning mohiyati shundaki, pensiya fondiga kelib tushuvchi pensiya sug'urtasi badallari ko'rinishidagi mablag'lar, pensiya fondlari hisob raqamida deyarli ushlanib qolmay, oylik pensiya to'lovlari ko'rinishida pensionerlar ixtiyoriga o'tadi. Shu tariqa pensiya to'lovlari o'rnatilgan miqdorlarda ta'minlanishi kafolatlanadi.

Xorijiy davlatlar davlat pensiya ta'minotini fuqarolarning pensiyaga chiqqanida ega bo'ladigan daromadiga ko'ra uchga bo'lish mumkin:

1. Yuqori darajadagi qoplash, qoplanish darajasi 50% dan yuqori;
2. O'rta darajada qoplash, qoplanish darajasi 50%;
3. Past darajada qoplash, qoplanish darajasi 50% dan past.

## 2.1 – jadval

### Xorijiy davlatlar pensiya tizimini moliyalashtirish manbalari <sup>6</sup>

Davlat	Ishlovchilardan ushlanmalar (oylik ish haqidan, %)	Ish beruvchilardan ushlanmalar (oylik ish haqi fondidan, %)
Shvetsiya	1	19,03
Belgiya	7,5	8,86
Fransiya	6,6	8,2
Gretsiya	6,67	13,33
Norvegiya	7,8	14,2
Italiya	8,7	21,3
Buyuk Britaniya	5-9	5-10,45
Yaponiya	8,25	8,25
Irlandiya	7,75	12,25
Turkiya	9	11
Ispaniya	4,7	23,6

Qoplanish koeffitsienti – o'rtacha pensiya miqdorining o'rtacha oylik ish haqi nisbatiga teng bo'lib, Xalqaro Mehnat Tashkiloti standartlariga ko'ra qoplanish koeffitsienti darajasi fuqaroning mehnatga layoqatli davridagi oylik ish haqi (daromadi)ning 40 foizidan kam bo'lmasligi kerak <sup>7</sup>.

Shaxsiy pensiya hisob raqamda jamg'ariluvchi pensiyalarni fuqaro pensiya yoshiga yetgandagi olishi mumkin bo'ladi. Shaxsiy hisob raqamga o'tkazib turiluvchi sug'urta badallari oylik yoki yillik summasi ko'p mamlakatlarda chegaralangandir. Odatda shaxsiy pensiya hisob raqami tijorat va omonat banklarida, sug'urta tashkilotlarida ochiladi.

Jamg'ariluvchi tizim asosida, pul fondlarini tashkil qilish sxemasi yotadi. Unda barcha moliyaviy mablag'lar jamlanadi va uning ma'lum qismigina joriy pensiya to'lovlari xarajatlarini qoplashga sarflanadi. Qolgan, rezerv qismi esa daromad olish manbasi sifatida investitsiyalarga yo'naltiriladi.

Rezerv qism fond faoliyatining birinchi bosqichida, ishlovchi ishtirokchilar badallari umumiy summasi pensiya to'lovlari uchun zarur summadan ko'proq bo'lishi hisobiga shakllanadi. Fondning rivojlanishi va faoliyati darajasiga ko'ra ishlovchilarning sug'urta badallari joriy pensiya xarajatlaridan kamayadi, tafovut esa investitsion foyda hisobiga qoplanib boriladi.

Xorijiy davlatlarda jamg'arib borish usuli asosan nodavlat pensiya fondlari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar (masalan, BMT)ga tegishli fondlar orasida keng tarqalgan. Lekin, ayrim xorijiy mamlakatlaridagi davlat pensiya tizimi yuqoridagi ikki tizimni ham, ya'ni, qayta taqsimlash (solidar) tamoyiliga tayangan davlat pensiya ta'minoti tizimini (u asosiy tizim hisoblanadi) hamda jamg'arma mexanizmiga tayanadigan fuqarolarning

<sup>6</sup>Internetma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

<sup>7</sup> "Ijtimoiy ta'minotning minimal normalari to'g'risida"gi №102 Konvensiya. XMT 1952-yil.

shaxsiy pensiya tizimini (qo‘shimcha, to‘ldiruvchi tizim) o‘z ichiga oladi. Masalan, AQSh, Shvetsiya va O‘zbekistonda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi davlat pensiya tizimida ham qo‘llaniladi.

Biroq dunyodagi har xil mamlakatlar tarixiy an‘analar, joriy ijtimoiy-siyosiy vaziyat, iqtisodiy imkoniyatlar va bir qator boshqa omillarga ko‘ra ushbu ikki tizimning har xil qorishmasidan foydalanadi. Butkul o‘xshash ikki pensiya tizimiga ega davlatni topish qiyin.

Xorijiy davlatlarda davlat pensiyasidan tashqari xususiy pensiya sug‘urtasi tizimi ham joriy qilingan bo‘lib, u korporativ (professional) yoki individual jamg‘arma asosida qurilishi mumkin. Xususiy (nodavlat) pensiya ta‘minoti tizimi biror bir sohaga oid kishilar majmuini qamrab oladi. Odatda bu rolda kasaba uyushmalari birlashgan yirik korxonalar, kompaniyalar va korporatsiyalarning mehnat jamoalari ishtirok etadi.

Ko‘plab davlatlarning pensiya ta‘minoti tizimida, xususiy pensiya tizimi salmoqli o‘rinni egallaydi.

Korporativ pensiya tizimlari davlat va individual sxemalaridan farqli o‘laroq ish beruvchilar tomonidan moliyalashtirilib, firmaning ixtiyoriy ajratmalari yoki jamoa shartnomalaridagi mavjud shartlarga tayanadi. Korporativ pensiya tizimlari davlatning minimal aralashuvi ostida va nisbatan kam ma‘muriy xarajatlarga ega bo‘ladi. Biroq ayrim davlatlarda fuqarolarning huquqlarini himoyalash maqsadida xususiy pensiya tizimlarini nazorat qilish va tartibga solishga oid qator chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Masalan, fuqarolarning pensiya ta‘minotida korporativ pensiya tizimlari salmog‘i juda yuqori bo‘lgan AQShda, bu tizim uchun “o‘yin qoidalari” davlat tomonidan o‘rnatilgan va nazorat qilinadi. Shu sababli ham korporativ pensiya tizimi AQShda ikkinchi milliy pensiya tizimi darajasigacha ko‘tarilgan. Buyuk Britaniyada esa xususiy pensiya tizimlarini rolini oshirish maqsadida uning ishtirokchilari uchun bir qator imtiyozlar yaratilgan. Masalan, korporativ pensiya to‘lovlaridan soliqlar ushlanmaydi.

Korporativ pensiya tizimda ishchiga kelajakda to‘laniladigan pensiya uning staji va oylik ish haqisining hajmiga bog‘liq bo‘ladi. Ishchi stajining davomiyligini korxonalar belgilaydi. Masalan, Germaniyaning Airbus, Mercedes, Siemens kabi yirik korxonalar hodimlari, ushbu korxonalarda minimum 10-yil stajga ega bo‘lgan taqdirda korporativ pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar.

Ish beruvchilar uchun korporativ pensiya tizimini tashkil qilishdan asosiy maqsad – raqobatbardoshlikni ta‘minlash uchun, eng yaxshi, malakali kadrlarni jalb qilish, kadrlar siyosati va intizomini mustahkamlashdan iborat hisoblanadi.

Demak, davlat yuqorida keltirilgan birinchi va ikkinchi tizimlarda, ularning tashkil qilinish shartlari, pensiya ta‘minoti hajmini belgilashda ishtirok etsa, uchinchi tizimda davlat to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirok etmaydi, biroq shartnoma va huquqiy majburiyatlar bajarilishida kuzatuvchi vazifasini o‘taydi.

### **3-MAVZU: JAHONDA PENSIYA TIZIMLARI MODELLARI**

#### **Reja**

- 3.1. Jahonda pensiya tizimlari modellarini mamlakat ishtimoiy iqtisodiy jarayonlarga bogliq holda tanlanishi
- 3.2. Rivojlangan davlatlar pensiya tizimlarining o'ziga xos xususiyatlari
- 3.3. Xorijiy davlatlar pensiya tizimi bo'yicha olib borilgan islohotlar yo'nalishlari

**TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:** Aholini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy ta'minot, pensiya tizimlari modellari, xalqaro mehnat tashkiloti, avlodlar birdamligi, xorijiy mamlakatlar pensiya tizimlari, pensiya ta'minoti tizimi, davlatning ijtimoiy siyosati, pensiya ta'minoti, davlat budjeti, davlat pensiya tizimi, nodavlat pensiya tizimi, davlat maqsadli jamg'armalari, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, xalqaro moliya munosabatlari, byudjet tizimi, xalqaro moliya.

#### **3.1. Jahonda pensiya tizimlari modellarini mamlakat ishtimoiy iqtisodiy jarayonlarga bogliq holda tanlanishi**

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi uzoq davr mobaynida shakllangan bo'lib, dastlab sanoat inqilobi oqibatida vujudga kelgan. Evropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida yuz bergan sanoat inqilobi taraqqiyot jarayoniga kuchli ta'sir o'tkazib, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishga undadi.

Iqtisodiyotni sanoatlashtirish jarayonida yollanma ishchilar sinfi yuzaga kelganligi ularning ijtimoiy himoya qilish siyosatini o'zgartirishni talab qildi. Xususan kasallik, ishsizlik hamda mehnatda shikastlanganlik yoki qarilikda ularga ish haqi to'lanishi to'xtatib turilganda, ular turmush darajasini saqlash va qashshoqlik darajasiga tushib qolmaslik yangi qo'llab-quvvatlash tizimini ishlab chiqish zarurati paydo bo'ldi.

Alohida banklarda jamg'armalar tashkil qilish imkoni yaratildi, kasal yoki mehnatda shikastlangan ishchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ish beruvchilarning zimmasiga majburiyatlar yuklatildi, kasal bo'lganda va qarilik chog'ida moliyaviy yordam beradigan tashkilotlar rivojlandi, hususiy sug'urta fondlari ishchilar hayotini sug'urtalash va dafn nafaqasi ajratishni boshladi. Mazkur munosabatlar yangi "ijtimoiy ta'minot" tushunchasini vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Ijtimoiy ta'minot – bu jamiyat a'zolarini ijtimoiy vositalar yordamida himoya qilish tizimi bo'lib, u ishlab chiqarishning to'xtashiga sabab bo'ladigan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar (kasallik, bola to'g'ish, ishsizlik, nogironlik, qarilik va o'lim munosabati) oqibatida ajratiladigan yordam va imtiyozlar yig'indisidir. Ijtimoiy ta'minotning moliyaviy manbasi yollanma xodimlar tomonidan majburiy ajratiladigan sug'urta badallari hisoblangan. Mazkur sug'urta ajratmalari sog'ligi, malakasi, yoshi va jinsidan qat'iy nazar barcha xodimlar tomonidan to'langan. Sug'urta kontseptsiyasi ishchilar birdamligini ifodalab, ishdagi hamkasblar muhtoj bo'lgan hollarda ularni ajratilgan sug'urta badallari yordamida moliyaviy qo'llab-quvvatlashni nazarda to'tgan. Buning natijasida ijtimoiy sug'urta tizimi halqaro miqyosdagi qoidaga aylandi.

Ijtimoiy ta'minot tizimi rivojlanishining dastlabki bosqichida ish haqisi yuqori hisoblangan xodimlar o'zini-o'zi sug'urta qilishi mumkin bo'lgan. Keyinchalik, ijtimoiy ta'minot tizimining taraqqiyoti jarayonida pensiya va nafaqalarning qat'iy belgilangan miqdori yuzaga keladi va sug'urta tizimi jamiyatning barcha a'zolarini qamrab olish g'oyasi paydo bo'ladi. Majburiy sug'urtalash tizimida eng kam ish haqi oladigan xodimlarga

belgilangan sug'urta badali yuki yuqori ish haqiga ega hizmatchilarga nisbatan og'ir keldi. O'z navbatida, eng kam ish haqi darajasiga asoslangan nafaqalar yuqori oylik oluvchi xodimlarni qoniqtirmasligi ma'lum bo'ldi. Buning natijasida, ish haqi miqdori bo'yicha majburiy badallarni yig'ishga asoslangan pensiya va nafaqalar tizimi vujudga keldi. Ijtimoiy ta'minot ish beruvchilar va ularning yollanma ishchilari tomonidan boshqariladigan hususiy tizim bilan birgalikda rivojlandi. Bu esa ijtimoiy ta'minotni sifatli ta'minlashga mo'ljallangan qo'yidagi tizimni yuzaga keltirdi:

- ✓ qat'iy miqdorda davlat yohud ish haqi asosida hisoblangan pensiya;
- ✓ hususiy fondlar hisobidan ajratiladigan pensiyalar.

Hozirgi kunga kelib har bir mamlakat pensiya ta'minoti tizimi o'ziga xos hususiyatiga ega. Rivojlangan mamlakatlarda pensiya ta'minoti tizimi uch bo'g'indan iborat: davlat, nodavlat yoki hususiy pensiya jamg'armalari va sug'urta institutlaridir. Aksariyat mamlakatlarda pensiyaning miqdori ish haqining hajmi va to'langan sug'urta badali miqdoriga qarab belgilanadi.

Xorij tajribasi shuni kysratmoqdaki, bozor iqtisodiyoti tizimi aholining kam ta'minlangan, nogiron va keksayib qolgan fuqarolar turmush darajasini oshirish borasida tegishli choralar ko'rishi va sug'urta tizimini rivojlantirish zaruriyatini vujudga keltiradi. Shu bilan birga, aholining qarishi bilan belgilanadigan demografik vaziyatning o'zgarishi pensiya ta'minoti hamda ularni isloh qilishga jahon hamjamiyati tomonidan bo'layotgan qiziqishning yanada oshishiga sabab bo'lmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda pensiya ta'minoti tizimi bilan bir qatorda davlat tasarrufida bo'lmagan hususiy pensiya ta'minoti mavjud bo'lib, uning zarurligi quyidagi ikki asosiy sabablardan kelib chiqadi:

Birinchidan, bozor munosabatlari sharoitida fuqarolarni erkin faoliyat ko'rsatish bo'yicha ko'proq erkinlik berishi bilan bir qatorda, ularga ijtimoiy ta'minotni ta'minlash borasida mas'uliyat yuklaydi. Har bir fuqaro mehnatga qobiliyatiga ega davrdan boshlab, u qarigan yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganda o'zini ijtimoiy himoyalanihini uylashi kerak.

Ikkinchidan, har qanday rivojlangan davlatning moliyaviy imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. Davlat fuqarolar qariganda yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganda barqaror ijtimoiy himoyalash siyosatini amalga oshirish imkoniga ega emas. Ijtimoiy ta'minot o'z imkoniyatlaridan kelib belgilanadi. Ya'ni davlat mehnatga qobilyatsiz fuqarolarni o'rtacha turmush darajasidan yuqori miqdorda ta'minlay olmaydi.

Shved sotsiologi G.Esping-Andercen ijtimoiy yo'naltirilgan davlatning liberal, konservativ va sotsial-demokratik modelga ajratadi:<sup>8</sup>

Liberal model AQSh, Kanada, Avstraliya, Buyuk Britaniyada shakllanib, unda xususiy mulk xukmronlik qiladi. Modelning asosiy shartlari: davlatning iqtisodiyotga kam aralashuvi; YaIMda davlat ulushining pastligi. Fuqarolarga ijtimoiy yordam sug'urta badallari hisobidan amalga oshiriladi. Bu jarayonga davlat mumkin qadar kam aralashadi, u asosan muayyan kafolatlarni tartibga solish bilan shug'ullanadi. Sug'urta to'lovlari deyarli bir miqdorda bo'ladi. Tadbirkorlikni rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan, korxonalar ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun talab qilinmagan xodimlarni ishdan ozod etish huquqiga egadir. Bunday xolatning o'ta liberal shakli AQSh ko'zatiladi. Ishlab chiqarish pasaygan sharoitda ijtimoiy dasturlar qisqartirilib, aholini muxtoj qatlami, avvalo xotin-qizlar, yoshlar va qariyalarga ijtimoiy himoya kamaytiriladi.

Konservativ (korporativ) model ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar hisoblangan Avstriya, Germaniya, Italiya, Frantsiya kabi mamlakatlarga xosdir. Bu modelda davlatning mavqei yuqori: ijtimoiy soha xarajatlariga byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hamda xodimlar va ish beruvchilarning sug'urta badallari ajratmalari miqdori deyarli teng hisoblanadi. Qayta taqsimlashning asosiy yo'nalishlari

---

<sup>8</sup> Ламбаева И.А. Социальная работа за рубежом. Учебное пособие. Улан-Удэ: Издательство ВСГТУ, 2000. 110 с.

davlat ixtiyorida yohud uning nazorati bo'ladi. Davlat fuqarolarning moddiy qo'llab-quvvatlash vazifasini sug'urta tizimiga orqali amalga oshiradi. Shu sabab ijtimoiy nafaqalar miqdori mexnatdan olingan daromad va sug'urta badallari miqdoriga bog'liq bo'ladi. Ishsizlik yuz bergan xolda kafolatlangan to'lovlar mexnat stajiga, to'lovlar muddati esa sug'urta badallari to'lashning davomiyligi, ularning miqdori va xodimning yoshiga bog'liq bo'ladi. Ishsizlik nafaqasi 50 yoshdan katta fuqarolarga to'lanadi.

Sotsial-demokratik (solidar) modelda axolini ijtimoiy ximoyasida davlatning ishtiroki muhimdir. Axoli daromadini tenglashtirish va uni bandligini ta'minlash ijtimoiy siyosatning ustuvor vazifasi hisoblanadi. Model Shvetsiya, Norvegiya, Finlyandiya, Daniya, Niderlandiya va Shveysariyaga xosdir. Iqtisodiyotning rivojlangan davlat sektori – bu ijtimoiy soxani xarajatlarining asosiy qismi ijtimoiy axamiyatga molik ob'ektlarning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltiriladi. Milliy mahsulot aholining kam ta'minlangan tabaqalari foydasiga qayta taqsimlanadi. Buning uchun soliq tortish darajasi juda yuqori belgilanadi. ShvetsiyaYaIMda davlat xarajatlarning ulushi 66 foiz, Daniyada 61 foiz, Finlyandiyada 56 foizni tashkil etadi. Ushbu modelning o'ziga xos xususiyatlariga ishsizlik darajasini imkon qadar kamaytirish bo'yicha tegishli choralar ko'riladi.

### **3.2. Rivojlangan davlatlar pensiya tizimlarining o'ziga xos xususiyatlari**

Pensiya tizimining tashkil etish va rivojlanishi bosqichlari dunyo mamlakatlarida turlicha kechgan. Xususan, Amerika Qo'shma Shtatlarida pensiya tizimi 1935 yilda joriy qilinib, daromad manbasi milliy sug'urta fondi hisoblanadi. Fond federal byudjeti tarkibida konsolidatsiyalashgan. Bugunda AQSh fuqarolariga davlat va ish joyidan xususiy jamoaviy va shaxsiy hisob raqamda jamg'ariladigan pensiya tizimi xizmat qiladi.<sup>9</sup>

Davlat pensiyasi mehnat stajiga ega va tegishli pensiya jamg'armasiga majburiy badallar to'lagan fuqarolar oladi. Yirik davlat pensiya fondi – Umumiy federal dasturi deyarli barcha xususiy sektor vakillarini qamrab oladi va dasturga asosan minimal pensiya ajratiladi.

Jamoaviy xususiy jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga davlat va xususiy pensiya dasturlari kiradi. Davlat jamg'ariladigan pensiya tizimi Hukumat va mahalliy organlarda ishlaydigan fuqarolarni qamrab olsa, xususiy sektor vakillari ish joyilari orqali davlat pensiya ta'minotida ishtirok etish huquqiga ega. Sug'urta ajratmalari ish beruvchilari tomonidan amalga oshiriladi va ishchilar moliyalashtirishda ishtirok etmaydi. Xodim 5-10 yil ishlashi shart.

Shuningdek, fuqaro tijorat banki, pay jamg'armasi va sug'urta kompaniyasida ochilgan individual pensiya shaxsiy hisob raqamiga yillik 2000 AQSh doll. Ajratma amalga oshirishi mumkin. Mablag'ni fuqaro 59,5 yoshga to'lganda bir yula oladi, 79,5 yoshda shahsiy hisob majburiy tartibda yopiladi. Jamg'arilgan mablag'dan soliq undirilmaydi, faqat hisob raqam yopilishi vaqtida jamg'arilgan mablag'dan daromad solig'i chegirib qolinadi.

1938 yilgacha tug'ilgan fuqarolar uchun yoshga doir pensiya 65 yosh hisoblanadi. Faqat 62-64 yoshga to'lgan fuqarolarga qarilik pensiyasi qisqartirilgan holda to'lanadi. Aholining umr ko'rish muddati oshganligi sabab pensiya chiqish yoshini bosqichma-bosqich 67 yoshga oshirish belgilangan. Pensiya tayinlashga 40 kvartal yoki 10 yillik sug'urta badallari to'langan minimal staj talab qilinadi. Pensiya miqdori 22 yoshdan 62 yoshgacha o'rtacha daromad miqdoridan hisoblanadi. Bunda eng kam daromad olingan 5 yil chegirib tashlanadi. Qonunga ko'ra bepul tibbiy yordam, dori-darmon, oziq-ovqat va minimal (100 doll.) uy-joy to'lovlari kabi imtiyozlar mavjud.

---

<sup>9</sup> Бровчак С.В. Пенсионное обеспечение: российский и зарубежный опыт. Учебное пособие. Издательский дом. Государственный университет Высшая школа экономики. 2008. 76 с.

Nogironlik pensiyasini tayinlash uchun sug'urtalangan shaxs 22 yoshdan nogironlik belgilangan davrgacha bir yilning kamida bir choragida, 5 yilda, eng ko'pi bilan 10 yilda sug'urta badallarini to'lagan bo'lishi lozim.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari bevalarga, shuningdek 10 yil davomida nikohda bo'lib, ajralgan er-xotinlarning biriga, 65 yoshga to'lganda vafot etgan pensionerga 100 foiz pensiyasi miqdorida to'lanadi. Mazkur shaxslarga ushbu pensiyalar 60-64 yoshdan boshlab qisqartirilgan holda tayinlanishi mumkin. Vafot etgan shaxsning etim farzandlariga pensiyasining 75 foizi 18 yoshga to'lgungacha (o'quvchiga – 19 yosh) tayinlanadi.

Frantsiyada pensiya ta'minoti taqsimlash xarakteriga ega.<sup>10</sup> Pensiyalar to'lanishi kasaba tashkilotlari yoki ishchilar uyushmalari hamda ish beruvchilar tomonidan davlat boshchiligida nazorat qilinadi. Pensiya ajratmalari majburiy hisoblanib, ishchi-hizmatchilar va ish beruvchilar o'rtasida taqsimlanadi. Hunarmandlar va kichik tadbirkorlarning oylik ajratmalari 16,35 foiz belgilangan. Pensiya miqdori o'rtacha ish haqining 50 foizini tashkil etadi va ohirgi 11 yillik mehnat ish haqidan kelib chiqib hisoblanadi. Lekin, davlat tomonidan minimal (bir yilda 6000 evro) va maksimal miqdorda (12000 evro) davlat pensiyasi ham belgilangan.

Pensiyaga chiqish yoshi erkak va ayollar uchun bir xil 60 yosh, biroq to'liq pensiya olish uchun umumiy ish staji 40 yildan kam bo'lmasligi kerak. Agar mehnat staji etarli bo'lmasa, pensiya miqdori stajning etishmayotgan choragi yoki 65 yoshga etmayotgan yillar soni uchun 1,25 foizga kamaytiriladi. Bu jarima koeffitsienti 25 foizdan oshmasligi zarur. 65 yoshga to'lgan fuqarolar mehnat stajidan qat'iy nazar to'liq mehnat pensiyasi olish huquqiga ega. Fuqaroning ish staji 40 yilga etgandan yoki 65 yoshga to'lgandan keyin mehnat faoliyatini davom etirish uchun har ish yiliga 3 foiz miqdoridan lekin 15 foizdan ko'p bo'lmagan ustama beriladi. Agar fuqaro 65 yoshida pensiya chiqsa, ish stajidan qat'iy nazar pensiya olish huquqiga ega bo'ladi. Nogironlar, urush qatnashchilari va boshqa imtiyozga ega fuqarolarga mehnat stajidan qat'iy nazar 60 yoshdan to'liq pensiya olish huquqi belgilangan. Pensiya tizimi ishtirokchilari yollanma ishchilar; davlat xizmatchilari; yirik milliy monopoliyalari maxsus ishchilariga bo'linadi.

2011 yilda pensiya tizimi tanqisligi 14 mlrd.evroni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda boshlangan pensiya islohotlari natijasida 2050 yilga borib tanqislik miqdori 20 mlrd. Evroni bo'lishi kuzda tutilgan.

Jahon bankining tahliliga ko'ra, 2010 yilda pensiya to'lovlarning umumiy miqdori Frantsiya YaIMning 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2050 yilda 15-16 foiz bo'lishi taxmin qilinmoqda.<sup>11</sup>

Frantsiyada majburiy pensiya ta'minotidan tashqari, kapitallashtirish printsiplariga asoslangan va korxonalar tomonidan muayyan toifadagi xodimlar uchun tashkil etilgan nomajburiy qo'shimcha dasturlar faoliyat ko'rsatadi. Buning sababi, majburiy sug'urta tizimi mehnat daromadlarini o'rnini bosishning yuqori darajasini ta'minlaydi. Hozirda kapitallashtirishga asoslangan xususiy pensiya tizimini rivojlantirish choralari ko'rilmogda. Chili Respublikasi pensiya tizimi dunyoda eng yangi pensiya tizimlaridan biri hisoblanib, ko'pchilik mamlakatlar chili modelidan foydalanadi, jumladan Argentina, Kolumbiya, Peru, Meksika va Rossiya.

Chilida pensiya islohotlari 1981 yilda boshlanib, iqtisodiyotga ijobiy ta'siri ko'rsatdi. Bunda davlat tomonidan boshqariladigan pensiya tizimidan tegishli badallar

---

<sup>10</sup> Истомина Е.А. Пенсионная система Французской Республики: Правовые основы. Екатеринбург. 2005.

<sup>11</sup> The Inverting Pyramid: Pension Systems Facing Demographic Challenges in Europe and Central Asia. The World Bank. Europe and Central Asia Reports. 2014.

asosida jamg'ariladigan pensiya tizimiga o'tildi. Bunga ko'ra jamg'arma mablag'larini shakllantirish ma'sulliyati ishlovchi fuqaroga yuklatildi. Fuqarolar jamg'ariladigan hisob raqamga ega bo'lib, har oyda oylik ish haqining 10 foizi sug'urta qiluvchi fondlardan biriga jamg'arib boradi. Sug'urta yoshi erkaklarga 65 yosh, ayollarga 60 yosh belgilangan.<sup>12</sup>

Shuningdek, pensiya ta'minotiga qo'shimcha ravishda xodimlar nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik uchun ehtiyot shart sug'urtalanishi lozim bo'lib, bunga ish haqidan yana qo'shimcha 3 foiz ajratadi. Fuqaroning istagiga ko'ra jamg'arilgan mablag'lar xususiy sug'urta fondi tomonidan kapitallashtirilishi mumkin.

Fuqaro pensiya yoshiga etganda jamg'arilgan mablag'dan shaxsiy pensiya olish uchun foydalanishi yoki sug'urta kompaniyadan mablag'larni rejali asosda olishi mumkin. Hozirda Chili aholisining 8 foizi pensiya yoshida, 1 nafar pensionerga 12,8 ta ishlovchi to'g'ri keladi.

2013 yilda «International Living» sayti o'tkazgan so'rovnoma ko'ra Ekvador pensionerlarga eng yaxshi xayot kechiradigan davlat deb topilgan. Mamlakatda arzon yashash sharoitlari, bepul sog'liqni saqlash va muttadil ob-xavosi bilan pensionerlar diqqatini tortdi. Davlatning Ijtimoiy ta'minot fondi 40 foiz pensiya to'lovini amalga oshiradi. Pensiya chiqishning 4 yo'nalishi mavjud:

1. pensiyaga chiqish yoshi chegaralanmagan holda pensiya chiqish uchun (jamg'armaga 480 oylik to'lov yoki 40 yildan ortiq ish staji talab etiladi);
2. 60 yoshda pensiyaga chiqishga (360 oylik to'lov yoki 30 yil ish staji);
3. 65 yoshda pensiyaga chiqishga (180 oylik to'lov yoki 15 yil ish staji);
4. 70 yoshda pensiyaga chiqishga (120 oylik to'lov yoki 10 yil ish staji).

Pensiya yoshi erkak va ayollarga 60 yosh. Jamg'armaga 170 mingdan ziyod ishchilar ajratma qiladi. Ularning aksariyati davlat hizmatchilari (prokuratura, kemasozlik, munitsipal fond) hisoblanadi.

G'arb olimlarining fikricha, tabiiy tug'ilish kamayishi va umr ko'rish yoshining ortishi aholining qarishiga sabab bo'lib, mehnat bozoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun pensiyaga chiqish yoshining bosqichma-bosqich me'yorda oshirilishi pensiya fondlari mablag'larini barqaror rivojlanishga olib kelishi mumkinligi ta'kidlanadi.

### 3.1-jadval

#### Dunyo aholisi tarkibida 65 va undan katta yoshdagi fuqarolar soni<sup>13</sup>

Mamlakatlar	Aholining umumiy soni, mln. kishi		65 va undan katta yoshdagilar ulushi (%)	
	2004 y.	2015 y. (prognoz)	2004 y.	2015 y. (prognoz)
<i>Jami</i>	6389,0	7219,0	7,3	8,4
Rivojlanayotgan mamlakatlar	5093,0	5885,0	5,4	6,5
Xitoy	1308,0	1393,0	7,5	9,6
Xindiston	1087,0	1260,0	5,2	6,2
Rossiya	143,9	136,7	13,6	14,3
IXTT mamlakatlari	1164,0	1233,0	13,6	16,1
Yaponiya	127,9	128,0	19,2	26,0

<sup>12</sup>БровчакС.В. Пенсионноеобеспечение: российскийизарубежныйопыт. Учебное пособие. Издательский дом. Государственный университет Высшая школа экономики. 2008. 76 с.

<sup>13</sup> Iqtisodiy xamkorlik va rivojlanish tashkiloti [www.oecd.org](http://www.oecd.org) hamda Development Human Report 2006. [www.hdr.undp.org](http://www.hdr.undp.org) internet saytlari ma'lumotlari asosida tayyorlandi

AQSh	295,4	325,7	12,3	14,1
------	-------	-------	------	------

Qolaversa, rivojlangan mamlakatlarda aholining o'rtacha umr ko'rish yoshining oshishi va tug'ilishning kamayishi demografik masalalar qatoridan chiqib tobora iqtisodiy muammoga aylanib bormoqda. Xususan, 2000 yilda bir nafar 65 yoshdan oshgan pensioner fuqaroga 4-5 nafar mehnatga layoqatli aholi nisbati to'g'ri kelgan bo'lsa, 2020-2025 yillarga borib ayrim Evropa mamlakatlarida ularning o'rtasidagi nisbat 1:2.5 bo'lishi kutilmoqda.<sup>14</sup> Mazkur holat pensiya ta'minotiga oid xarajatlarni o'sishi pirovardida yaqin kelajakda barqaror moliyalashtirish uchun qo'shimcha moliyaviy manbalarini izlab topishni va davlat pensiya ta'minoti samaradorligini takomillashtirishni taqozo etadi.

Iqtisodiy xamkorlik va rivojlanish tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, Evropa mamlakatlarida yaqin 10-30 yilda pensiya ta'minotiga sarflanadigan o'rtacha xarajatlar YaIMga nisbatan 14-20 foizga etishi taxmin qilinadi. Qolaversa, 2004 yilda 6,4 trln. nafar dunyo aholining 7,3 foizi pensiya yoshidagi fuqarolar tashkil etsa, 2015 yilga kelib 7,2 trln. kishiga yoki ular tarkibida pensionerlar ulushi 8,4 foiz bo'lishi kutilmoqda. (1-jadval)

Qolaversa xorij ekspertlarining fikricha, 2060 yilga kelib har 3 nafar evropalikning biri 80 yoshni qarshilagan bo'ladi. Ayrim Evropa Ittifoqi davlatlarida iqtisodiy faol aholining rivojlangan mamlakatlariga ko'chib o'tishi natijasida aholining tarkibiy o'zgarishi kuzatiladi. Jumladan, Chexiyada 1 mln. nafar aholi yuqotiladi. Boltiq bo'yi mamlakatlari, Rumuniya va Bolgariyada 2060 yilda 1/3 qism aholisidan mahrum bo'lishi kutiladi, Slovakiya va Polshada 2050 yilda 65 yoshdan yuqori bo'lgan fuqarolar umumiy aholining 36 foizini tashkil etadi.

### 3.2. Xorijiy davlatlar pensiya tizimi bo'yicha olib borilgan islohotlar yo'nalishlari

Evropa statistika tashkiloti bashoratiga ko'ra, keyingi 50 yil davomida Evropa mamlakatlari aholisining qarishi kuzatilib, bunda Chexiya aholisi yoshi yanada tez sur'atlar bilan o'sishi taxmin qilinadi.<sup>15</sup>

Evropa Ittifoqi tarkibidagi Chexiya Respublikasi pensiya tizimida uch bo'g'in: davlat, jamg'ariladigan va xususiy pensiya fondlaridan iborat. Pensiya miqdori asosiy miqdor hamda daromad va ish stajidan shakllanadi.

Chexiyada majburiy sug'urta badallari to'lovchilar 8,5 mln. kishi bo'lib, ulardan 5 mln. nafari yollanma ishchi va xususiy tadbirkorlar tashkil etadi. Davlat pensiyasi uchun pensiya badallarini to'lashda yuqori chegara o'rnatilgan bo'lib, u hozirda 148 440 Chexiya kronni tashkil qiladi. Bu miqdordan oshiq ish haqi oluvchilar faqat shu miqdordagi ish haqlaridan sug'urta badali to'laydi. Bunda ishlovchi 6,5 foiz, ish beruvchi - 25 foiz, xususiy tadbirkor - 29,2 foiz sug'urta badallari to'laydi. Bunda xisoblangan baza 5928 kronadan kam bo'lmasligi kerak, ushbu bazadan kam bo'lsa 1730 krona to'laydi.

Pensiya ta'minoti tizimida uch pensiya turi: yoshga doir, boquvchisini yo'qotganlik va nogironlik pensiyalari mavjud.<sup>16</sup>

Yoshga doir pensiyaga chiqish erkaklar va ayollarga 65 yosh, talab qilingan ish staji 28 yil, bunda kamida 18 yil ish stajiga ega bo'lishi kerak. Pensiya hisoblashning yangi tartibi ishlab chiqilib, unda:

- asosiy belgilangan miqdori 2230 krona;
- o'rtacha ish haqining 11 061 kronagacha 100 foiz;
- o'rtacha ish haqining 11 061 dan 29 159 kronagacha 28 foiz;

<sup>14</sup> Kuznetsova Z. Пенсионная реформа в Чехии: цели и риски. Всплеск. Международное электронное периодическое издание. 9-сон (36), 2014 йил, сентябрь.

<sup>15</sup> Evropa statistika tashkiloti [www.epp.eurostat.ec.europa.eu](http://www.epp.eurostat.ec.europa.eu) internet sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

<sup>16</sup> Хмыз О.В. Направления интеграции системы пенсионного обеспечения Чехии с европейской. Московский государственный институт международных отношений. 2011.



- o'rtacha ish haqining 29 159 dan 100 548 kronagacha 16 foiz;
- o'rtacha ish haqining 100 548 kronadan ortiq qismiga 8 foiz hisobga olinadi hamda umumiy miqdor yillik stajiga qarab 1,5 foizga ko'paytiriladi, aniqlangan summaga 2230 krona qo'shiladi va pensiya miqdori aniqlanadi. O'rtacha ish haqi miqdori tegishli koeffitsientlar bilan oxirgi 15 yillik sug'urta badallari to'langan ish haqidan aniqlanadi.

Yoshga doir pensiya tayinlashda fuqaro belgilangan yoshni muddatidan 3 yil oldin pensiyaga chiqish imtiyozi mavjud, bunda belgilangan yoshni muddatidan 3 yil oldin pensiyaga chiqsa 1,5 foizga, 2 yil oldin chiqsa 1,2 foizga, 1 yil oldin chiqsa 0,9 foizga aniqlangan pensiya miqdoridan xar bir chorak uchun kamaytiriladi.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini tayinlanishda yoshga doir pensiyasini hisoblab chiqish tartibi qo'llaniladi.

Nogironlik uch toifada aniqlanib, pensiya tayinlashda ish staji talab qilinmaydi, lekin 28 yoshdan oshganlarga kamida oxirgi 10 yillikning besh yilida ishlagan bo'lishi shart. Hisoblash tartibi quyidagicha:

- asosiy belgilangan miqdori o'rtacha ish haqining 9 foizi yoki 2250 krona belgilangan. O'rtacha ish haqi miqdori tegishli koeffitsientlar bilan oxirgi 15 yillik sug'urta badallari to'langan ish haqidan aniqlanadi;
- nogironlik I toifasiga miqdor yillik stajiga qarab 0,5 foizga ko'paytiriladi;
- II kategoriyaga yillik stajiga qarab 0,75 foizga ko'paytiriladi;
- III kategoriyaga yillik stajiga qarab 1,5 foizga ko'paytiriladi.

Chexiya pensiya tizimida jiddiy tus olayotgan muammo sifatida o'sib boruvchi pensiya xarajatlarini moliyalashtirish hisoblanadi. Hozirda, pensiya xarajatlari YaIMga nisbati 7 foiz bo'lsa, 2060 yilda bu ko'rsatkich 11 foizni tashkil etadi. Shuningdek, 2060 yilda mamlakatning 65 yoshdan yuqori aholi 1,6 mln. dan 3,2 mln. kishiga, 75 yoshlilar 0,7 mln. dan 2 mln. kishiga, 85 yoshlilar 0,2 mln. kishidan 0,7 mln. nafarga etishi kutilmoqda.<sup>17</sup>

Shu nuqtai nazardan, ekspertlarning fikricha, demografik o'sishning salbiy tendentsiyasini o'zgartirish yuzasidan zaruriy pensiya islohotlar amalga oshirilmasa, 2050 yilda Chexiya pensiya tizimi tanazzulga yuz tutadi. Aholi soni 10,5 million, uning 30 foizini pensionerlar tashkil etadi. Bu esa hukumatni pensiya ta'minotini yanada takomillashtirishga undadi.

Mazkur holatni to'g'ri baholagan Chexiya Hukumati 2013 yildan pensiya tizimini qayta isloh qilishning asosiy yo'nalishlarini belgiladi. Islohotlar rejasida, zararli va og'ir mehnat uchun imtiyozlarni bekor qilish, ish yurituvchilar sug'urta badallariga qo'shimcha badallarni kiritish, to'langan badallar va olingan pensiyalar o'rtasida bog'liqlikni kuchaytirish, ijtimoiy sug'urta tizimini rivojlantirish, individual pensiya tizimini kengaytirish, pensiya yoshini erkaklar va ayollar uchun 2015-2020 yillarda 65 yoshgacha oshirish nazarda tutilgan. Mamlakatda boshqa mamlakatlardan farqli ravishda pensiya yoshini yiliga erkaklar uchun 2 oyga, ayollar uchun 4 oyga oshirish mexanizmini ishlab chiqildi. Natijada ayollar bilan erkaklarni pensiyaga chiqish yoshi tenglashadi va umumiy pensiyaga chiqish yoshi oshiriladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, hozirda 40 yoshga to'lgan Chexiya fuqarosi 66 yoshida pensiya

### 3.2-jadval

#### Chexiyada pensiya chiqish yoshing tug'ilgan yillar bo'yicha taqsimoti

Tug'ilgan yili	PENSIYA GA CHI QISH YO SHI					
	ERKAK	AyoL				
		Farzandi yo'q	1 nafar farzandli	2 nafar farzandli	3-4 nafar farzandli	5 nafar farzandli
1936	60 yosh+2 oy	57 yosh	56 yosh	55 yosh	54 yosh	53 yosh

<sup>17</sup> Kuznetsova Z. Пенсионная реформа в Чехии: цели и риски. Всплеск. Международное электронное периодическое издание. 9-сон (36), 2014 йил, сентябрь.

1937	60 yosh+4 oy	57 yosh	56 yosh	55 yosh	54 yosh	53 yosh
1938	60 yosh+6 oy	57 yosh	56 yosh	55 yosh	54 yosh	53 yosh
1939	60 yosh+8 oy	57 yosh+4 oy	56 yosh	55 yosh	54 yosh	53 yosh
1940	60 yosh+10 oy	57 yosh+8 oy	56 yosh+4 oy	55 yosh	54 yosh	53 yosh
1941	61 yosh	58 yosh	56 yosh+8 oy	55 yosh+4 oy	54 yosh	53 yosh
1942	61 yosh+2 oy	58 yosh+4 oy	57 yosh	55 yosh+8 oy	54 yosh+4 oy	53 yosh
1943	61 yosh+4 oy	58 yosh+8 oy	57 yosh+4 oy	56 yosh	54 yosh+8 oy	53 yosh+4 oy
1944	61 yosh+6 oy	59 yosh	57 yosh+8 oy	56 yosh+4 oy	55 yosh	53 yosh+8 oy
1945	61 yosh+8 oy	59 yosh+4 oy	58 yosh	56 yosh+8 oy	55 yosh+4 oy	54 yosh
1946	61 yosh+10 oy	59 yosh+8 oy	58 yosh+4 oy	57 yosh	55 yosh+8 oy	54 yosh+4 oy
Tug'il-gan yili	PENSIYaGA ChIQISH YoShI					
	ERKAK	AyoL				
		Farzandi yo'q	1 nafar farzandli	2 nafar farzandli	3-4 nafar farzandli	5 nafar farzandli
1947	62 yosh	60 yosh	58 yosh+8 oy	57 yosh+4 oy	56 yosh	54 yosh+8 oy
1948	62 yosh+2 oy	60 yosh+4 oy	59 yosh	57 yosh+8 oy	56 yosh+4 oy	55 yosh
1949	62 yosh+4 oy	60 yosh+8 oy	59 yosh+4 oy	58 yosh	56 yosh+8 oy	55 yosh+4 oy
1950	62 yosh+6 oy	61 yosh	59 yosh+8 oy	58 yosh+4 oy	57 yosh	55 yosh+8 oy
1951	62 yosh+8 oy	61 yosh+4 oy	60 yosh	58 yosh+8 oy	57 yosh+4 oy	56 yosh
1952	62 yosh+10 oy	61 yosh+8 oy	60 yosh+4 oy	59 yosh	57 yosh+8 oy	56 yosh+4 oy
1953	63 yosh	62 yosh	60 yosh+8 oy	59 yosh+4 oy	58 yosh	56 yosh+8 oy
1954	63 yosh+2 oy	62 yosh+4 oy	61 yosh	59 yosh+8 oy	58 yosh+4 oy	57 yosh
1955	63 yosh+4 oy	62 yosh+8 oy	61 yosh+4 oy	60 yosh	58 yosh+8 oy	57 yosh+4 oy
1956	63 yosh+6 oy	63 yosh+2 oy	61 yosh+8 oy	60 yosh+4 oy	59 yosh	57 yosh+8 oy
1957	63 yosh+8 oy	63 yosh+8 oy	62 yosh+2 oy	60 yosh+8 oy	59 yosh+4 oy	58 yosh
1958	63 yosh+10 oy	63 yosh+10 oy	62 yosh+8 oy	61 yosh+2 oy	59 yosh+8 oy	58 yosh+4 oy
1959	64 yosh	64 yosh	63 yosh+2 oy	61 yosh+8 oy	60 yosh+2 oy	58 yosh+8 oy
1960	64 yosh+2	64 yosh+2	63 yosh+8	62 yosh+2	60 yosh+8	59 yosh+4

	oy	oy	oy	oy	oy	oy
1961	64 yosh+4 oy	64 yosh+4 oy	64 yosh+2 oy	62 yosh+8 oy	61 yosh+2 oy	59 yosh+8 oy
1962	64 yosh+6 oy	64 yosh+6 oy	64 yosh+6 oy	63 yosh+2 oy	61 yosh+8 oy	60 yosh+2 oy
1963	64 yosh+8 oy	64 yosh+8 oy	64 yosh+8 oy	63 yosh+8 oy	62 yosh+2 oy	60 yosh+8 oy
1964	64 yosh+10 oy	64 yosh+10 oy	64 yosh+10 oy	64 yosh+2 oy	62 yosh+8 oy	61 yosh+2 oy
1965	65 yosh	65 yosh	65 yosh	64 yosh+8 oy	63 yosh+2 oy	61 yosh+8 oy
1966	65 yosh+2 oy	65 yosh+2 oy	65 yosh+2 oy	65 yosh+2 oy	63 yosh+8 oy	62 yosh+2 oy
1967	65 yosh+4 oy	65 yosh+4 oy	65 yosh+4 oy	65 yosh+4 oy	64 yosh+2 oy	62 yosh+8 oy
1968	65 yosh+6 oy	65 yosh+6 oy	65 yosh+6 oy	65 yosh+6 oy	64 yosh+8 oy	63 yosh+2 oy
1969	65 yosh+8 oy	65 yosh+8 oy	65 yosh+8 oy	65 yosh+8 oy	65 yosh+2 oy	63 yosh+8 oy
1970	65 yosh+10 oy	65 yosh+10 oy	65 yosh+10 oy	65 yosh+10 oy	65 yosh+8 oy	64 yosh+2 oy
1971	66 yosh	66 yosh	66 yosh	66 yosh	66 yosh	64 yosh+8 oy
1972	66 yosh+2 oy	66 yosh+2 oy	66 yosh+2 oy	66 yosh+2 oy	66 yosh+2 oy	65 yosh+2 oy

yoshiga etadi hamda 1977 yildan keyin tug'ilgan fuqaro 67 yoshda nafaqaga chiqadi. Yakunda 2041 yilga kelib erkak va ayollarning pensiya yoshi tenglashtiriladi. Bugunda 14 yoshga to'lgan chex bolalari 71 yoshga kirganda pensiyaga chiqish, 2012 yilda tug'ilgan chexiyalik 2085 yilda 73 yoshida nafaqaga chiqishi mumkin bo'ladi. Pensiyaga chiqish huquqi paydo bo'ladigan yoshlar tasnifi 2-jadvalda keltirilgan.<sup>18</sup>Chexiya tajribasi pensiya yoshini asta-sekinlik bilan oshirib borish mexanizmi aholining barcha qatlamlari manfaatlariga teng ta'sir o'tkazib, xarajatlarni bosqichma-bosqich qisqartirib borish va optimallashtirish va islohotlarni bardavomiyligini ta'minlash imkonini beradi.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, MDH mamlakatlari pensiya tizimidagi asosiy muammolarga: pensiya yoshining ertaligi; pensiya jamg'armasi daromadlari beqarorligi va to'liq tushmasligi; pensiya xarajatlari miqdori yuqoriligi; imtiyozli pensiyalar mavjudligi va boshqalar kiradi.

### 3.3-jadval

#### MDH va Boltiqbo'yi ayrim mamlakatlarning yoshga doir pensiya tayinlash uchun talab etiladigan yosh va ish staji<sup>19</sup>

Mamlakatlar nomi	Yoshga doir pensiya uchun talab etilgan mehnat staji		Umumiy asoslarda yoshga doir pensiyaga chiqish yoshi	
	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar
AQSh	10	10	66	60
Frantsiya	40	40	62	62
Germaniya	5	5	65	65

<sup>18</sup>Chexiya Respublikasi Xukumat sayti [www.vlada.cz](http://www.vlada.cz) ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

<sup>19</sup>Xaitov A., Ziyadullaev M. O'zbekistonda pensiya ta'minoti va xorij tajribasi". Adolat. 2009y. 171 bet.

Ispaniya	15	15	65	65
Italiya	18	18	65	60
Yaponiya	25	25	65	65
Chexiya	10	10	62	60
Janubiy Koreya	20	20	60	60
Latviya	10	10	62	62
Litva	30	30	62,5	60
Estoniya	15	15	63	63
Ozərbayjon	12	12	62	57
Armaniston	25	25	63	63
Belarus	25	20	60	55
Rossiya	25	20	60	55
Tojikiston	25	20	63	58
Turkmaniston	25	20	62	57
<i>O'zbekiston</i>	25	20	60	55

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, xorij davlatlarining pensiya ta'minoti tizimi borasida erishilgan natijalarining ayrim ijobiy tomonlaridan mamlakatimizda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ilg'or tajribalar, mamlakat aholisining iqtisodiy-ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olib amaliyotga qo'llanilishi lozim hisoblanadi.

## **4-MAVZU: YEVIROPA RIVOJLANGAN DAVLATLARINING PENSIYA TA'MINOTI TIZIMI**

### **Reja:**

- 4.1. Pensiya tizimlarining modellari va rivojlanish tarixi
- 4.2. Pensiya tizimlari turlari: davlat pensiya tizimi, fuqarolarning jamg'arib boriladigan va xususiy (nodavlat) pensiya tizimi
- 4.3. O'zbekiston respublikasi pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlari va huquqiy asoslari

**TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:** Xalqaro Mehnat tashkiloti, Aholini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy ta'minot, pensiya tizimlari modellari, xalqaro mehnat tashkiloti, avlodlar birdamligi, xorijiy mamlakatlar pensiya tizimlari, pensiya ta'minoti tizimi, davlatning ijtimoiy siyosati, pensiya ta'minoti, davlat budjeti, davlat pensiya tizimi, nodavlat pensiya tizimi, davlat maqsadli jamg'armalari, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, xalqaro moliya munosabatlari, byudjet tizimi, xalqaro moliya.

### **4.1. Pensiya tizimlarining modellari va rivojlanish tarixi**

Har qanday davlatning eng muhim majburiyatlaridan biri o'z fuqarolari uchun ularning mehnat davridan keyin munosib keksalikni ta'minlash hisoblanadi. Bu funksiyani bajarish uchun davlat mehnatga layoqatsiz aholi qatlamiga (qarilik, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha) ijtimoiy shaklga ega bo'lgan pensiya deb nomlanuvchi pul to'lovlarini to'lab boradi.

Pensiya tizimlarining ijtimoiy institut sifatida yuzaga kelishi ancha oldin sodir bo'lgan. Rim imperiyasida Yuliy Sezar davridayoq legionerlarga munosib keksalikni ta'minlash choralari ko'zda tutilgan. Har bir legionerga urushda bosib olingan yerlardan mulk ajratilgan.

Hozirgi paytda dunyoda pensiya tizimi tarixi XVIII-XIX asrlardan, davlat xizmatchilarining alohida kamsonli guruhlarining davlat pensiya ta'minotidan, mamlakatning barcha fuqarolarini qamrab oluvchi pensiya mexanizmiga o'tish davridan boshlab o'rganiladi. Bunda ayniqsa Yevropa mamlakatlari – Fransiya, Buyuk Britaniya va Germaniyalar ilg'or sanaladi. Birinchi pensiya ta'minoti Fransiyaning harbiy dengiz floti ofitserlari uchun 1673-yilda joriy etilgan. Buyuk fransuz revolyutsiyasi davrida, 1790-yilda davlat xizmatchilari bo'lgan, 30 yillik stajga ega bo'lib, 50 yoshdan oshgan fuqarolarning pensiyalari to'g'risida qonun qabul qilingan. Ilk keng ko'lamlı pensiya tizimi kansler Otto Fon Bismark islohotlari tufayli paydo bo'lgan U sekin asta amaliyotga tadbıq etilib, avvaliga bemorlar va nogironlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni (1884 y), keyinchalik esa umumiy pensiya ta'minotini ko'zda tutgan. Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh)da esa bunday tizim ancha kechroq, ya'ni 1935-yilda Ruzvelt tomonidan "Ijtimoiy himoya akti" imzolanganidan keyin, Buyuk Britaniyada 1908-yilda, Fransiya da esa 1910-yilda tashkil etilgan.<sup>20</sup>

Birinchi, xususi y sektorda band bo'lganlarni davlat tomonidan yoshga doir pensiya bilan ta'minlash tizimi 1889-yilda Germaniyada tashkil etilgan. Bu ishga Germaniyaliklar ijtimoiy sug'urtalashni majburiy badallarga asoslagan holda yondoshganlar. Ish beruvchilar va ishchilar uni moliyalashirish uchun mablag'lar ajratishi ya'ni badallar to'lashi lozim bo'lgan. Germaniyada amalga kiritilgan tizim faoliyati, gildiyalar va ishchilar birlashmalari tashkil etgan ixtiyoriy o'zaro yordam fondlarining amaliyotiga tayangan edi. Yangi tizimdagi pensiya huquqi avval to'langan badallarga asoslangan. 1891-yilda Daniya va 1898-yilda Yangi Zelandiya muhtoj aholi qatlamiga maqsadli yordam berishga

---

<sup>20</sup>К.э.н. Федотов А.И. История возникновения пенсионных систем в зарубежных странах. 2007.

yo'naltirilgan pensiya tizimini amalga kiritdi. Bu tizim umumiy soliq daromadlari hisobiga moliyalashtirilib, ehtiyojlarni aniqlashni mo'ljallangan va to'lovlarning qat'iy miqdorini kafolatlagan. Bu tizimlar ko'proq muhtoj aholi qatlamiga oid an'anaviy qonunchilikdan kelib chiqqan.

Keyingi yillarda ko'pchilik g'arbiy Yevropa mamlakatlari german modeli bo'yicha pensiya sug'urtasi tizimini shakllantirdi, anglisakson mamlakatlar (AQShdan tashqari) va shimoliy Yevropa davlatlari esa ko'proq Daniya va Yangi Zenlandiya yo'lini tanladi. Bu tizimlar turli masalalarni hal qilgan. Germaniya modeli ishlovchilarning pensiyaga chiqqanidan so'ng mavjud ijtimoiy holatini saqlashga moslashtirilgan. Daniya modeli esa (Angliyada tadbiiq etilgan) – muhtojlikni cheklashga qaratilgan.

XX asrda jahon davlatlari pensiya tizimlarining asta sekin yaqinlashuvi ro'y beradi. Sug'urta badallariga asoslangan tizimlarda avvalgi to'lovlardan qat'iy nazar, minimal pensiya kafolatlandi. Budget daromadidan moliyalashtiriladigan, barchaga teng bo'lgan pensiya miqdoriga asoslangan mamlakatlarda ehtiyojlarni aniqlash nazorati bekor qilindi. Buyuk Britaniyada qat'iy minimal pensiyalarga qo'shimcha ravishda majburiy ijtimoiy sug'urta tizimi kiritildi.

1920-yillarda AQShda shtatlar hukumati muhtojlik belgilariga asoslangan pensiya tizimlarini qo'llashni boshlashdi. 1934-yilga kelib bu tizim 28ta shtatda mavjud edi. 1935-yilda AQShda pensiya sug'urtasining federal tizimi joriy etildi.<sup>21</sup> Unga ko'ra Federal pensiya fondi Social Security tashkil etildi.

Shu yili Xalqaro Mehnat tashkiloti migrantlarning huquqlarini mustahkamlash maqsadida, qarilik, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalariga oid qonunlarning koordinatsion, ya'ni, o'zaro muvofiqlashtirilgan tizimini yaratish tashabbusi bilan chiqadi.

Pensiya dasturlarining o'ziga xos belgilaridan biri – ularning vujudga kelishi bosqichida siyosiy ommabopligi edi. Bu tushunarli: pensiyaga chiquvchi ishchilar o'tgan mehnat staji davomida, ularning pensiya to'lovlari ta'minlovchi badallarni to'liq miqdorda to'lashmagan. Ularning pensiya to'lovlari og'irligi kelgusi ishchilar avlodi zimmasiga tushgan. Biroq qariyalar ulushi kam bo'lgan yosh industrial jamiyat uchun bu jiddiy muammoga sabab bo'lmagan.

Ikkinchi jahon urushi boshlanishi arafasida deyarli barcha industrial davlatlar o'z pensiya ta'minoti tizimiga ega bo'lsada, ularning ko'pchiligida pensiya tizimi va pensiya to'lovlari bilan ta'minlangan aholi ulushi chegaralangan edi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi o'n yillik, ko'plab rivojlangan davlatlarda qoplanish darajasining oshishi va pensiya to'lovlarning ommalashuvi davri bo'ldi.


Shuningdek bu davrda pensiya ta'minotiga oid qonunchilik bazasi takomillashib bordi. 1962-yilda Xalqaro Mehnat tashkiloti tomonidan №118-sonli "Mamlakat fuqarosi, chet elliklar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning teng huquqliligi to'g'risida"gi Konvensiya qabul qilindi. Unda ijtimoiy ta'minot sohasidagi teng huquqlilik tamoyili o'rnatildi. Bu konvensiyani ratifikatsiya qilgan Xalqaro Mehnat tashkiloti a'zolari o'z hududlarida Xalqaro Mehnat tashkilotiga a'zo boshqa davlat fuqarolarini, shuningdek qochoq va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni 1952-yilda №102-sonli konvensiya bilan kafolatlangan ijtimoiy ta'minlanish huquqlarini, o'z fuqarolari bilan bir qatorda ta'minlash majburiyatini olganlar. 1965-yilda №48-sonli konvensiya qabul qilindi. Unga ko'ra aniq bir shaxsning mehnat faoliyati bir necha mamlakatlarda amalga oshirilgan bo'lsa, bu holda har uch turdagi pensiyadan birini olayotganda aniqlanadigan mehnat staji davrlari yig'indisi qanday hisoblanishi masalalarini tartibga solish imkoniyati vujudga keldi. Bu masalalar yanada batafsil qilib 1982-yilda imzolangan №157-sonli konvensiyada ishlab chiqilgan.

Jahon tajribasini tahlil qilsak, XIX–XX asrlarda turli pensiya ta'minoti modellari aks etgan ikkita bazaviy nazariy-uslubiy yondoshuvlar shakllangan.<sup>22</sup>

<sup>21</sup> Сорокина Е.Г. Зарубежный опыт моделирования пенсионной системы. М., 2009.

<sup>22</sup> М.М. Аранжереев, И.Ю. Орлова "Негосударственные пенсионные фонды", М., 2012.


Birinchisi, davlat pensiya tizimi ishtirokchilarining daromadini minimal darajada ta'minlashni kafolatlash zaruratiga qaratilgan bo'lsa, ikkinchisi, sug'urtalangan ishchining daromadini, uning ish haqining ma'lum bir qismini rezervlab qo'yish xisobiga, pensiyadan oldingi daromadi bilan solishtirib, o'sha darajada saqlab qolishni ta'minlashga yo'naltirilgan. Ushbu yondoshuvlar asosi quyidagi pensiya tizimi modellaridan iborat (1-rasm). Ular turli yillarda shakllangan O.Bismark va U.Beveridj tamoyillari asosida qurilgan.



4.1. rasm. Pensiya tizimi modellari <sup>23</sup>

Bismark modeli, “avlodlar birdamligi” tamoyili asosida qurilgan bo'lib, birinchi marta 1889-yilda Germaniyada joriy qilingan. Uning negizi – taqsimlovchi mexanizmga asoslangan: ishlovchi fuqoro (bo'lajak pensioner)lardan kelib tushuvchi barcha joriy to'lovlar ya'ni badallar, “bugungi” pensionerlarning pensiya ta'minoti to'lovlari uchun sarflanadi.

Bismark konsepsiyasi ko'plab dunyo mamlakatlari tomonidan amaliyotda qo'llab quvatlangan. Unga ko'ra pensiya badallari ko'rinishida fondga to'lanuvchi pul mablag'lari, fond mulki sifatida, tasdiqlangan “Fond mulkini joylashtirish yo'nalishlari normativlari”ga muvofiq investitsion loyihalarga joylashtiriladi. Investitsiyasdan kelgan foyda, fondning pensiya ko'rinishidagi to'lovlarni to'lash manbasi bo'lib hisoblanadi. Bu model haligacha ko'plab davlatlarda amal qiladi (2-rasm). Bismark modeli doirasida qo'shimcha pensiya ta'minoti rejimlari mavjud bo'lib, ular jamg'arish tamoyillariga asoslangan, biroq ular unchalik ham rivojlanmagan. Pensiya yig'indisi o'rtacha ish haqining 70 foizini tashkil qiladi.



<sup>23</sup> Никифорова О.Н. “Основные модели пенсионной системы” maqolasima'lumotlarisodidamualliftomonidantayyorlandi.

## 4.2 - rasm. Pensiya tizimi Bismark modeliga asoslangan davlatlar.<sup>24</sup>

Bismark modeli xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Maqsadi – majburiy pensiya sugʻurtasi yordamida ishlovchining hayot darajasi va sifatini saqlash (qoplash koeffitsienti 60-70%);
- Tizimni moliylashtirishda ishlovchi ishtirokining yuqori darajadali;
- Ixtiyoriy pensiya rejalarining mavjudligi (qoplash koeffitsienti 10-20%);
- Umumiy qoplash koeffitsienti 90%;
- YaIM dagi ish haqi hajmi 45-50% atrofida;
- Majburiy pensiya sugʻurtasiga rezervlanadigan mablagʻlar ulushining yuqoriligi (YaIM 10-15 foiz);
- Qoʻshimcha (nodavlat) korporativ pensiya sugʻurtasi (YaIM 2-3 foiz).
- Pensiya tizimida davlatning roli minimallashtirilgan.

Beveridj modeli davlat tomonidan barcha aholi uchun oldindan belgilangan va minimal pensiya bilan taʼminlashni nazarda tutadi. Ushbu tizim doirasida davlatlar orasidagi farq asosan minimal pensiya miqdori summasida boʻlishi mumkin. Tizimni moliylashtirish manbasi maxsus “ijtimoiy” soliq hisoblanadi. Biroq, bazaviy pensiya miqdori mehnat faoliyati davri mobaynida erishilgan hayot darajasiga umuman mos kelmasligi sababli, qoʻshimcha pensiya taʼminoti turlari keng tarqalgan. Beveridj “Qoʻshimcha pensiya dasturlari doimo jamgʻarish tamoyili asosida quriladi, biroq barcha mamlakatlar uchun yagona “xususiy pensiya fondlari” modeli mavjud emas” deb hisoblagan.


Beveridj modeli 1942-yilda Angliyada ijtimoiy himoya tizimi koʻrinishida ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan. Bugungi kunda Buyuk Britaniya pensiya tizimi davlat sugʻurtasi, professional (korporativ) va shaxsiy pensiyalarni oʻz ichiga oladi. Professional va shaxsiy pensiyalar majburiy emas. Ular jamgʻarish tamoyiliga asoslangan, qoʻshimcha pensiya taʼminoti dasturlari hisobiga shakllanadi. Professional pensiyalar ish beruvchilar tomonidan tayinlanadi, tashkilotlar pullarni pensiya fondlariga oʻtqazishadi, yigʻilgan pullar qoʻshimcha pensiya sifatida toʻlanadi.

Beveridj modeli xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Barcha pensiya yoshidagi aholini qamrab olib, bir xil pensiya miqdoridagi taʼminotni kafolatlaydi;
  - Kafolatlangan qoplash miqdori ish haqidan 18-20%;
  - Qoʻshimcha korporativ pensiya sugʻurtasining kafolatlangan qoplash miqdori 35-45%;
  - Umumiy qoplash koeffitsienti 50-60%;
  - Ish haqining YaIM dagi yuqori hajmi (60-65% atrofida);
  - Majburiy pensiya sugʻurtasiga rezervlanadigan mablagʻlar qismining oʻrtachaligi (ish haqi miqdoridan qariyb 12-14%, yoki YaIMdan 6-7%);
  - Qoʻshimcha (nodavlat) korporativ pensiya sugʻurtasi (YaIM 3-4%).
  - Pensiya tizimida davlatning roli maksimallashtirilgan.
- Quyidagi davlatlar pensiya tizimida Beveridj modeli ishlatiladi:

<sup>24</sup> Никифорова  
maqolasimaʼlumotlarisodisadamualliftomonidantayyorlandi.





**4.3 - rasm. Pensiya tizimi Beveridj modeliga asoslangan davlatlar** <sup>25</sup>

Barcha ijtimoiy sug'urta dasturlari kabi, qariganda pensiya bilan ta'minlash, ijtimoiy himoya va stimullarga ta'sir ortasidagi balansni topishni taqazo etadi. Ijtimoiy sug'urta bo'yicha to'lovlar qariyalar guruhini muhtojlikdan va yashash darajasining keskin pasayishidan himoya qiladi.

## **2. Pensiya tizimlari turlari: davlat pensiya tizimi, fuqarolarning jamg'arib boriladigan va xususiy (nodavlat) pensiya tizimi**

Pensiya ta'minoti bevosita mehnatga layoqatsiz aholi qatlamini himoylash mexanizmi bo'lib, uning to'g'ri tashkil etilishi jamiyatning barqaror rivojlanishining eng muhim ijtimoiy kafolati va negizi hisoblanadi.

Sivilizatsiyalashgan jamiyatda insonlarning qariganda va mehnatga layoqatini yo'qotganda ta'minlash uchun mablag'larni yig'ish ehtiyoji individual muammodan umummilliy muammoga aylanmoqda.

Har qanday mamlakatning pensiya ta'minoti tizimi o'ziga xos tashkiliy, moliyaviy va boshqa qator xususiyatlarga ega. Deyarli barcha mamlakatlar pensiya ta'minotini "uch pog'onali" tizim orqali amalga oshirishadi.

Bunga quyidagi pensiya ta'minoti tizimlari kiradi:

4. Davlat pensiya ta'minoti tizimi
5. Xususiy (nodavlat) pensiya ta'minoti tizimi
6. Fuqarolarning shaxsiy (jamg'arib boriladigan) pensiya tizimi


Davlat pensiya ta'minoti mamlakatning har bir fuqarosini yoki alohida guruhlari (masalan, davlat xizmatchilari)ni qamrab oladi. Davlat pensiya ta'minoti fuqarolarining qariganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy ta'minlanishdan iborat huquqlarini ro'yobga chiqarishni ko'zda tutadi.

Davlat pensiyalari 3 guruhdan iborat (4-rasm):

1. Mehnat pensiyasi
2. Ijtimoiy pensiya va nafaqalar

<sup>25</sup> Никифорова

3. Davlat xizmatchilari uchun pensiyalar



4.4 - rasm. Dunyo mamlakatlarida davlat pensiyalari turlari <sup>26</sup>

Mehnat pensiyasi - pensionerning ish stajidan va oʻrtacha oylik ish haqidan, shuningdek toʻlagan sugʻurta badallari miqdoridan kelib chiqib hisoblanadi va tayinlanadi. Mehnat pensiyasini olish huquqi fuqaro maʼlum bir yoshga toʻlganida paydo boʻladi. Bu koʻrsatkich turli davlatlarda turlicha boʻlib, koʻpchilik xorijiy davlatlarda Xalqaro Mehnat Tashkilotining tavsiyasiga koʻra u ayollar va erkaklar uchun 65 yosh qilib belgilangan. Bizda bu koʻrsatkich ayollarda 55 yosh, erkaklarda 60 yoshni tashkil qiladi.

Ijtimoiy pensiya va nafaqalar esa ish stajiga bogʻliq boʻlmay, aholining ijtimoiy muhtoj qatlami uchun tayinlanadi va toʻlanadi. Ijtimoiy pensiyalar turli davlatlarda turli shartlarda tayinlanadi. Masalan, AQShda ijtimoiy pensiya kam taʼminlangan fuqarolar uchun minimal pensiya miqdorida toʻlanadi, agarda u fuqaro boshqa daromad manbaiga ega boʻlsa, ijtimoiy pensiya miqdori kamaytiriladi.

Davlat xizmatchilari uchun pensiyalar esa harbiy xizmatchilar, mansabdor shaxslar uchun tayinlanadi. Bu pensiya toʻlovlari bevosita davlat budjeti hisobidan amalga oshiriladi. Masalan yaqin yillargacha Xitoy Xalq Respublikasida davlat pensiyasi faqatgina davlat xizmatchilari, amaldorlar uchun berilar edi.

**Xorijiy davlatlar pensiya tizimini moliyalashtirish manbalari** <sup>27</sup> 4.1 – jadval

Davlat	Ishlovchilardan ushlanmalar (oylik ish haqidan, %)	Ish beruvchilardan ushlanmalar (oylik ish haqi fondidan, %)
Shvetsiya	1	19,03
Belgiya	7,5	8,86
Fransiya	6,6	8,2
Gretsiya	6,67	13,33

<sup>26</sup>Internet maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

<sup>27</sup>Internet maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Norvegiya	7,8	14,2
Italiya	8,7	21,3
Buyuk Britaniya	5-9	5-10,45
Yaponiya	8,25	8,25
Irlandiya	7,75	12,25
Turkiya	9	11
Ispaniya	4,7	23,6
Rossiya	1	29
O'zbekiston	7	24,8

Davlat pensiya ta'minoti tizimi ijtimoiy soliqlar va to'lovlar hisobiga moliyalashtirilib, unda ishtirok etish barcha ishlovchilar va ish beruvchilar uchun majburiy hisoblanadi. Demak, davlat pensiya tizimining asosiy moliyaviy manbai ijtimoiy sug'urta tizimiga kiritiladigan to'lovlar hisoblanadi. U umumiy oylik ish haqining hajmiga bog'liq bo'lib, turli mamlakatlarda turlicha ko'rsatkichga (Kanadada 5 foiz, Italiyada 30 foizgacha) ega. Ayrim mamlakatlar (AQSH, Kanada, Yaponiya)da to'lovlar ish beruvchi va ishchilar tomonidan teng miqdorda to'lanadi, boshqa mamlakatlar (Ispaniya, Italiya)da esa ish beruvchi zimmasiga yuk ko'proq tushadi. Ijtimoiy to'lovlar yoki soliqlar stavkalari har bir davlatning qonunchiligi bilan belgilab qo'yiladi (1-jadval).

Davlat pensiya ta'minoti odatda solidar (taqsimlovchi) tizimga asoslanadi. Solidar tizimda pensioner o'z pullarini emas, balki ayni paytda soliq va badallar to'lovchilari bo'lmish ishlovchilarning pullarini oladilar. Shu tariqa, taqsimlovchi tizim o'zida avlodlar birdamligini ifodalaydi.

“Avlodlar birdamligi” ijtimoiy tamoyil bo'lib, u majburiy tartibda amalga oshirilganda va davlat darajasida hamda demografik holat ijobiy bo'lgandagina to'laqonli ishlashi mumkin.

**4.2 – jadval**  
**Xorijiy davlatlarda davlat pensiya tizimining qoplanish darajasi**<sup>28</sup>

Mamlakat	Qoplanish koeffitsienti, ish haqiga nisbatan, %	Mamlakat	Qoplanish koeffitsienti, ish haqiga nisbatan, %
Xususiy pensiya fondlarining ishtiroki yuqori bo'lgan davlatlar			
Shveysariya	35,8	Niderlandiya	31,3
Islandiya	9,2	Daniya	25,0
AQSh	41,2	Avstraliya	17,4
Kanada	43,9	Buyuk Britaniya	30,8
Irlandiya	32,5	Finlandiya	63,4
Shvetsiya	37,8	Norvegiya	59,3
Boshqa mamlakatlar			
Portugaliya	54,1	Yaponiya	34,4

<sup>28</sup> А. Кудрин. Коэффициент замещения пенсии. 2013г. Прайм-Тасс.

Avstriya	80,1	Germaniya	39,9
Belgiya	40,4	Polsha	27,1
Ispaniya	81,2	Koreya	66,8
Fransiya	51,2	Turkiya	72,5
Gretsiya	95,7	Rossiya	37
Qozog'iston	36,6	O'zbekiston	37,5

Bu tizimning mohiyati shundaki, pensiya fondiga kelib tushuvchi pensiya sug'urtasi badallari ko'rinishidagi mablag'lar, pensiya fondlari hisob raqamida deyarli ushlanib qolmay, oylik pensiya to'lovlari ko'rinishida pensionerlar ixtiyoriga o'tadi. Shu tariqa pensiya to'lovlari o'rnatilgan miqdorlarda ta'minlanishi kafolatlanadi.

Xorijiy davlatlar davlat pensiya ta'minotini fuqarolarning pensiyaga chiqqanida ega bo'ladigan daromadiga ko'ra uchga bo'lish mumkin:

4. Yuqori darajadagi qoplash, qoplanish darajasi 50% dan yuqori;
5. O'rta darajada qoplash, qoplanish darajasi 50%;
6. Past darajada qoplash, qoplanish darajasi 50% dan past.

Qoplanish koeffitsienti – o'rtacha pensiya miqdorining o'rtacha oylik ish haqi nisbatiga teng bo'lib, Xalqaro Mehnat Tashkiloti standartlariga ko'ra qoplanish koeffitsienti darajasi fuqaroning mehnatga layoqatli davridagi oylik ish haqi (daromadi)ning 40 foizidan kam bo'lmashligi kerak <sup>29</sup> (2-jadval).

Fuqarolarning shaxsiy pensiya tizimi jamg'arib borish tamoyili asosida ixtiyoriy ravishda shaxsiy pensiya hisob raqamlarini ochish orqali yoki sug'urta kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Shaxsiy pensiya hisob raqamda jamg'ariluvchi pensiyalarni fuqaro pensiya yoshiga yetgandagi olishi mumkin bo'ladi. Shaxsiy hisob raqamga o'tkazib turiluvchi sug'urta badallari oylik yoki yillik summasi ko'p mamlakatlarda chegaralangandir. Odatda shaxsiy pensiya hisob raqami tijorat va omonat banklarida, sug'urta tashkilotlarida ochiladi.

Jamg'ariluvchi tizim asosida, pul fondlarini tashkil qilish sxemasi yotadi. Unda barcha moliyaviy mablag'lar jamlanadi va uning ma'lum qismigina joriy pensiya to'lovlari xarajatlarini qoplashga sarflanadi. Qolgan, rezerv qismi esa daromad olish manbasi sifatida investitsiyalarga yo'naltiriladi.

Rezerv qism fond faoliyatining birinchi bosqichida, ishlovchi ishtirokchilar badallari umumiy summasi pensiya to'lovlari uchun zarur summadan ko'proq bo'lishi hisobiga shakllanadi. Fondning rivojlanishi va faoliyati darajasiga ko'ra ishlovchilarning sug'urta badallari joriy pensiya xarajatlaridan kamayadi, tafovut esa investitsion foyda hisobiga qoplanib boriladi.

Xorijiy davlatlarda jamg'arib borish usuli asosan nodavlat pensiya fondlari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar (masalan, BMT)ga tegishli fondlar orasida keng tarqalgan. Lekin, ayrim xorijiy mamlakatlaridagi davlat pensiya tizimi yuqoridagi ikki tizimni ham, ya'ni, qayta taqsimlash (solidar)tamoyiliga tayangan davlat pensiya ta'minoti tizimini (u asosiy tizim hisoblanadi) hamda jamg'arma mexanizmiga tayanadigan fuqarolarning shaxsiy pensiya tizimini (qo'shimcha, to'ldiruvchi tizim) o'z ichiga oladi. Masalan, AQSh, Shvetsiya va O'zbekistonda jamg'arib boriladigan pensiya tizimi davlat pensiya tizimida ham qo'llaniladi.

<sup>29</sup> "Ijtimoiy ta'minotning minimal normalari to'g'risida"gi №102 Konvensiya. XMT 1952-yil.

Biroq dunyodagi har xil mamlakatlar tarixiy an'analar, joriy ijtimoiy-siyosiy vaziyat, iqtisodiy imkoniyatlar va bir qator boshqa omillarga ko'ra ushbu ikki tizimning har xil qorishmasidan foydalanadi. Butkul o'xshash ikki pensiya tizimiga ega davlatni topish qiyin.

Xorijiy davlatlarda davlat pensiyasidan tashqari xususiy pensiya sug'urtasi tizimi ham joriy qilingan bo'lib, u korporativ (professional) yoki individual jamg'arma asosida qurilishi mumkin. Xususiy (nodavlat) pensiya ta'minoti tizimi biror bir sohaga oid kishilar majmuini qamrab oladi. Odatda bu rolda kasaba uyushmalari birlashgan yirik korxonalar, kompaniyalar va korporatsiyalarning mehnat jamoalari ishtirok etadi.

Ko'plab davlatlarning pensiya ta'minoti tizimida, xususiy pensiya tizimi salmoqli o'rinni egallaydi. (3-jadval).

#### 4.3 – jadval

#### Dunyo mamlakatlarida pensiya tizimi tarkibi va uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi <sup>30</sup>

Mamlakatlar	Pensiya tizimi tarkibi (%)			Pensiya tizimining mamlakat YaIMdagi ulushi (%)		
	Davlat pensiya tizimi	Xususiy pensiya tizimi	Jami	Davlat pensiya tizimi	Xususiy pensiya tizimi	Jami
AQSh	68	32	100	6,9	3,3	10,2
Buyuk Britaniya	58	42	100	6,3	4,6	10,9
Germaniya	80	20	100	10,6	2,6	13,2
Italiya	86	14	100	9,5	1,5	11
Fransiya	91	9	100	10,0	1,0	11
Gollandiya	84	16	100	8,2	1,6	9,8
Avstraliya	63	37	100	4,0	2,3	6,3
O'zbekiston	100	-	100	8,5	-	8,5

Korporativ pensiya tizimlari davlat va individual sxemalaridan farqli o'laroq ish beruvchilar tomonidan moliyalashtirilib, firmaning ixtiyoriy ajratmalari yoki jamoa shartnomalaridagi mavjud shartlarga tayanadi. Korporativ pensiya tizimlari davlatning minimal aralashuvi ostida va nisbatan kam ma'muriy xarajatlarga ega bo'ladi. Biroq ayrim davlatlarda fuqarolarning huquqlarini himoyalash maqsadida xususiy pensiya tizimlarini nazorat qilish va tartibga solishga oid qator chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Masalan, fuqarolarning pensiya ta'minotida korporativ pensiya tizimlari salmog'i juda yuqori bo'lgan AQShda, bu tizim uchun "o'yin qoidalari" davlat tomonidan o'rnatilgan va nazorat qilinadi. Shu sababli ham korporativ pensiya tizimi AQShda ikkinchi milliy pensiya tizimi darajasigacha ko'tarilgan. Buyuk Britaniyada esa xususiy pensiya tizimlarini rolini oshirish maqsadida uning ishtirokchilari uchun bir qator imtiyozlar yaratilgan. Masalan, korporativ pensiya to'lovlaridan soliqlar ushlanmaydi.

Korporativ pensiya tizimda ishchiga kelajakda to'laniladigan pensiya uning staji va oylik ish haqisining hajmiga bog'liq bo'ladi. Ishchi stajining davomiyligini korxonalar belgilaydi. Masalan, Germaniyaning Airbus, Mercedes, Siemens kabi yirik korxonalar

<sup>30</sup> Д.Ю. Евсеев. Пенсионные системы зарубежных стран. 2010г.

hodimlari, ushbu korxonalarda minimum 10-yil stajga ega bo'lgan taqdirda korporativ pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar.

Ish beruvchilar uchun korporativ pensiya tizimini tashkil qilishdan asosiy maqsad – raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun, eng yaxshi, malakali kadrlarni jalb qilish, kadrlar siyosati va intizomini mustahkamlashdan iborat hisoblanadi.

Demak, davlat yuqorida keltirilgan birinchi va ikkinchitizimlarda, ularning tashkil qilinish shartlari, pensiya ta'minoti hajmini belgilashda ishtirok etsa, uchinchi tizimda davlat to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etmaydi, biroq shartnoma va huquqiy majburiyatlar bajarilishida kuzatuvchi vazifasini o'taydi.


### 3. O'zbekiston respublikasi pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlari va huquqiy asoslari

Ijtimoiy siyosat jamiyat hayotining muhim sohasi va har bir davlat faoliyatining muhim yo'nalishidir. Ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyot tamoyillariga mos pensiya ta'minoti esa uning amaliy vositalaridan biridir. Pensiya ta'minotining to'g'ri tashkil etilishi ham muayyan guruhga mansub odamlarning, ham aholining daromadi, mehnati, turmush sifati hamda darajasini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy siyosat maqsadlariga erishish imkonini beradi.

O'zbekistonda pensiya ta'minoti – bu mamlakatimizda fuqarolarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlangan moddiy ta'minotni taqdim etish maqsadida tashkil etilayotgan huquqiy-tashkiliy institutlar va normalar majmuidir. Shu bois pensiya ta'minoti mamlakatimizda shakllangan ijtimoiy muhofaza tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, mehnatga layoqatsiz aholi va kam ta'minlangan fuqarolarning turmush darajasi va farovonligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy xususiyatga ega kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni ko'zda tutuvchi tizim hisoblanadi.

O'zbekistonda pensiya tizimi ikki tarkibiy qismdan iborat (5-rasm). Bular:

1. “Avlodlar birdamligi” tamoyiliga asoslangan davlat pensiya ta'minoti;
2. Majburiy jamg'arib boriluvchi tizim.



4.5 - rasm. O'zbekiston Respublikasi davlat pensiya tizimi <sup>31</sup>

O'zbekistondagi pensiya ta'minoti tarixiga nazar solsak, omadli harbiy yurishlardan so'ng Amir Temur harbiy qo'mondonlarga umrini ohirigacha pensiya belgilagan, ularning oilasi va ota-onasini, shuningdek, jangda halok bo'lgan jangchilarning oila a'zolarini moliyaviy jihatdan ta'minlab borgan.

<sup>31</sup>Muallif tomonidan tayyorlandi.

O‘zbekiston 1991-yilgacha sobiq SOBIQ ITTIFOQ tarkibida bo‘lganligini hisobga olsak, aholini pensiya bilan ta‘minlash milliy qonunchiligining evolyusiyasi sobiq SOBIQ ITTIFOQning pensiya qonunchiligiga bog‘liq bo‘lganini ko‘rish mumkin.

Pensiya tizimi 1956-yilda “Davlat pensiyasi to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi bilan qonuniy shaklni kasb etadi. Qonunda belgilangan ayollar uchun majburiy staj 20 yil va erkaklarga 25 yil hozirda bir qator MDH mamlakatlarida amalda. Ushbu qonun bo‘yicha 1956-yilda mamlakatda pensiya o‘rtacha ish haqining 65 foizini tashkil etgan. 1990-yilgacha (deyarli 60 yil) pensiya ta‘minoti tizimida o‘zgarish kuzatilmadi.

1991-yilda O‘zbekiston mustaqil bo‘lishi bilan mamlakatimiz iqtisodiy islohotlarining maqsadi kuchli ijtimoiy siyosatga asoslangan bozor iqtisodiyotini shakllantirish bo‘ldi.

#### 4.4 – jadval

#### O‘zbekiston Respublikasi mustaqil pensiya tizimi evolyutsiyasi <sup>32</sup>

Yil	Hodisalar
1991	Pensiya fondining O‘zbekiston jumhuriyat bo‘limi tashkil etildi.
1993	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi tashkil etildi.
1994	1 iyuldan «Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi O‘zR Qonuni amalga kiritildi.
1996	Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi Ijtimoiy ta‘minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg‘armasiga aylantirildi.
1997	Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari Davlat budjeti tarkibida konsolidatsiyalashdi.
2000	Pensiya jamg‘armasiga Davlat maqsadli jamg‘armasi statusi berildi.
2001	Ijtimoiy ta‘minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg‘armasi O‘zbekiston Respublikasining budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga aylantirildi.
2004	O‘zbekiston Respublikasining budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi Moliya vazirligining idoraviy mansub tashkiloti etib belgilandi.
2005	Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi tashkil etildi.
2009	Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining barcha pensiya tayinlovchi va TMEX birliklari Pensiya jamg‘armasi tarkibiga o‘tkazildi.

Ijtimoiy himoya va pensiya ta‘minotiga qaratilgan davlat mablag‘laridan yanada samarali foydalanish maqsadida 1993-yil 4-avgustda sobiq SOBIQ ITTIFOQ Pensiya Fondining O‘zbek bo‘limi bazasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida Ijtimoiy sug‘urta fondi tashkil etildi. 1993-yil 3-sentyabrda “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Shu tariqa mamlakatimizning mustaqil pensiya tizimiga tashkiliy, qonuniy va moliyaviy asos solindi va bu o‘z navbatida o‘sha davrda davlatdagi 2,9 million pensioner va 400 ming nogironlarning stabil pensiya va to‘lovlarni olish imkonini berdi.<sup>33</sup>

<sup>32</sup>Internetma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

<sup>33</sup> Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasining 1991-1992 yy ijtimoiy ta‘minoti” statistik hisoboti.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-oktyabrdagi 490-sonli "Budjetdan tashqari Pensiya fondini boshqarishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, 2005-yilning 1-yanvaridan boshlab O'zbekiston Respublikasining budjetdan tashqari Pensiya fondi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga aylantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi yuridik shaxs bo'lib, O'zbekiston Respublikasining qonunlari asosida o'z faoliyatini amalga oshiruvchi moliya-kredit muassasasi hisoblanadi.


2009-yilning 30-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 1252-sonli Prezident qaroriga ko'ra pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilishi belgilab berildi va hududiy bo'linmalari tashkil etildi. 2010-yil 19-fevralda Vazirlar Mahkamasining 30-sonli qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida Nizom" tasdiqlandi. Nizom Vazirlik qoshidagi Pensiya jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini hamda boshqarish prinsiplarini aniqlab berdi.

Jumladan, Nizomda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ijtimoiy ta'minot tizimidagi davlat kafolatlarini realizatsiya qilishga yo'naltirilgan maqsadli moliyaviy resurslarni to'playdi, deb ko'rsatilgan. Shu munosabat bilan Pensiya jamg'armasining mablag'lari O'zbekiston Respublikasining Markaziy Bankidagi yagona konsolidatsiyalashtirilgan hisob varag'i orqali to'lanadi. Pensiya jamg'armasi mablag'larining taqsimlovchisi bo'lib jamg'armaning Ijroiya direksiyasi hisoblanadi. Majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to'lovlarni yig'ishni va bu mablag'larning jamg'armaga to'liq tushib turishini ta'minlash ustidan nazoratni amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi va uning quyi organlari zimmasiga yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrda "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga ko'ra mamlakatimiz pensiya tizimida bir qator yangiliklar joriy etildi. Ammo pensiya tizimidagi asosiy o'zgarishlar 2004-yil 2-dekabrda "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganda boshlandi.

O'zbekistonda pensiya tizimi solidar pensiya tizimiga asoslanar edi. 2005-yildan boshlab esa solidar pensiya tizimi bilan birgalikda yig'ib borishga asoslangan pensiya tizimi parallel ravishda joriy etildi. Bu ikki tizimning bir-biridan farqi shundaki, solidar tizimga asoslangan pensiya tizimida fuqaro ma'lum bir vaqtda ishlagan o'rtacha oyligini oladi. Yig'ib borishga asoslangan pensiya tizimida o'zidagi mablag' bilan pensiya fondining foizini ko'paytirishi mumkin.





**4.6 - rasm. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining asosiy vazifalari**<sup>34</sup>

Solidar tizimida iqtisodiyotda davlatning o‘rni ham rasman, ham amaliyotda juda kuchli bo‘lgan. Ma‘muriy boshqaruv tizimiga asoslangan iqtisodiyotlar uchun solidar tizim to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston mustaqillik yillaridan beri bozor iqtisodiyotiga asoslangan, shu bilan birga kuchli ijtimoiy himoya elementini o‘z ichiga oladigan yo‘nalishni o‘ziga tanlab olgan. Shuning uchun ham davlatimiz 2005-yildan boshlab solidar tizimni saqlab qolgan holda, jamg‘arib borishga asoslangan tizimni ham joriy qildi.

Mazkur tizim amaldagi fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti tizimiga qo‘shimcha ravishda, ish beruvchilarning pensiya yoshiga yetgan xodimlarning moddiy ahvolini yaxshilash, shu asosida pensionerlarga amaldagi pensiya to‘lovlariga qo‘shimcha ravishda daromad olish manbalarini yaratish, keksalik chog‘ida fuqaroning o‘z farovonligi uchun shaxsiy javobgarligini oshirish maqsadida tashkil etildi.

Yuridik shaxslar – ish beruvchilar, ularda mehnat shartnomasi asosida yollanib ishlovchi fuqarolar pensiya tizimi ishtirokchilari hisoblanadi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan dehqon xo‘jaliklarining a‘zolari va vaqtinchalik ish faoliyati bilan shug‘ullanmaydigan fuqarolar ushbu pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida ishtirok etadilar.

Fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga har oyda ularga hisoblangan ish haqining bir foizi miqdorida badal belgilangan. O‘zbekistonda bu tizimning o‘ziga xos xususiyati shundaki, jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallarining to‘lanishi natijasida ishlayotgan fuqarolar uchun ish haqidan (daromadidan) hech qanaqa yo‘qotish bo‘lmaydi. Ishlovchi fuqaroning shaxsiy hisobvarag‘iga o‘tkazib berilayotgan har oylik pensiya majburiy badallari ushbu xodimning daromadiga qonunda belgilangan tartibda hisoblangan jismoniy shaxslarning daromad solig‘idan chegirib qolinadi. Misol uchun, korxonada ishlovchi xodimga 2014-yil yanvar oyi uchun besh yuz ming so‘m ish haqi hisoblansa, bu holda jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallari miqdori besh ming so‘mni tashkil etadi va ushbu miqdor xodimning daromadidan hisoblangan 65238,5 so‘m

<sup>34</sup> “O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risida Nizom”. VMQ №30. 19.02.2010y.

soliq summasidan chegirilib, fuqaroning shaxsiy jamg'arib boriladigan xisobvarag'iga o'tkaziladi. Natijada ishlovchi fuqaroning naqd pulda olayotgan oylik maoshi miqdori hech kamaymaydi.

Davlat jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etuvchi fuqarolarga shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida jamg'arilgan mablag'lari saqlanishi hamda to'lanishini kafolatlaydi. Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisoblarida to'plangan pul mablag'lari faqat ana shu hisob egalari bo'lgan fuqarolarga tegishlidir. Ularning o'zlari, ishonch bildirgan boshqa shaxslar yoki merosxo'rlardan boshqa hech kim pul mablag'ini olish huquqiga ega emas. Fuqarolar shaxsiy jamg'arma pensiya mablag'larini olishlari davlat pensiyasi olish huquqiga ega bo'lingan paytdan boshlab bir vaqtda yoki oyma - oy teng ulushlarda olishlari mumkin. Hisobvaraqa egasi vafot etgan holda unda to'plangan badallar qonunda belgilangan tartibda merosxo'rga o'tadi. Bunda meros qolgan mablag' bir vaqtda to'la hajmda to'lanadi. Shuningdek, mamlakatdan tashqariga ko'chib ketadigan fuqarolar o'z jamg'armalarini birdaniga olishlari mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, pensiya tizimi jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlarining manfaatlarini qondirish uchun mo'ljallangan, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy institutlarni birlashtiruvchi murakkab organizmdir. Pensiya bu fuqarolarning qonunchilikda belgilangan keksalik yoshiga etganida, nogironlik tufayli mehnat faoliyatini yo'qotganida, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganida va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda qonunchilikda belgilangan shartlar va normalar asosida beriladigan har oylik to'lovlar, pensiya ta'minoti esa ushbu to'lovlarni maxsus pensiya jamg'armalari mablag'lari hisobidan fuqarolarga to'lanishining ta'minlanishidir.

## 5-MAVZU: GERMANIYANING PENSIYA TA'MINOTI TIZIMI

### Reja

- 5.1. Germaniyaning pensiya ta'minoti tizimining asosiy xususiyatlari
- 5.2. Germaniya pensiya tizimida qilingan asosiy islohot yo'nalishlari
- 5.3. Germaniyada davlat va xususiy pensiya ta'minoti tizimi

**TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:** Xalqaro Mehnat tashkiloti, Aholini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy ta'minot, pensiya tizimlari modellari, xalqaro mehnat tashkiloti, avlodlar birdamligi, xorijiy mamlakatlar pensiya tizimlari, pensiya ta'minoti tizimi, davlatning ijtimoiy siyosati, pensiya ta'minoti, davlat budjeti, davlat pensiya tizimi, nodavlat pensiya tizimi, davlat maqsadli jamg'armalari, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, xalqaro moliya munosabatlari, byudjet tizimi, xalqaro moliya.

### 5.1. Germaniyaning pensiya ta'minoti tizimining asosiy xususiyatlari

G'arb olimlarining fikricha, tabiiy tug'ilish kamayishi va umr ko'rish yoshining ortishi aholining qarishiga sabab bo'lib, mehnat bozoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun pensiyaga chiqish yoshining bosqichma-bosqich me'yorda oshirilishi pensiya fondlari mablag'larini barqaror rivojlanishga olib kelishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Qolaversa, rivojlangan mamlakatlarda aholining o'rtacha umr ko'rish yoshining oshishi va tug'ilishning kamayishi demografik masalalar qatoridan chiqib tobora iqtisodiy muammoga aylanib bormoqda. Xususan, 2000 yilda bir nafar 65 yoshdan oshgan pensioner fuqaroga 4-5 nafar mehnatga layoqatli aholi nisbati to'g'ri kelgan bo'lsa, 2020-2025 yillarga borib ayrim Yevropa mamlakatlarida ularning o'rtasidagi nisbat 1:2.5 bo'lishi kutilmoqda. Mazkur holat pensiya ta'minotiga oid xarajatlarni o'sishi pirovardida yaqin kelajakda barqaror moliyalashtirish uchun qo'shimcha moliyaviy manbalarini izlab topishni va davlat pensiya ta'minoti samaradorligini takomillashtirishni taqozo etadi.

Iqtisodiy xamkorlik va rivojlanish tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, Yevropa mamlakatlarida yaqin 10-30 yilda pensiya ta'minotiga sarflanadigan o'rtacha xarajatlar YaIMga nisbatan 14-20 foizga yetishi taxmin qilinadi. Qolaversa, 2004 yilda 6,4 trln. nafar dunyo aholining 7,3 foizi pensiya yoshidagi fuqarolar tashkil etsa, 2015 yilga kelib 7,2 trln. kishiga yoki ular tarkibida pensionerlar ulushi 8,4 foiz bo'lishi kutilmoqda.

### 5.1-jadval

#### Dunyo aholisi tarkibida 65 va undan katta yoshdagi fuqarolar soni<sup>35</sup>

Mamlakatlar	Aholining umumiy soni, mln. kishi		65 va undan katta yoshdagilar ulushi (%)	
	2004 y.	2015 y. (prognoz)	2004 y.	2015 y.
<i>Jami</i>	6389,0	7219,0	7,3	8,4
Rivojlanayotgan mamlakatlar	5093,0	5885,0	5,4	6,5
Xitoy	1308,0	1393,0	7,5	9,6
Xindiston	1087,0	1260,0	5,2	6,2

<sup>35</sup> Iqtisodiy xamkorlik va rivojlanish tashkiloti [www.oecd.org](http://www.oecd.org) xamda Development Human Report 2006. [www.hdr.undp.org](http://www.hdr.undp.org) internet saytlari ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Rossiya	143,9	136,7	13,6	14,3
IXTT mamlakatlari	1164,0	1233,0	13,6	16,1
Yaponiya	127,9	128,0	19,2	26,0
AQSH	295,4	325,7	12,3	14,1

Qolaversa xorij ekspertlarining fikricha, 2060 yilga kelib har 3 nafar yevropalikning biri 80 yoshni qarshilagan bo`ladi. Ayrim Yevropa Ittifoqi davlatlarida iqtisodiy faol aholining rivojlangan mamlakatlariga ko`chib o`tishi natijasida aholining tarkibiy o`zgarishi kuzatiladi. Jumladan, Chexiyada 1 mln. nafar aholi yuqotiladi. Boltiq bo`yi mamlakatlari, Rumuniya va Bolgariyada 2060 yilda 1/3 qism aholisidan mahrum bo`lishi kutiladi, Slovakiya va Polshada 2050 yilda 65 yoshdan yuqori bo`lgan fuqarolar umumiy aholining 36 foizini tashkil etadi.

Yevropa statistika tashkiloti bashoratiga ko`ra, keyingi 50 yil davomida Yevropa mamlakatlari aholisining qarishi kuzatilib, bunda Chexiya aholisi yoshi yanada tez sur`atlar bilan o`shishi taxmin qilinadi.<sup>36</sup>

## 5.2. Germaniya pensiya tizimida qilingan asosiy islohot yo`nalishlari

Barcha davlatlarning siyosiy-iqtisodiy sohadagi eng muhim masalalaridan biri pensiya ta`minoti masalalari hisoblanadi. Pensiya tizimlari bundan yuz yillar ilgari paydo bo`lib, bir qancha islohotlar bosqichidan o`tganiga qaramay, pensiya ta`minoti muammolari bugungi kunda rivojlanayotgan va xatto rivojlangan davlatlarda ham muhim tus ola boshladi. Bu muammolarning jiddiylashuvi, u yoki bu mamlakatda avvallari pensiya islohotlari siyosatida unchalik e`tiborga olinmagan ijtimoiy-demografik omillar bilan bog`liq bo`lishi mumkin. Kelgusida bu omillar pensiya tizimlaridagi islohotlarda e`tiborga olinishi zarurdir.

Ana shu muammolar ta`sirida XX asr oxirlarida pensiya islohotlari deyarli barcha mamlakatlarni qamrab oldi. Bu islohotlarning maqsadi, har bir alohida davlatda o`zgargan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-demografik holatni hisobga olgan holda va o`rnatilgan umumjahon talablari va tendensiyalariga mos keluvchi yangilangan pensiya ta`minoti tizimini qurish va shakllantirishdan iborat bo`ldi.

Demak pensiya ta`minotiga oid muammolar birinchi navbatda o`zgarib borayotgan demografik omillarga bog`liq. Ko`plab rivojlangan davlatlar (Yevropa, AQSh, Avstraliya)dagi demografik holat, hozirgi kunda o`ziga xos xususiyatga ega: ya`ni mehnatga layoqatli aholi sonining o`shishi sekinlashmoqda yoki qisqarmoqda. Shu bilan birga 60 va 80 yoshdan katta aholi qatlamining ko`payishi tendensiyasi kuzatilmoqda (2-jadval).

Bu esa shubhasiz jamiyatning mehnatga layoqatsiz qatlamining ko`payishiga, ya`ni pensionerlar sonining o`shishiga olib keladi.<sup>37</sup> Rivojlangan davlatlarda ushbu muammo yechimining asosiy yo`nalishlarini aniqlash muhim masalalardan biri bo`lib kelmoqda.

<sup>36</sup> Yevropa statistika tashkiloti [www.epp.eurostat.ec.europa.eu](http://www.epp.eurostat.ec.europa.eu) internet sayti ma`lumotlari asosida tayyorlandi.

<sup>37</sup> Е.И.Иванова. "Мировой опыт развития пенсионных систем: общемировые тенденции и межстрановые различия" 2012.

**5.2 – jadval**

**Dunyo mamlakatlarida 65 va undan yuqori yoshdagi aholining o‘sishi**<sup>38</sup>

Mamlakatlar	65 va undan yuqori yoshdagilarni aholi umumiy sonidagi ulushi, %			
	2000	2010	2015	2000-2015 yillardagi farq
AQSh	12	13	14,1	+2,1
Buyuk Britaniya	16	17	18,1	+2,1
Germaniya	16	21	20,9	+4,9
Italiya	18	20	22,1	+4,1
Ispaniya	17	17	18,3	+1,3
Fransiya	16	17	18,5	+2,5
Yaponiya	17	23	26,2	+9,2
Xitoy	7	8	9,6	+2,6
Hindiston	4	5	5,8	+1,8
Rossiya	12	13	13,1	+1,1
O‘zbekiston	4	4	4,4	+0,4

Bashoratlarga ko‘ra, yaqin 40 yil ichida 20 yoshgacha va mehnat yoshidagi aholi soni muntazam kamayib boradi (3-jadval), pensionerlar soni yana 10 foizga ortadi. Yevropa ittifoqidagi mamlakatlarda esa 2020-yilga kelib, har bir pensionerga o‘rtacha 3ta ishlovchi to‘g‘ri keladi.

Demak bugungi kun ishchilarining pensiyada munosib hayot kechirishlari uchun hozirdan qulay sharoitlar yaratish va pensiya tizimida munosib islohotlar o‘tkazish zarurati juda muhim hisoblanadi.

**5.3 – jadval**

**Dunyo mamlakatlarida mehnatga layoqatli aholi sonining kamayishi**<sup>39</sup>

Mamlakatlar	Mehnatgalayoqatlilarning aholi umumiy sonidagi ulushi (%)		
	2010 yil	2050 yil	Farqi
AQSh	62	56	-6
Yevropa ittifoqi	60	50,3	-9,7
Yaponiya	57	44,6	-12,4
Xitoy	68	53,7	-14,3
Rossiya	67,4	52,1	-15,3

Quyida bir nechta rivojlangan davlatlar pensiya tizimlarining bugungi kundagi holatini va amaliyotini ko‘rib chiqamiz.

<sup>38</sup> <http://www.Mvf.ru> Xalqaro valyuta fondi ma'lumotlari 2014

<sup>39</sup> Old-age in Europe. - Luxemburg: Office for official publications of the European Communities, 2011


### 5.3. Germaniyada davlat va xususiy pensiya ta'minoti tizimi

Germaniya pensiya tizimi Yevropadagi eng samarali tizimlardan biri hisoblanadi. "HelpAge" – dunyo mamlakatlarida qariyalarning hayot darajasi reytingi bo'yicha esa Germaniya faxrli uchinchi o'rinni egallaydi. Germaniya pensiya tizimining asosiy tamoyili bu "avlodlar birdamligi" (solidar) tamoyilidir. Germaniya o'z fuqarolarining qariganida qo'llab-quvvatlash choralarini XIX asrning oxirida boshlagan. Bugun Germaniya pensiya tizimi, barcha manfaatdor tomonlar ya'ni, davlat, ish beruvchilar, moliyaviy institutlar va fuqarolarning qiziqishlarini inobatga ololgan tizimlardan biridir.

Germaniyada pensiya ta'minoti (yoki sug'urtasi) uch xil ko'rinishda taqdim etiladi: davlat, korporativ va shaxsiy (1-rasm).

Davlat pensiya sug'urtasi oylik daromadi soliqlar hisoblangunga qadar €3900 dan oshmaydigan fuqarolar uchun majburiy. Oylik ish haqidan ajratmalar stavkasi esa 19,5% bo'lib, ish beruvchi va ishlovchi o'rtasida teng miqdorda taqsimlangan. Bu pensiya ish staji va professional tarif setkasidan kelib chiqib hisoblanadi. Pensiya ta'minotining bu qismi qayta taqsimlash asosida qurilgan.

Korporativ pensiyalar fuqaro ishlagan korxonalar va tashkilot tomonidan (agarda ushbu tashkilotda korporativ pensiya tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lsa) taqdim etiladi. Germaniyaning Mercedes, Airbus kabi yirik kompaniyalari o'z ishchilarini qariganda pensiya bilan ta'minlaydi. Bunda pensiya miqdori kompaniyalarning daromadi, ishchining ish staji va mehnat lavozimiga bog'liq. Masalan, yuqori malakali mutaxassis oyiga €600 gacha, oddiy ishchilar esa €100-€200 gacha korporativ pensiya olishi mumkin.



5.1 - rasm. Germaniya pensiya tizimi tuzilishi <sup>40</sup>


Oylik daromadi €3900 dan oshadigan fuqarolar esa davlat pensiya sug'urtasidan voz kechib, shaxsiy pensiya tizimlarida ishtirok etishlari mumkin. Bu tizimda shuningdek, iqtisodiy mustaqillikka ega bo'lgan fuqarolar, masalan, fermerlar, tadbirkorlar va ijod bilan shug'ullanuvchilar ham ishtirok etadilar. Bu pensiya tizimi bugungi kunda Germaniyada

<sup>40</sup> [www.expert.ru](http://www.expert.ru) internet sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

katta ommaboplikka erishmoqda. Sababi Germaniyaliklarning banklarga boʻlgan ishonchi yuqori va ular davlat ijtimoiy dasturlariga qaram boʻlib qolishni istashmaydi.

Pensiyaga chiqish yoshi ayollar uchun ham erkaklar uchun 65 yosh etib belgilangan. Pensiya olish huquqini beruvchi minimal ish staji 5 yil. Davlat pensiyalarining uch turi mavjud. Bular: a) qarilik (yoshga doir) pensiyasi, b) boquvchisini yoʻqotganlik pensiyasi va c) qisman yoki butunlay mehnat layoqatini yoʻqotganlik (nogironlik) pensiyasi.

Germaniya pensionerlarining oʻrtacha pensiya miqdori erkaklar uchun €1050 va ayollar uchun €700 ni tashkil etadi. Biroq mamlakatda €300 dan kamroq pensiya oluvchilar ham mavjud (2-rasm) boʻlib, ular uchun hukumat tomonidan ijtimoiy toʻlovlar ajratiladi.



5.2 - rasm. Aholi olayotgan pensiya miqdori statistikasi (2013-2014yy) <sup>41</sup>

Germaniya pensiya tizimining oʻziga xosligi va avzalligi shundaki, boʻlajak pensioner mamlakatdagi makroiqtisodiy koʻrsatkichlar, inflyatsiya va hatto valyuta turidan ham himoyalangan. Mamlakat pul birligi oʻzgarsa ham, pensionerning mehnat faoliyati koeffitsientlarda baholanganligi uchun bu narsa uning pensiyasiga hech qanday taʼsir qilmaydi.

Yuqorida keltirilgan demografik muammolar Germaniyaga ham taʼsir koʻrsatib, natijada mamlakatda yaqin 30 yilga moʻljallangan islohotlar boshlab yuborilgan. Ularning negizini davlat pensiya taʼminoti bilan bir qatorda kelajak haqida qaygʻurishda fuqarolarning shaxsiy rolini yanada oshirish tamoyili tashkil etadi. Shuningdek, 2030-yilga kelib, pensiya fondiga toʻlanuvchi sugʻurta badallari 22foizga oshiriladi, oʻrtacha pensiya miqdori esa ish haqining 43,7 foizigacha pasaytiriladi. Pensiya yoshini esa 67 yoshga koʻtarish koʻzda tutilgan.

<sup>41</sup>DeutscheRentenversicherung 2014

## **6-MAVZU: FRANSIYADA PENSIYA TIZIMI**

### **Reja**

- 6.1. Fransiya pensiya tizimi xususiyatlari
- 6.2. Fransiya pensiya tizimining boshqa evropa va rivojlangan davlatlar bilan qiyosiy tahlili
- 6.3. O'zbekiston pensiya ta'minoti fransiya xorij tajribasi asosida takomillashtirish masalalari

**TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:** Xalqaro Mehnat tashkiloti, Aholini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy ta'minot, pensiya tizimlari modellari, xalqaro mehnat tashkiloti, avlodlar birdamligi, xorijiy mamlakatlar pensiya tizimlari, pensiya ta'minoti tizimi, davlatning ijtimoiy siyosati, pensiya ta'minoti, davlat budjeti, davlat pensiya tizimi, nodavlat pensiya tizimi, davlat maqsadli jamg'armalari, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, xalqaro moliya munosabatlari, byudjet tizimi, xalqaro moliya.

### **6.1. Fransiya pensiya tizimi xususiyatlari**

Frantsiyada pensiya ta'minoti taqsimlash xarakteriga ega. Pensiyalar to'lanishi kasaba tashkilotlari yoki ishchilar uyushmalari hamda ish beruvchilar tomonidan davlat boshchiligida nazorat qilinadi. Pensiya ajratmalari majburiy hisoblanib, ishchi-hizmatchilar va ish beruvchilar o'rtasida taqsimlanadi. Hunarmandlar va kichik tadbirkorlarning oylik ajratmalari 16,35 foiz belgilangan. Pensiya miqdori o'rtacha ish haqining 50 foizini tashkil etadi va ohirgi 11 yillik mehnat ish haqidan kelib chiqib hisoblanadi. Lekin, davlat tomonidan minimal (bir yilda 6000 yevro) va maksimal miqdorda (12000 yevro) davlat pensiyasi ham belgilangan.

Pensiyaga chiqish yoshi erkak va ayollar uchun bir xil 60 yosh, biroq to'liq pensiya olish uchun umumiy ish staji 40 yildan kam bo'lmasligi kerak. Agar mehnat staji yetarli bo'lmasa, pensiya miqdori stajning yetishmayotgan choragi yoki 65 yoshga yetmayotgan yillar soni uchun 1,25 foizga kamaytiriladi. Bu jarima koeffitsienti 25 foizdan oshmasligi zarur. 65 yoshga to'lgan fuqarolar mehnat stajidan qat'iy nazar to'liq mehnat pensiyasi olish huquqiga ega. Fuqaroning ish staji 40 yilga yetgandan yoki 65 yoshga to'lgandan keyin mehnat faoliyatini davom ettirish uchun har ish yiliga 3 foiz miqdoridan lekin 15 foizdan ko'p bo'lmagan ustama beriladi. Agar fuqaro 65 yoshida pensiya chiqsa, ish stajidan qat'iy nazar pensiya olish huquqiga ega bo'ladi. Nogironlar, urush qatnashchilari va boshqa imtiyozga ega fuqarolarga mehnat stajidan qat'iy nazar 60 yoshdan to'liq pensiya olish huquqi belgilangan. Pensiya tizimi ishtirokchilari yollanma ishchilar; davlat xizmatchilari; yirik milliy monopoliyalalar maxsus ishchilariga bo'linadi.

2011 yilda pensiya tizimi tanqisligi 14 mlrd. evroni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda boshlangan pensiya islohotlari natijasida 2050 yilga borib tanqislik miqdori 20 mlrd. Yevroni bo'lishi kuzda tutilgan.

Jahon bankining tahliliga ko'ra, 2010 yilda pensiya to'lovlarning umumiy miqdori Fransiya YaIMning 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2050 yilda 15-16 foiz bo'lishi taxmin qilinmoqda.

Frantsiyada majburiy pensiya ta'minotidan tashqari, kapitallashtirish printsiplariga asoslangan va korxonalar tomonidan muayyan toifadagi xodimlar uchun tashkil etilgan nomajburiy qo'shimcha dasturlar faoliyat ko'rsatadi. Buning sababi, majburiy sug'urta



tizimi mehnat daromadlarini o'rnini bosishning yuqori darajasini ta'minlaydi. Hozirda kapitallashtirishga asoslangan xususiy pensiya tizimini rivojlantirish choralari ko'rilmoqda.

Ushbu tizimda ishtirok etuvchilarning kasbiy faoliyati belgisiga ko'ra to'rt katta toifasini farqlash mumkin:

- yollanma ishchi va xizmatchilar rejimlari;
- davlat xizmatchilari rejimlari;
- yirik milliy monopoliyalarga xizmat ko'rsatuvchi maxsus rejimlar;
- noyollanma xodimlar (hunarmandlar, savdogarlar, shifokorlar va h.k.) ning rejimlari.

Davlat xizmatchisining pensiyasi oxirgi 6 oy uchun o'rtacha mansab maoshidan kelib chiqib, mukofotlarni hisobga olmasdan hisoblanadi.

Yollanma xodimlar majburiy yoki qo'shimcha rejimlar asosida pensiya ta'minotiga mablag'larni yo'naltiradilar:

- majburiy rejimlarda qo'llaniladigan pensiya ta'minoti u bilan bo'g'liq bo'lgan huquqlarni keltirib chiqaradi. Bunda hodim ma'lum badal hisobiga ballni sotib oladi. Badal ishtirokchining shaxsiy hisobvarag'iga xarid narxidan kelib chiqib muayyan vaqt oralig'ida kiritilib boriladi. Turli yillarda sotib olingan ballar alohida hisobga olinmaydi, ular bir xil xizmat ko'rsatish qiymatiga ega bo'ladi. Ishtirokchi pensiyaga chiqqanida unga ballga xizmat ko'rsatish qiymatiga teng to'plangan ballar sonining ko'paytmasiga teng pensiya to'lanadi.

- Fransiyada majburiy pensiya ta'minoti rejimlaridan tashqari, kapitallashtirish printsiplariga asoslangan va korxonalar tomonidan muayyan toifadagi xodimlar uchun tashkil etiladigan nomajburiy qo'shimcha dasturlar ham mavjud. Qo'shimcha rejimlarda esa to'lovlar maoshning 20-40 foizini tashkil etadi. Biroq, xususiy pensiya jamg'armalari yoki qo'shimcha kapitallashtirish fondlarida ixtiyoriy shaxsiy ishtirok keng tarqalmagan, buning asosiy sabablaridan biri shundaki, majburiy sug'urta tizimi mehnat daromadlari o'rnini bosishning yuksak darajasini ta'minlaydi<sup>42</sup>.

## **6.2. Fransiya pensiya tizimining boshqa Yevropa va rivojlangan davlatlar bilan qiyosiy tahlili**

Fransiyada «Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish fondi» shakllantirildi. Fond investitsiya dasturlarini, shuningdek, mintaqalarni rivojlantirish rejalarini, mamlakatda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni, ishchi kuchlarini qayta tayyorlash va sanoat korxonalarini industrial markazlardan boshqa rayonlarga o'tkazishni moliyalashtiradi. Milliyashtirilgan va xususiy korxonalariga umumdavlat rivojlantirish dasturlari asosida mablag'lar qaytarilmaydigan ssuda ko'rinishida va uzoq muddatli imtiyozli kredit ko'rinishida beriladi. "Fransiyada barcha moliyaviy resurslar G'aznachilikning yagona hisobraqamida yig'iladi, bu mablag'larning miqdori Markaziy Bankda joylashgan barcha tushumlar va byudjetdan tashqari fondlarga tushadigan to'lovlar yig'iladigan shu hisobraqam bilan nazorat qilinadi"<sup>43</sup>

Yaponiyada ham turli xildagi iqtisodiy jamg'armalar mavjud:

- investitsiya byudjeti yoki davlat investitsiyalari va qarzlari dasturi;
- markaziy va mahalliy hukumatning avtonom byudjetlari;
- maxsus hisobraqamlar.

<sup>42</sup>Martin Feldstein, Horst Siebert. Social Security Pension Reform in Europe. P.109

<sup>43</sup> Содержащий общее положение по учету государственных финансовых операций. Дек-рет № 62-1587 от 29 декабря 1962г. ГлаваII. Государственный Казначей. Статья 11. Жур-нал Офисель от 30 декабря 1962г.

Yaponiyada davlatning maxsus fondlari moliya resurslarini tashkil etishning shakli bo`lib, ular markaziy yoki mahalliy hukumat tasarrufida va maqsadga qaratilgan holda moliya tizimining muhim bo`lagi hisoblanadi. Bu fondlarni tashkil etish va sarflash tartibi moliya huquqi orqali aniq va qat`iy belgilanadi. Byudjetdan tashqari fondlar davlat mulki hisoblanadi va boshqa maqsadlarga sarf qilinishi mumkin emas. Yaponiyada nafaqa va sug`urta badallari bilan birgalikda, ularning tushumi va sarfini hisobga olgan holda, ular «Investitsiyalar va qarzlar bo`yicha davlat dasturi» deb ataladigan dasturni belgilaydi. «Investitsiyalar va qarzlar bo`yicha davlat dasturi» qonun chiqaruvchi organ tomonidan tasdiqlangan bo`lib, «ikkinchi» byudjetga aylandi. Davlat moliya institutlari milliy iqtisodiyotning ustuvor vazifalarini har tomonlama va tezkor qo`llab-quvatlash hamda ijtimoiy muammolarni hal qilish maqsadlariga xizmat qiladi.

«Eng yirik fondlardan biri- «investitsiya byudjeti» bo`lib, uning maqsadi - davlat tomonidan investitsiyalar yo`naltirish va g`aznachilikda hukumat tomonidan qarzlar berish dasturini bajarishdir. Bu fond sug`urta qilingan, jamg`arilgan pensiya va boshqa mablag`lardan shakllanadi va subsidiyalar va imtiyozli kreditlar ko`rinishida davlat sektorini moliyalashtirishga ishlatiladi. Pasaytirilgan narx va ta`riflar siyosatidan foydalanib davlat korporatsiyalarni faol faoliyat ko`rsatishishi uchun sharoit yaratiladi. «Investitsiya byudjeti» fondi korporatsiyalarga shunday xizmat ko`rsatadiki, mazkur fond yordamida keng tarmoqli xususiy sektor qo`llab-quvvatlanadi.

Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida ijtimoiy jamg`armalar faoliyati aholiga ijtimoiy xizmat ko`rsatishga yo`naltirilgan resurslardir. Ushbu jamg`armalarning kengayish zaruriyati ishlab chiqarish rivojlanishi, yollanma mehnat bilan shug`ullanuvchilarning soni ortishi, ilmiy-texnik rivojlanish bilan vujudga kelgan jamiyatning turli guruhlari qarashlari orasidagi farqning ortishi va mamlakat aholisining yosh darajasi ortishi natijasida vujudga keldi. Pensiya jamg`armasiga majburiy to`lovlar stavkasi 2001 yilda ish beruvchilar tomonidan 37,3 foiz va ishlovchilardan esa 2,5 foizni tashkil etgan bo`lsa, 2011 yilga kelib bu ko`rsatkich 24,8 va 4,5 foizni tashkil qilmoqda. Ishlovchilar Pensiya jamg`armasi ularning badallari hisobiga shakllangan deb hisoblaydilar, vaholanki amalda ish beruvchilar Pensiya jamg`armasining 85 foizini va ishlovchilar esa faqat 15 foizini shakllantiradilar. Yaponiya, AQSH, Kanada va Germaniya davrlarida 2010 yil ko`rsatkichlariga qaraganda bu ko`rsatkich teng miqdorni tashkil qilgan va jamg`armani shakllantirishda teng javobgardirlar. Bu ko`rsatkich rivojlangan mamlakatlarda o`rtacha ish beruvchilar 61 foiz va ishlovchilar 39 foizni tashkil etgan.

Yaponiyada byudjetdan tashqari fondlarning faoliyati – milliy daromadni davlat tomonidan aholining ma`lum ijtimoiy guruhlari foydasiga qayta taqsimlash usulidir. Yaponiyada quyidagi byudjetdan tashqari fondlar faoliyat ko`rsatadi: «Sog`liqni saqlashni sug`urtalash fondi», «Milliy pensiya fondi», «Ishlab chiqarishda zarar ko`rganda sug`urtalash fondi», «Ishsizlikni sug`urtalash fondi».

## 6.1-jadval

### 2010 yilda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda Pensiya jamg`armalariga to`lovlar stavkasi. (foizda)<sup>44</sup>

Mamlakatlar	Pensiya jamg`armasiga to`lovlar stavkasi		Jami
	Ishlovchilar tomonidan	Ish beruvchilar tomonidan	
Avstraliya	0,0	9,0	9,0
Buyuk Britaniya	11,0	12,8	23,8
Germaniya	10,0	10,0	20,0
Ispaniya	4,7	23,6	28,3

<sup>44</sup>Martin Feldstein, Horst Siebert. Social Security Pension Reform in Europe. P.479

Italiya	9,2	23,8	33,0
Kanada	5,0	5,0	10,0
Niderlandiya	19,0	5,7	24,7
Norvegiya	7,8	14,1	21,9
Portugaliya	11,0	23,8	34,8
Frantsiya	6,8	9,9	16,7
SHvetsiya	7,0	11,9	18,9
AQSH	6,2	6,2	12,4
Yaponiya	7,7	7,7	15,4

### **3.O'zbekiston pensiya ta'minoti Fransiya xorij tajribasi asosida takomillashtirish masalalari**

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida bozor munosabatlari chuqurlashib borgan sari pensiya tizimi eski tizimdan yangi ko'rinishga o'tib boradi. Bularning hammasi pensiya tizimini yanada chuqurroq o'rganishni talab qilgan holda, o'zgartirishlar kiritish zaruriyatini yaratadi. Ushbu zaruriyatni amaliyotda to'laqonli yechimini ta'minlash maqsadida O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimini xorij tajribasi asosida takomillashtirish muhim sanaladi. Uning nazariy, uslubiy va tashkiliy asoslarini tadqiq qilish va uni ta'minlash bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim sanaladi:

- ijtimoiy himoyaga nisbatan jahondagi mavjud yondashuvlarning mohiyati va ahamiyatini yoritish;
- xorijiy davlatlar pensiya ta'minotidagi islohotlarning maqsadi, vazifalari va o'ziga xos xususiyatlarini yoritish;
- misollarda keltirilgan davlatlar pensiya ta'minoti tizimining hozirgi holatini tahlil etish, undagi ijobiy xususiyatlarini tizimlashtirish;
- O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimining hozirgi holatini tahlil etish va mavjud muammolarini tadqiq etish;
- Respublikamiz pensiya ta'minoti tizimida xorijiy davlatlar ijobiy tajribalaridan foydalanish istiqbollari tadqiq etish va ilmiy asoslash;
- jahon pensiya tizimidagi islohotlar sharoitida O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimini samarali tashkil etish yo'llari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, ularni nazariy jihatdan asoslash.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarining pensiya tizimidagi asosiy muammolari sifatida pensiyaga chiqish yoshining barvaqtligi, budgetga daromadlarning to'liq tushmasligi, pensiya to'lovlari uchun xarajatlarning kattaligi, imtiyozli pensiyalarni mavjudligi, pensiyalarga inflyatsiyaning ta'siri kabi ko'rsatkichlar ko'riladi. Boshqacha qilib aytganda, aholining qarishi, tug'ilishining pasayishi kabi demografik muammolar aholining faol qismi bilan pensionerlar o'rtasidagi nisbatni buzilishiga olib kelsa, inflyatsiyaning yuqori darajasi esa, ishsizlikni ko'payishi, davlat budjeti taqchilligi kabi iqtisodiy omillar kuchli ta'sir etishiga sabab bo'ladi.

Islohotlar jarayonida pensiya xizmati darajasini ko'tarish, buning uchun qo'shimcha zaxiralarni jalb etish, pensiya tizimlarining moliyaviy mustahkamlanishini ta'minlash, ishchining pensiyasini bevosita uning o'z mehnati bilan qo'shgan hissasiga bog'lash hamda ishchilar o'zining pensiya budgetini shakllantirishdan manfaatdorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutish zaruriydir.

Pensiya tizimini isloh qilish davomida Hamdo'stlik davlatlari, xususan, Respublikamiz siyosati quyidagi printsiplar asosida tashkil etilishi kerak:

1. Kelajakda asosiy pensiya tizimi sifatida qabul qilingan pensiya ta'minotining taqsimot printsiplaridan voz kechish.

2. Aksariyat davlatlarda mavjud bo'lgan birdamlik va jamg'arish printsiplarini o'zida mujassamlashtiradigan uch darajali pensiya ta'minoti tizimiga o'tkazish.

3. Pensiya tizimini qurish uchun asosiy printsiplari sifatida - jamg'arish printsiplarini tanlash.

4. Ixtiyoriy pensiya ta'minoti va sug'urtasini hamda tegishli institutlarni rivojlantirish.

Pensiya tizimlari mushkul ahvolda qolgan ayrim mamlakatlarda Jahon banki bevosita faol xarakter olib bormoqda. Bankning ishtiroki ikki shaklda o'z ifodasini topadi: birinchisi-tarkibiy qayta tashkil etish uchun qarzlarni ajratish; ikkinchisi-investitsiya qarzlari. Ushbu ikki yordam turining asosiy maqsadi, mamlakat budjetiga tushumlarni yig'ish, to'lovlar va tartibga solish nazorati bo'yicha hukumat faoliyatini zamonaviylashtirishda hamda yangilashda yordam ko'rsatishdan iborat. Quyida biz jahonning rivojlangan va shu bilan bir qatorda o'ziga hos pensiya ta'minotiga ega davlatlar amaliyoti bilan tanishib chiqishni o'rinli deb bildik.

2011-yildan boshlab Chexiyada «Kichik pensiya islohoti» deb nom olgan jarayon boshlandi. U taqsimlash pensiya tizimining ba'zi o'lchamlarini hozirgi kungacha o'zgartirib kelmoqda. Bunga ko'ra yaqin kelajakda erkaklar, farzandsiz ayollar va bir bolali ayollar uchun pensiyaga chiqish chegarasi 65 yosh, ikkita bolali ayollar uchun 64 yosh, uch bolali ayollar uchun 63 yosh, to'rt va undan ortiq farzandli ayollar uchun 62 yosh etib hisoblanishi belgilab qo'yildi. Hamda bunga qo'shimcha ravishda, erkaklar va ayollar uchun bir yilda ikki oyga cho'ziluvchi yoshga doir pensiya tizimi aholi qatlamiga singdirib borilmoqda. Bunga ko'ra, 1977-yilda tug'ilgan shaxslar 67 yoshida, 1989-yilda tug'ilganlar 69 yoshda, 1995 yildagilar 70 yoshda va h.k. pensiyaga chiqadilar.

Chexiyada hozirgi kunga kelib sug'urta badallari to'lashning o'rtacha davri 42 yilni tashkil qiladi. Biroq budjetni qat'iy tejash vazifalaridan kelib chiqib endilikda mehnat stajiga oliy o'quv yurtida o'qigan vaqt qo'shilmaydi.

Jahonning iqtisodiy jixatdan qudratli mamlakatlaridan biri sanalgan, BMT ma'lumotlariga ko'ra, hayot sifatining umumiy ko'rsatkichi jihatidan birinchi o'ringa chiqqan mamlakat - Yaponiyaning ijtimoiy ta'minot tizimi, uning aholisi pensiyalar hamda sog'liqni sug'urta qilish bilan keng qamrab olinganligi, kam ta'minlangan va ijtimoiy himoya qilinmagan aholiga adresli yordam ko'rsatilishi, ijtimoiy ta'minot tizimiga mamlakatdagi vaziyatda yuz bergan o'zgarishlarga qarab tuzatishlar kiritib borilishi va bu soxadagi asosiy vazifalar belgilanishi kabi jixatlari alohida diqqatga sazovordir. Yaponiya ijtimoiy himoya tizimining ijobiy tomonlaridan O'zbekiston pensiya tizimini rivojlantirib borishda qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega bo'lgan bo'lar edi. Bugun barchalarimizga jahon tajribasidan bir narsa ma'lum bo'ldiki, pensiya tizimini faqat davlat tomonidan moliyalashtirish yetarli samara bermaydi. Hozirgi kunda pensiya tizimini moliyalashtirishning bir vaqtning o'zida uch yo'nalish:

- minimal pensiyani kafolatlaydigan davlat pensiya tizimi;
- professional assotsiatsiya yordamida o'zining ish beruvchilariga qo'shimcha pensiyani shakllantirish tizimi;

- fuqarolar imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda alohida, xususiy pensiyani ta'minlash tizimini yaratish belgilab olinishi lozim. AQSh, Gollandiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shveysariya, Italiya kabi mamlakatlar shu tajribalardan foydalanadilar.

Yuqoridagi chet el tajribalari va amaliyotda o'zini oqlagan pensiya tizimlaridan kelib chiqib, O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini xorij tajribasi asosida takomillashtirish bo'yicha quyidagi taklif-tavsiyalarimizni shakllantirdik:

- davlat pensiya tizimini saqlab qolgan holda jamg'arish xususiyatlariga ega nodavlat pensiya institutlarini bosqichma-bosqich joriy etish;

- Respublikamizda yaqin kelajakdagi aholining demografik holati, jumladan mehnatga layoqatli aholi sonida pensiya yoshidagi aholining holatini doimiy kuzatish va tahlil qilish ishlarini yo'lga qo'yish, bu borada budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasida

pensiya yoshidagi aholini doimiy kuzatish va tahlil qilish bo'limini tashkil etish maqsadga muvofiq;

- Respublikamiz pensiya ta'minoti tizimida alohida soha xodimlari uchun pensiya va nafaqalar tayinlash me'yorlarini tartibga solish;

- fuqarolarni pensiyalarini tayinlashda ilg'or xorij tajribasidan kelib chiqqan holda, ularning sug'urta badaliga qo'shgan hissasiga mutanosib ravishda pensiya miqdorini belgilash tizimiga o'tish va uni rivojlantirish.

Bugungi kunga kelib iqtisodiy rivojlanish tendensiyasiga ega davlatlar iqtisodiyotida xususiy pensiya tizimlarining nufuzi tobora ortib bormoqda. Ushbu tizim mablag'lari davlat qarzi yoki budjet defitsitini qoplash uchun emas, balkim, eng ustuvor tarmoq hisoblangan ishlab chiqarishni investitsiyalar orqali moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda.

Nodavlat pensiya jamg'armalarining rivojlanishi nafaqat mamlakat iqtisodiyotining holatiga, balki uzoq vaqt davomida shakllangan davlatning pensiya tizimiga ham bog'liqdir. O'z navbatida, rivojlangan mamlakatlarda nodavlat pensiya jamg'armalari mablag'lari bevosita tijorat banklarida muddatli depozitlarni shakllantirishda asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda ham nodavlat pensiya jamg'armalari faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish orqali tijorat banklarining uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlash imkoniyatlari mavjud.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida pensiya sug'urtasi va ta'minotining nodavlat sektori ikkita jamiyat uchun muhim funksiyalarni bajaradi: pensiya yoshidagi shaxslarni turmush darajasini oshirishni ta'minlaydi va pensiya jamg'armalari mablag'larini mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalash uchun jamlaydi. Qo'shimcha pensiyani olish davlat pensiyasini olishni rad etmaydi, balki uni to'ldiradi. Davlat pensiya ta'minotidan farqli o'laroq, qo'shimcha pensiya ta'minotiga ajratmalar ixtiyoriydir. Qo'shimcha pensiyalar shahsiy istaklar va moliyaviy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda shakllanadi, pensiya yoshiga chiqqandan keyin turmush darajasiga real ta'sir etish imkonini beradi. Undan tashqari, nodavlat pensiyalari mehnat faoliyati tugashi bo'yicha moddiy ta'minlanganlik summaviy darajasini aniqlashda tarmoq va hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi.

Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, jamg'ariladigan Pensiya fondlari aktivlarining asosini qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar tashkil etadi. Xususiy pensiya fondlari pul mablag'larini uzoq muddatga joylaydi, xususiy va davlat qimmatli qog'ozlarini sotib oladi. Xususiy pensiya fondi passiv operatsiyalari asosini korporatsiya va korxonalaridan keladigan resurslar tashkil etadi, tushumning 20-30 foizi ishchi va xizmatchilar badallaridan iborat.

Ekspertlarning hisob-kitobi bo'yicha qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlarning bir foiz oshishi to'lanadigan pensiyalar miqdorini bir necha foiz oshirishga imkon beradi. Boshqacha qilib aytganda, qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun ajratilgan mablag'lar o'sha qimmatli qog'ozlarni hozirgi real qiymati bo'yicha sotilgandan so'ng fuqarolarga pensiya ko'rinishida qaytariladi.

Iqtisodiyotning ishlab chiqarish sohasi uchun uzoq muddatli sarmoya yetishmasligi va unga keskin ehtiyoj mavjud sharoitda xususiy pensiya fondlari birinchidan, uzoq muddatli kreditlash fondlarini oshirish imkonini bersa, ikkinchidan, bunday tuzilmalarning yaratilishi budjetning ijtimoiy ta'minot xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Pensiya ta'minotining xususiylashtirish dasturi iqtisodiyotga investitsiyalarning ichki imkoniyatlarini taqdim etadi. Kapital bozori rivojlanishi, pensiya fondlari pullarini investitsiya qiladigan moliyaviy dastaklarini taqdim etish uchun juda muhim. Shu tarzda iqtisodiyotga investitsiyalarni yo'naltirish jarayonida davlat, jamg'arilgan va xususiy pensiya ta'minotini moliyalashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

## 7-MAVZU: AQSH VA KANADA PENSIYA TIZIMI

### Reja:

7.1.AQSH pensiya ta'minoti tizimi.

7.2.Kanada pensiya ta'minoti tizimi.

7.3.O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimini boshqa evropa davlatlari xorij tajribasi asosida takomillashtirish masalalari


**TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:** AQSH pensiya ta'minoti tizimi, Kanada pensiya ta'minoti tizimi, Xalqaro Mehnat tashkiloti, Aholini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy ta'minot, pensiya tizimlari modellari, xalqaro mehnat tashkiloti, avlodlar birdamligi, xorijiy mamlakatlar pensiya tizimlari, pensiya ta'minoti tizimi, davlatning ijtimoiy siyosati, pensiya ta'minoti, davlat budjeti, davlat pensiya tizimi, nodavlat pensiya tizimi, davlat maqsadli jamg'armalari, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, xalqaro moliya munosabatlari, byudjet tizimi, xalqaro moliya.

### 7.1.AQSH pensiya ta'minoti tizimi.

Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh) pensiya ta'minoti tizimi ideal bo'lmasada, dunyodagi eng mukammal tizimlardan biri hisoblanadi. Pensiya miqdorlari esa Yevropa mamlakatlarining o'rtacha pensiya miqdoridan yuqori.

“HelpAge” reytingida AQSh sakkizinchi o'rinni egallaydi.

AQSh pensiya tizimi taqsimlovchi va jamg'ariluvchi tamoyillar asosida ishlovchi davlat va xususiy pensiya tizimlaridan iborat (1-rasm). Shuning evaziga amerikaliklar o'zlarini bir emas uchta, ya'ni davlat, xususiy korporativ va shaxsiy individual pensiyalar bilan ta'minlashi mumkin.



7.1 - rasm. AQSh pensiya tizimi tuzilishi <sup>45</sup>

<sup>45</sup> Геннадий Залко. Американский опыт пенсионного обеспечения. Рынок ценных бумаг №17 (272), 2007.

Davlat pensiya fondiga to'lovlar quyidagi miqdorlarda to'lanadi:

- Ishchining yillik daromadi 65400\$ gacha bo'lsa – 7,65 foiz. Bu soliq ikki qismdan iborat: 6,20 foiz - qariyalar, bevalar, yetimlar va nogironlarni pensiya bilan ta'minlash uchun majburiy sug'urta - "Retirement, survivors and disability insurance"; 1,45 foiz - qariyalarni tibbiy ta'minlash uchun soliq - "Hospital Insurance".

- 65400\$ dan ortiq miqdordagi yillik daromaddan faqat "Hospital insurance" solig'i (1,45%) undiriladi. Albatta bunday katta daromadli shaxslar soni uncha ko'p emas.

- Ish beruvchilar ham davlatga ishchilar bilan teng miqdorda ya'ni 7,65% soliq to'laydi; shunday qilib, to'langan ish haqining har 100\$ iga Umumiy federal dasturga 15 \$ ga yaqin soliq kelib tushadi.

- Yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanadigan, ya'ni ish beruvchiga ega bo'lmagan shaxslar pensiya solig'ining ikkala qismini, ya'ni jami 15,3 foizni to'laydi.

Davlat pensiya tizimida pensionerlar hozirda ishlayotgan va muayyan pensiya fondlariga badallar to'layotgan ishchilar hisobiga ta'minlanadi (1-jadval). AQSHning "Umumiy federal dastur" (Social Security) deb nomlangan va iqtisodiyotning xususiy sektorida band bo'lganlarning deyarli barchasini qamrab olgan yirik davlat pensiya tizimi qayta taqsimlash tamoyili asosida qurilgan. Dastur 1935-yilgi "Ijtimoiy sug'urta to'g'risida"gi Qonunga ko'ra amal qiladi va mamlakatda minimal pensiya ta'minotini kafolatlaydi.

1 – jadval

**AQSh "Umumiy federal dastur"ini moliyalashtirish <sup>46</sup>**

Yillar	Soliq olinuvchi maksimal ish haqi (ming.dollar yiliga)	Sug'urta badali normasi (%), ish beruvchi va ishchidan alohida
1937	3,0	1,0
1970	7,8	4,2
2000	76,2	6,2
2014	117,0	6,2

Jamg'arish tamoyili asosida ishlovchi davlat pensiya ta'minoti mamlakat hukumatining amaldorlari va harbiy xizmatchilarni qamrab oladi.

Korporativ pensiya olish huquqi hodimning kompaniyadagi ish staji 5-10 yil bo'lganida paydo bo'ladi.

Jamg'arishga asoslangan pensiya dasturlarining ikki turi mavjud:

1. Belgilangan to'lovlar bo'yicha ("defined benefit plan");
2. Belgilangan badallar bo'yicha ("defined contribution plan").

Belgilangan to'lovlar dasturi bo'yicha jamg'armalar - ish beruvchilarning ajratmalari orqali moliyalashtiriladi, ishlovchilar bu fondlarga badallar to'lamaydi.

Belgilangan badallar dasturi bo'yicha jamg'armalar esa ish beruvchilar va ishchilar tomonidan teng miqdordagi ajratmalar o'tkazish orqali shakllantiriladi.

Har bir amerikalik tijorat va omonat banklarida o'zining shaxsiy pensiya hisob raqami (IRA-individual retirement account)ni ochish huquqiga ega. Shaxsiy pensiya hisob raqamlariga o'tkaziladigan yillik badallarning yuqori chegarasi 2000\$ miqdorida belgilangan. Hisob raqamdagi mablag'larni 59,5 yoshga etgunga qadar yechish mumkin emas, 79,5 yoshdan keyin esa hisob majburiy tartibda yopiladi.

Pensiya olish huquqi 65,5 yoshda paydo bo'lib, talab qilinuvchi minimal ish staji 10 yilni tashkil etadi. AQShda o'rtacha davlat pensiyasi miqdori oyiga 1100\$-1200\$ ni tashkil etadi.

<sup>46</sup> OASDI Trustees Reports 1978-2015

Bugunga kelib, o'rtacha umr ko'rish yoshining uzayishi natijasida, AQSh hukumati pensiya yoshini bosqichma bosqich 67 yoshga ko'tarish ishlarini boshladi.

*Ushbu tizim 1935-yilda joriy qilingan bo'lib, uning xarajatlarini qoplash manbai milliy sug'urta fondi hisoblanadi. Mazkur fond mamlakat federal budjeti tarkibiga kiradi. Qarilik pensiyasi 65 yoshdan boshlab to'lana boshlaydi. Pensiya tayinlash uchun 40 kvartal yoki 10 yilga teng bo'lgan, sug'urta badallari to'langan minimal staj talab qilinadi. Pensiya miqdori 22 yoshdan 62 yoshgacha bo'lgan davrdagi o'rtacha daromad miqdoridan hisoblab chiqiladi. Bunda eng kam daromad olingan 5 yil chegirib tashlanadi.*<sup>47</sup>

*AQSH da Federal hukumat xizmatchilari 65.400 dollargacha bo'lgan miqdordagi yillik daromadga ega bo'lgan shahslar 7,65 foizdan iborat stavka bo'yicha «Pensiya solig'i» ni to'laydilar. Bu soliq ikki qismda iborat: 6.20% - pensiya solig'i bo'lib, qariyalar, bevalar, yetimlar va nogironlarni pensiya bilan ta'minlash uchun majburiy sug'urta badali sifatida undiriladi. Qolgan 1,45% qismi qariyalarni tibbiy ta'minlash uchun soliq sifatida undiriladi.*

*AQSh Kongressi a'zolari Kongress pensiya tizimi doirasida, Kongressda besh yil ishlaganidan keyin eng ko'p maoshli ketma-ket kelgan uch yil uchun o'rtacha yillik maoshning 8,5% miqdorida pensiya olishlari mumkin. Staj 20 yil bo'lsa, kongressmen 50 yoshida pensiyaga chiqishi va yuqorida ko'rsatilgan maoshning 34% miqdorida pensiya olishi, agar staj 25 yil bo'lgan taqdirda istalgan yoshda pensiyaga chiqishi mumkin. Bu holda pensiya maoshning 39% ni tashkil etadi.*

*Xususiy sektor xodimlarining ijtimoiy sug'urta tizimi bo'yicha pensiya ta'minoti kongressmenlar va federal xizmatchilarning ijtimoiy sug'urta tizimi bo'yicha pensiya ta'minoti bilan bir xil shartlarda amalga oshiriladi. Xususiy tarmoqlardagi ishlovchilarning ish staji 5 yil bo'lsa, xodim 65 yoshda, ish staji 10 yil bo'lsa, 55 yoshda pensiyaga chiqishi mumkin. 65 yoshgacha pensiyaga chiqilgan taqdirda, pensiyaga chiqish va 65 yoshga to'lish oralig'idagi davrning har bir yili uchun pensiya 4 % ga kamayib boradi. Pensiyani hisoblash uchun asos sifatida eng ko'p maoshli ketma-ket kelgan besh yilda olingan o'rtacha yillik maoshdan foydalaniladi*<sup>48</sup>.

AQSHdagi investitsiya jarayonida Pensiya fondining hal qiluvchi roli mavjud. Yigirmanchi asrning boshlarida, dastavval yirik korporatsiyalar va firmalar tomonidan tashkil qilingan ilk xayriya fondlari paydo bo'ldi. Mazkur xayriya fondlari va loyihalar quyidagi shakllarda qo'llab-quvvatlandi: subventsiyalar, grantlar, subsidiyalar ajratish, byudjet kreditini berish, byudjetdan moliyalashtirish. Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida moliyaviy tizimni ijtimoiy va iqtisodiy fondlar majmuisiz tavsiflab bo'lmaydi, ularning aksariyati ijtimoiy sohaning ustuvor yo'nalishlarda muhim o'rin tutadi.

Keyingi yillarda AQSH da ijtimoiy dasturlarning amalga oshirish uchun turli darajada boshqariladigan ko'p sonli ijtimoiy fondlar faoliyat ko'rsatadi. Bulardan uchta eng yirik fondlarni ko'rsatish mumkin. «Qarilikni, nogironlikni va boquvchini yo'qotganda sug'urtalash fondi», «Davlat xizmatchilarini sug'urtalash fondi», «Muxtojlariga yordam fondi» mavjud. Fan-texnikani yanada taraqqiy etishi natijasida, sanoatda ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlovchi va shu yo'nalishdagi turli tadqiqotlarni amalga oshiruvchi davlat ilmiy markazlarini ta'minlashga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot jamg'armalari tashkil qilish zaruriyati tug'ildi.

SHunga ko'ra ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda turli ilmiy, jamg'armalar tashkil qilingan bo'lib, ular federal byudjet tushumlari, sanoat korxonalarini foydalaridan ajratmalar, shu bilan birga universitet va kollejlardan tushadigan badallar hisobidan shakllanadi. Bu jamg'arma fundamental tadqiqotlar bo'yicha turli dasturlar, ilmiy darajaga erishganlik uchun mukofotlar, ilmiy markazlar qurish, kadrlar tayyorlash, tajriba o'tkazuvchi kompaniyalar

<sup>47</sup> Michael Sherraden. Inclusion in the American Dream: Assets, Poverty, and Public Policy. 13 chapter. P. 285

<sup>48</sup> Brady, Peter, Kimberly Burham, and Sarah Holden. 2012. The Success of the U.S. Retirement System (December). Washington, DC: Investment Company Institute.



faoliyati va unda olingan natijalarni sanoat va qishloq xo'jaligida qo'llash va boshqa shu kabi sohalarni moliyalashtirishni ko'zda tutadi.

Buyuk Britaniyada davlat byudjetiga bog'liq bo'lmagan va alohida mustaqil balansga ega bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish «Milliy korporatsiya fondi» mavjud. Uning mablag'lari yangi ixtirolarni ishlatish huquqi beradigan litsenziyani sotishdan tushgan mablag'lar hisobiga shakllanadi. Davlat fondga muddatsiz avanslar va har yili subsidiyalar beradi. U ilmiy tekshirish natijalarini ishlab chiqarishga tadbiriq etayotgan xususiy korxonalarini kapital qo'yilmalarini va unga bog'liq muammolarni hal qilish xarajatlarini moliyalashtiradi.

Davlat maqsadli jamg'armalarning xorij tajribasidan kelib chiqqan holda taklif qilinmoqdaki, respublikada ilmiy ishlarni amalda tadbiriq etishni qo'llab-quvvatlovchi byudjetdan tashqari jamg'arma tashkil qilish va g'aznachilikda boshqarish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Germaniyada ijtimoiy sug'urta fondi tarkibida juda ko'p avtonom fondlar bor, ular ijtimoiy sug'urtaning alohida turlarini qamrab oladi. «Ishchi va xizmatchilarning pensiya fondi», «Bemorligi uchun sug'urta fondi», «Ishsizlikdan sug'urtalash fondi». Buyuk Britaniyada ikkita asosiy ijtimoiy fond mavjud: «Milliy sug'urtalash fondi» va «Davlat tashkilotlarining pensiya fondi».

Rossiya Federatsiyasida ijtimoiy fondlar qatoriga «Nafaqa jamg'armasi», «Majburiy ijtimoiy sug'urtalash jamg'armasi», «Davlat aholi bandligi jamg'armasi», «Majburiy tibbiy sug'urtalash jamg'armasi» kiradi. Iqtisodiy jamg'armalar jumlasiga «Yo'l jamg'armasi», «Mineral-xomashyo bazasini takror ishlab chiqarish jamg'arma»si kiradi.

CHili eski pensiya tizimini isloh qilishni yangi tizimga o'tish bilan bir vaqtda olib borgan mamlakatlardan biridir. Asosiy muammo shunda ediki, davlat pensiya ta'minoti bo'yicha qarzlarni yangi xususiy majburiy jamg'armalarni tashkil qilish bilan bir qatorda davlat pensiya fondiga tushumlarni qisqartirish sharoitida olib borishi kerak edi. Ijtimoiy ta'minot doirasidagi qarzarlar o'z ichiga yangi tizim joriy etgan vaqtda pensiyaga chiqqanlarning pensiyasini (1 kategoriya), hali pensiyaga chiqmagan, lekin yaqinda isloh qilingan eski tizim ishtirokchilari sifatida qolishni istagan ishlovchilarning pensiyasini (2 kategoriya), yangi tizim ishtirokchilari bo'lishga qaror qilgan ishlovchi aholining pensiyasini (3 kategoriya) o'z ichiga oladi. Uchinchi kategoriya pensiyasi bo'yicha pensiyalar masalasi pensiya obligatsiyalarini chiqarish yo'li bilan hal etiladi. Ushbu obligatsiyalar kafolatli hisoblandi, 4% miqdorida foyda keltiradi va egalari pensiyaga chiqqandan so'ng majburiy tartibda ochiladigan jamg'arma hisob raqamlariga o'tkaziladigan bir vaqtda to'lov summalariga almashtirilishi mumkin. Chili hukumati ushbu tadbiriq o'tkazish bilan 70-80 yillar davlat byudjetidagi byudjet taqchilligining katta qismini pensiya tizimi doirasidagi islohotlar natijasida qopladi.

Yangi pensiya tizimini tashkil etishda jahonga mashhur Germaniya va Chili modellari andoza sifatida tanlanmoqda. Pensiya ta'minotining ikki bazaviy modeli taqsimot-tortiluvchi va kapitallashgan modellaridir. Mashhur venger iqtisodchisi Ya. Kornai taqsimot va kapitallashgan pensiya tizimlari o'rtasidagi farqlar mohiyatini asoslab berdi. Ular o'rtasidagi farq qisman moliyalashtirish texnikasida yuzaga chiqadi. Taqsimot modeli pensionerlarni hozirgi vaqtda amalda bo'lgan aholining iqtisodiy faol qatlami hisobiga ta'minlaydi. Pensiya tizimining kapitallashgan modeli taqsimotdan farqli ravishda insonning o'z mehnati va pensiya jamg'arilishi natijalari bilan uzviy bog'liq.

Germaniyada taqsimot pensiya tizimi 1891 yilda joriy qilingan bo'lib, o'sha davrdan hozirgacha uning turli ko'rinishlari Yevropa mamlakatlari va MDH davlatlarida qo'llanilmoqda. Germaniyaning pensiya tizimidagi taqsimot-tortiluvchi modeli sxemasiga ko'ra aholining iqtisodiy faol qatlami tomonidan to'langan majburiy pensiya badallari hisobidan pensiya xarajatlari shakllanadi va aholining iqtisodiy faol qatlamlari o'rtasida taqsimlanadi. Boshqacha qilib aytganda, joriy pensiya xarajatlari joriy daromadlar hisobidan qoplanadi. Ushbu tizim avlodlar birdamligi asosida qurilgan, bir avlod ichida, daromadlar

aholining alohida ijtimoiy guruhlari o`rtasida tabaqalandi. Chilidagi kapitallashgan model bozor islohotlari doirasida Chili mutaxassislari tomonidan ishlab chiqildi. 1981 yilda e`lon qilingan farmonga ko`ra, mehnat munosabatlarida ishtirok etgan har bir kishi xususiy pensiya fondlarining mijoziga aylandi. Kapitallashgan model sxemasi quyidagicha: pensiya badallarini investitsiya qilishdan va to`plashdan hosil bo`lgan kapital pensiya xarajatlarini qoplashga yo`naltiriladi. Pensiya badallari kapital to`lovchining shaxsiy hisob raqamida hisobga olib boriladi. Ushbu hisobraqamni pensiya fondlari yoki pensiya kassalari, sug`urta kassalari yoki banklar yuritadi.

Umumiy xulosa qilinganda xorij tajribasi bo`yicha quyidagi xulosalar shakllantirish mumkin:

Ilg`or xorij tajribasida shakllanayotgan yangi pensiya tizimi uch darajani o`z ichiga oladi. Birinchidan, qayta taqsimlash uchun davlat tomonidan boshqarilishi shart bo`lgan va majburiy to`lovlar hisobidan mablag` bilan ta`minlanadigan daraja; ikkinchidan, jamg`armalar uchun majburiy xususiy tarzda boshqariladigan va to`la jamg`ariladigan daraja; uchinchidan, keksaydanda ko`proq himoyalangan bo`lishni xoxlovchi kishilar uchun ixtiyoriy daraja, pensiya fondidan iborat.

– xorij tajribasini respublikamizda ijodiy qo`llash maqsadida aholi turmush darajasi orta borgani sari asta-sekin ijtimoiy to`lovlar og`irligini ishchi beruvchi zimmasidan yollanma ishchilarga o`tkazish lozim. Ya`ni amaldagi 90:10 nisbatan istiqbolda 50:50 o`tkazish lozim.

### ***7.2.Kanada pensiya ta'minoti tizimi.***

O`zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda yangicha amaliy va samarali shakllarni qo`llashni talab etadi. Jahon tajribasining ko`rsatishicha, davlatning byudjetdan tashqari fondlar tizimi, xususan Pensiya jamg`armasi faoliyatini yo`lga qo`yish va undan samarali foydalanish muhim o`rin tutadi. Xorijiy mamlakatlar moliya tizimida mazkur fondlarning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalari mavjud. Davlat bu fondlarning mablag`lari bilan ishlab chiqarish jarayoniga aralashadi, tashkilot va muassasalarga kreditlar va subsidiyalar beradi, ijtimoiy siyosat chora-tadbirlarini moliyaviy ta`minlaydi, shuningdek, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko`rsatadi. Byudjetdan tashqari maqsadli fondlarning izchil faoliyati natijasida aholi kuchli ijtimoiy himoya qilinishi bilan birga, iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari ham rivojlantiriladi.

Mazkur markazlashgan jamg`armalar ishlatilish maqsadlariga ko`ra, iqtisodiy, ilmiy-tadqiqot, kredit, ijtimoiy, xarbiy, siyosiy yoki davlatlararo rivojlantirish bo`yicha davlat dasturlari asosida faoliyat yurituvchi fondlarga bo`linishi mumkin. Xorijiy mamlakatlaridagi fondlar pensiya fondlari, davlat ijtimoiy sug`urta fondlari, majburiy tibbiy xizmat ta`minoti fondlari, aholi bandligi fondlari ko`rinishida ifodalanadi. Fondlarning miqdori doimo o`zgarib boradi, ba`zilari tashkil etiladi, ba`zilari esa tugatiladi.

Umuman olganda, xorijiy mamlakatlarda fondlarning sonining oshishi va hajmining kattalashishi an`anasi kuzatiladi. Ko`pgina mamlakatlarda maxsus fondlarning ko`payib ketishi ma`lum moliyaviy noqulayliklarni keltirib chiqardi va ularni boshqarishda qo`shimcha xarajatlar qilishga to`g`ri keldi. Shuning uchun fondlarni boshqarish g`aznachilik organlariga beriladi. Bu fondlar hajmining kengayishiga bir qator sabablar mavjud. Birinchidan, jahon moliyaviy inqirozi sharoitida davlat organlarida tadbirkorlikning ho`jalik hayotiga aralashishi va ularni moliyaviy ko`llab-quvvatlash uchun qo`shimcha mablag`larga zaruriyat tug`ildi. Ikkinchidan, bu fondlar byudjetdan mustaqil holda davlat tomonidan alohida e`tibor qaratilishi lozim bo`lgan muammolarni hal qilish uchun mo`ljallanadi. Uchinchidan, byudjetdan tashqari fondlar ma`lum sharoitlarda ya`ni aktiv qoldiqqa ega bo`lganda byudjet taqchilligini qoplash uchun ishlatilishi mumkin.

### **7.3.O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimini boshqa evropa davlatlari xorij tajribasi asosida takomillashtirish masalalari**

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida bozor munosabatlari chuqurlashib borgan sari pensiya tizimi eski tizimdan yangi ko'rinishga o'tib boradi. Bularning hammasi pensiya tizimini yanada chuqurroq o'rganishni talab qilgan holda, o'zgartirishlar kiritish zaruriyatini yaratadi. Ushbu zaruriyatni amaliyotda to'laqonli yechimini ta'minlash maqsadida O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimini xorij tajribasi asosida takomillashtirish muhim sanaladi. Uning nazariy, uslubiy va tashkiliy asoslarini tadqiq qilish va uni ta'minlash bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim sanaladi:

- ijtimoiy himoyaga nisbatan jahondagi mavjud yondashuvlarning mohiyati va ahamiyatini yoritish;
- xorijiy davlatlar pensiya ta'minotidagi islohotlarning maqsadi, vazifalari va o'ziga xos xususiyatlarini yoritish;
- misollarda keltirilgan davlatlar pensiya ta'minoti tizimining hozirgi holatini tahlil etish, undagi ijobiy xususiyatlarini tizimlashtirish;
- O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimining hozirgi holatini tahlil etish va mavjud muammolarini tadqiq etish;
- Respublikamiz pensiya ta'minoti tizimida xorijiy davlatlar ijobiy tajribalaridan foydalanish istiqbollari tadqiq etish va ilmiy asoslash;
- jahon pensiya tizimidagi islohotlar sharoitida O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimini samarali tashkil etish yo'llari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, ularni nazariy jihatdan asoslash.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarining pensiya tizimidagi asosiy muammolari sifatida pensiyaga chiqish yoshining barvaqtligi, budjetga daromadlarning to'liq tushmasligi, pensiya to'lovlari uchun xarajatlarning kattaligi, imtiyozli pensiyalarni mavjudligi, pensiyalarga inflyatsiyaning ta'siri kabi ko'rsatkichlar ko'riladi. Boshqacha qilib aytganda, aholining qarishi, tug'ilishining pasayishi kabi demografik muammolar aholining faol qismi bilan pensionerlar o'rtasidagi nisbatni buzilishiga olib kelsa, inflyatsiyaning yuqori darajasi esa, ishsizlikni ko'payishi, davlat budjeti taqchilligi kabi iqtisodiy omillar kuchli ta'sir etishiga sabab bo'ladi.

Islohotlar jarayonida pensiya xizmati darajasini ko'tarish, buning uchun qo'shimcha zaxiralarni jalb etish, pensiya tizimlarining moliyaviy mustahkamlanishini ta'minlash, ishchining pensiyasini bevosita uning o'z mehnati bilan qo'shgan hissasiga bog'lash hamda ishchilar o'zining pensiya budjetini shakllantirishdan manfaatdorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutish zaruriydir.

Pensiya tizimini isloh qilish davomida Hamdo'stlik davlatlari, xususan, Respublikamiz siyosati quyidagi printsiplar asosida tashkil etilishi kerak:

5. Kelajakda asosiy pensiya tizimi sifatida qabul qilingan pensiya ta'minotining taqsimot printsiplaridan voz kechish.

6. Aksariyat davlatlarda mavjud bo'lgan birdamlik va jamg'arish printsiplarini o'zida mujassamlashtiradigan uch darajali pensiya ta'minoti tizimiga o'tkazish.

7. Pensiya tizimini qurish uchun asosiy printsiplari sifatida - jamg'arish printsiplarini tanlash.

8. Ixtiyoriy pensiya ta'minoti va sug'urtasini hamda tegishli institutlarni rivojlantirish.

Pensiya tizimlari mushkul ahvolda qolgan ayrim mamlakatlarda Jahon banki bevosita faol xarakter olib bormoqda. Bankning ishtiroki ikki shaklda o'z ifodasini topadi: birinchisi-tarkibiy qayta tashkil etish uchun qarzlarni ajratish; ikkinchisi-investitsiya qarzlari. Ushbu ikki yordam turining asosiy maqsadi, mamlakat budjetiga tushumlarni yig'ish, to'lovlarni va tartibga solish nazorati bo'yicha hukumat faoliyatini zamonaviylashtirishda

hamda yangilashda yordam ko'rsatishdan iborat. Quyida biz jahonning rivojlangan va shu bilan bir qatorda o'ziga hos pensiya ta'minotiga ega davlatlar amaliyoti bilan tanishib chiqishni o'rinli deb bildik.

2011-yildan boshlab Chexiyada «Kichik pensiya islohoti» deb nom olgan jarayon boshlandi. U taqsimlash pensiya tizimining ba'zi o'lchamlarini hozirgi kungacha o'zgartirib kelmoqda. Bunga ko'ra yaqin kelajakda erkaklar, farzandsiz ayollar va bir bolali ayollar uchun pensiyaga chiqish chegarasi 65 yosh, ikkita bolali ayollar uchun 64 yosh, uch bolali ayollar uchun 63 yosh, to'rt va undan ortiq farzandli ayollar uchun 62 yosh etib hisoblanishi belgilab qo'yildi. Hamda bunga qo'shimcha ravishda, erkaklar va ayollar uchun bir yilda ikki oyga cho'ziluvchi yoshga doir pensiya tizimi aholi qatlamiga singdirib borilmoqda. Bunga ko'ra, 1977-yilda tug'ilgan shaxslar 67 yoshida, 1989-yilda tug'ilganlar 69 yoshda, 1995 yildagilar 70 yoshda va h.k. pensiyaga chiqadilar.

Chexiyada hozirgi kunga kelib sug'urta badallari to'lashning o'rtacha davri 42 yilni tashkil qiladi. Biroq budgetni qat'iy tejash vazifalaridan kelib chiqib endilikda mehnat stajiga oliy o'quv yurtida o'qigan vaqt qo'shilmaydi.

Jahonning iqtisodiy jixatdan qudratli mamlakatlaridan biri sanalgan, BMT ma'lumotlariga ko'ra, hayot sifatining umumiy ko'rsatkichi jihatidan birinchi o'ringa chiqqan mamlakat - Yaponiyaning ijtimoiy ta'minot tizimi, uning aholisi pensiyalar hamda sog'liqni sug'urta qilish bilan keng qamrab olinganligi, kam ta'minlangan va ijtimoiy himoya qilinmagan aholiga adresli yordam ko'rsatilishi, ijtimoiy ta'minot tizimiga mamlakatdagi vaziyatda yuz bergan o'zgarishlarga qarab tuzatishlar kiritib borilishi va bu soxadagi asosiy vazifalar belgilanishi kabi jixatlari alohida diqqatga sazovordir. Yaponiya ijtimoiy himoya tizimining ijobiy tomonlaridan O'zbekiston pensiya tizimini rivojlantirib borishda qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega bo'lgan bo'lar edi. Bugun barchalarimizga jahon tajribasidan bir narsa ma'lum bo'ldiki, pensiya tizimini faqat davlat tomonidan moliyalashtirish yetarli samara bermaydi. Hozirgi kunda pensiya tizimini moliyalashtirishning bir vaqtning o'zida uch yo'nalish:

- minimal pensiyani kafolatlaydigan davlat pensiya tizimi;
- professional assotsiatsiya yordamida o'zining ish beruvchilariga qo'shimcha pensiyani shakllantirish tizimi;
- fuqarolar imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda alohida, xususiy pensiyani ta'minlash tizimini yaratish belgilab olinishi lozim. AQSh, Gollandiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shveysariya, Italiya kabi mamlakatlar shu tajribalardan foydalanadilar.

Yuqoridagi chet el tajribalari va amaliyotda o'zini oqlagan pensiya tizimlaridan kelib chiqib, O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini xorij tajribasi asosida takomillashtirish bo'yicha quyidagi taklif-tavsiyalarimizni shakllantirdik:

- davlat pensiya tizimini saqlab qolgan holda jamg'arish xususiyatlariga ega nodavlat pensiya institutlarini bosqichma-bosqich joriy etish;
- Respublikamizda yaqin kelajakdagi aholining demografik holati, jumladan mehnatga layoqatli aholi sonida pensiya yoshidagi aholining holatini doimiy kuzatish va tahlil qilish ishlarini yo'lga qo'yish, bu borada budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasida pensiya yoshidagi aholini doimiy kuzatish va tahlil qilish bo'limini tashkil etish maqsadga muvofiq;
- Respublikamiz pensiya ta'minoti tizimida alohida soha xodimlari uchun pensiya va nafaqalar tayinlash me'yorlarini tartibga solish;
- fuqarolarni pensiyalarini tayinlashda ilg'or xorij tajribasidan kelib chiqqan holda, ularning sug'urta badaliga qo'shgan hissasiga mutanosib ravishda pensiya miqdorini belgilash tizimiga o'tish va uni rivojlantirish.

Bugungi kunga kelib iqtisodiy rivojlanish tendensiyasiga ega davlatlar iqtisodiyotida xususiy pensiya tizimlarining nufuzi tobora ortib bormoqda. Ushbu tizim mablag'lari davlat qarzi yoki budget defitsitini qoplash uchun emas, balkim, eng ustuvor

tarmoq hisoblangan ishlab chiqarishni investitsiyalar orqali moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda.

Nodavlat pensiya jamg'armalarining rivojlanishi nafaqat mamlakat iqtisodiyotining holatiga, balki uzoq vaqt davomida shakllangan davlatning pensiya tizimiga ham bog'liqdir. O'z navbatida, rivojlangan mamlakatlarda nodavlat pensiya jamg'armalari mablag'lari bevosita tijorat banklarida muddatli depozitlarni shakllantirishda asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda ham nodavlat pensiya jamg'armalari faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish orqali tijorat banklarining uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlash imkoniyatlari mavjud.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida pensiya sug'urtasi va ta'minotining nodavlat sektori ikkita jamiyat uchun muhim funksiyalarni bajaradi: pensiya yoshidagi shaxslarni turmush darajasini oshirishni ta'minlaydi va pensiya jamg'armalari mablag'larini mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalash uchun jamlaydi. Qo'shimcha pensiyani olish davlat pensiyasini olishni rad etmaydi, balki uni to'ldiradi. Davlat pensiya ta'minotidan farqli o'laroq, qo'shimcha pensiya ta'minotiga ajratmalar ixtiyoriydir. Qo'shimcha pensiyalar shahsiy istaklar va moliyaviy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda shakllanadi, pensiya yoshiga chiqqandan keyin turmush darajasiga real ta'sir etish imkonini beradi. Undan tashqari, nodavlat pensiyalari mehnat faoliyati tugashi bo'yicha moddiy ta'minlanganlik summaviy darajasini aniqlashda tarmoq va hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi.

Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, jamg'ariladigan Pensiya fondlari aktivlarining asosini qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar tashkil etadi. Xususiy pensiya fondlari pul mablag'larini uzoq muddatga joylaydi, xususiy va davlat qimmatli qog'ozlarini sotib oladi. Xususiy pensiya fondi passiv operatsiyalari asosini korporatsiya va korxonalaridan keladigan resurslar tashkil etadi, tushumning 20-30 foizi ishchi va xizmatchilar badallaridan iborat.

Ekspertlarning hisob-kitobi bo'yicha qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlarning bir foiz oshishi to'lanadigan pensiyalar miqdorini bir necha foiz oshirishga imkon beradi. Boshqacha qilib aytganda, qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun ajratilgan mablag'lar o'sha qimmatli qog'ozlarni hozirgi real qiymati bo'yicha sotilgandan so'ng fuqarolarga pensiya ko'rinishida qaytariladi.

Iqtisodiyotning ishlab chiqarish sohasi uchun uzoq muddatli sarmoya yetishmasligi va unga keskin ehtiyoj mavjud sharoitda xususiy pensiya fondlari birinchidan, uzoq muddatli kreditlash fondlarini oshirish imkonini bersa, ikkinchidan, bunday tuzilmalarning yaratilishi budjetning ijtimoiy ta'minot xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Pensiya ta'minotining xususiylashtirish dasturi iqtisodiyotga investitsiyalarning ichki imkoniyatlarini taqdim etadi. Kapital bozori rivojlanishi, pensiya fondlari pullarini investitsiya qiladigan moliyaviy dastaklarini taqdim etish uchun juda muhim. Shu tarzda iqtisodiyotga investitsiyalarni yo'naltirish jarayonida davlat, jamg'arilgan va xususiy pensiya ta'minotini moliyalashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytib o'tishimiz mumkinki, mamlakatimizda pensiya ta'minoti tizimini jahon tajribalari asosida takomillashtirish istiqbolda pensiya yoshidagi aholi qatlamini sifatli kafolatlangan pensiya bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

## **8-MAVZU: CHILI VA ARGENTINA PENSIYA TIZIMI TAJRIBALARI**

### **Reja**

- 8.1. Lotin Amerikasi pensiya modelining kelib chiqishida chili modelining o'ri va ahamiyati
- 8.2. Chiliva Argentina pensiya tizimi islohotlari
- 8.3. Chili va Argentinada amalga oshirilgan pensiya sug'urtasi tizimi islohotlari natijalarining rivojlanayotgan mamlakatlarda, xususan o'zbekiston respublikasida qo'llash saboqlari.

**TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:** Lotin Amerikasi pensiya ta'minoti tizimi, Chili pensiya ta'minoti tizimi, sug'urtalangan shaxslar, xalqaro Mehnat tashkiloti, Aholini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy ta'minot, pensiya tizimlari modellari, xalqaro mehnat tashkiloti, avlodlar birdamligi, xorijiy mamlakatlar pensiya tizimlari, pensiya ta'minoti tizimi, davlatning ijtimoiy siyosati, pensiya ta'minoti, davlat budjeti, davlat pensiya tizimi, nodavlat pensiya tizimi, davlat maqsadli jamg'armalari, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, xalqaro moliya munosabatlari, byudjet tizimi, xalqaro moliya.

### **8.1. Lotin amerikasi pensiya modelining kelib chiqishida chili modelining o'ri va ahamiyati**

Chili pensiya islohotlari modeli pensiyalarni moliyalashtirishning eng yaxshi usuli sifatida e'tirof etiladi. Chili modeli misolidalotin amerikasidagi aksariyat davlatlarda, xususan, Argentina, Peru va Kolumbiya pensiya sug'urtasi tizimi isloh qilingan.

Chilida pensiya tizimi islohoti 1981 yilda A.Pinochet boshqaruvi davrida amalga oshirilgan. Chili tajribasidan foydalanish masalasini muhokama qilayotganda, Chilida islohotlar iqtisodiyotning jonlanish davrida amalga oshirilganligini inobatga olish zarur. Qulay iqtisodiy sharoitlar hukumatga pensiya islohotlarini sahiylik bilan moliyalashtirish imkonini berdi.

Chili fond bozori rivojlanishi ham shu davrga to'g'ri keldi, va pensiya fondlari rentabelligi yuqori darajada bo'lishiga sabab bo'ldi.

Islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirilishining muhim omili qulay demografik holat hisoblanadi. Chilida aholining 8% pensiya yoshida (Rossiyada - 16%) bo'lib, bitta pensionerga 12,8 band aholi to'g'ri kelar edi.

Chili islohotining o'ziga xos jihati shundaki, avvalgi tizimda mavjud bo'lgan orttirilgan pensiya huquqi o'rniga, kafolatlangan davlat to'lovlari va o'sha vaqtda tuzilgan bir necha xususiy raqobatchi kompaniyalar xodimlari uchun majburiy jamg'ariladigan sug'urta tizimi joriy etildi.

Yangi tizimning mohiyati yollanib ishlaydigan shaxslarni majburiy sug'urta qilishdan iborat. Xodimlar oylik ish haqlarining 10%ni ko'rsatilgan kompaniyalar (fondlar)ga to'laydilar. Erkaklar 65 yoshgacha va ayollar 60 yoshgacha majburiy sug'urta qilinadilar.

Sug'urtalangan shaxslar tanlagan fondlarini o'zgartirish huquqiga egalar, bunda ular jamg'arilgan kapitalga bo'lgan huquqlarini ham olib ketadilar. Tadbirkorlar (o'zini-o'zi band qilganlar) mazkur fondlarda ixtiyoriy ravishda sug'urtadan o'tishlari mumkin.

Pensiya ta'minotiga qo'shimcha ravishda xodimlar nogiron bo'lib qolish va boquvchisini yo'qotish holatlari uchun ham sug'urtalanishlari kerak, bunga oylik ish haqining 3% o'tkaziladi.

Sug'urtalangan shaxs pensiya yoshiga etganda tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. U jamg'arilgan kapitaldan sug'urta kompaniyasidan umrbod xususiy pensiya olish uchun foydalanishi, yoki kompaniya bilan "dasturlashtirilgan tarzda pulni hisobdan echish"ga kelishib, jamg'arilgan mablag'larning muayyan qismini muayyan muddat ichida olishlari mumkin. Sug'urtalangan shaxs, shuningdek, bir yo'la (bir vaqtning o'zida) pullarini olishi

ham mumkin, faqat bunda uning hisobida qolgan pul bazaviy miqdorning 120%dan va so'nggi (pensiya chiqishdan avvalgi) daromadining 70%dan kam bo'lmagan miqdorda pensiya olish uchun etarli bo'lishi kerak.

## 8.2. Chili va Argentina pensiya tizimi islohotlari

1924 yilda Lotin amerikasi mamlakatlari orasida Chili birinchilardan bo'lib pensiya sug'urtasi tizimida islohotlarni amalga oshirdi. Islohotlar natijasida davlat sug'urta tizimi tashkil etilib, bundan ko'zlangan maqsad keksalar, nogironlar va boquvchisini yo'qotganlarni sug'urtalash edi. 70-yillar oxirigacha Chilida PAYG-DB (Pay as you go defined benefit) tamoyiliga asosan tashkil etilgan pensiya tizimi amal qilgan, ya'ni davlat tomonidan boshqariladigan qisman moliyalashtiriladigan belgilangan to'lovlar tizimi. Biroq bu tizim moliya nuqtai nazaridan beqaror va samarali tashkillashtirilmaganligi, pensiya dasturlarini tartibga solish siyosati murakkab va chalkashligi ma'lum bo'ldi. Pensiya sug'urtasi tizimi siyosiy guruhlar tomonidan tartibga solinib, uning foydali jihatlari siyosiy afzalliklar nuqtai nazaridan hal qilingan. Aholining ayrim guruhlarining erta pensiyaga chiqishlari odatiy holga aylandi, masalan, bank xizmatchilari 25 yil ishlaganlaridan so'ng pensiyaga chiqishlari mumkin edi<sup>49</sup>[13]. Demografik o'zgarishlar va yuqori darajadagi ishsizlik Chili pensiya tizimining moliyaviy yukini oshirdi. Masalan, xodimlar va pensionerlar investitsiyalari nisbati 1955 yilda 12:01dan 1979 yilda 2,5:1ga qisqardi<sup>50</sup>[7]. Chilida nafaqa olish talablariga javob beradigan pensionerlar va boshqa shaxslar soni 1960 yilda 500,000 odamdan 70-yillar oxirigacha 1 mln.ga oshdi, ya'ni bu davrda yillik o'rtacha o'sish sur'atlari 5,7%ni tashkil qildi<sup>51</sup>[3]. 1974-1980 yillarda Chili pensiya tizimi moliyasi jiddiy nomutanosiblikni boshidan o'tkazdi, davlat byudjeti har yili YalMning 2,37% miqdorida pensiya tizimi xarajatlarini qoplashi kerak edi<sup>52</sup> [12].

Islohotlar amalga oshirilayotgan davrda Chili pensiya sug'urtasi tizimida ko'plab chalkash va murakkab normativlar mavjud edi. 1970 yilning oxirida Chili pensiya tizimi individual pensiya to'g'risida 150tanizomdan iborat bo'lib, 35ta turli pensiya fondlari mavjud edi<sup>53</sup> [6]. Islohotlardan oldin Chili pensiya tizimi, boshqa Lotin Amerika mamlakatlari pensiya tizimi kabi, ko'plab turli nizomlardan iborat bo'lib, moliyalashtirish, sug'urta, kapital egalari va samarali boshqaruv bilan bog'liq muammolarni hal qilishi kerak edi<sup>54</sup>[3].

1980 yil 04 noyabrda Chili pensiya tizimida tub islohot amalga oshirildi. Islohot davlat yangi qonuni bilan boshlandi, bu qonunga muvofiq xodimlarga tanlash imkoniyatini beruvchi va shaxsiy pensiya hisoblari ko'rinishidagi xodimlar huquqlarini aniq belgilab beruvchi yangi pensiya tizimi shakllantirildi. Islohotning maqsadi Chili aholisining manfaatlarini adolatli himoya qilishdan iborat edi. Amaliyotda islohot 1983 yilning

---

<sup>49</sup>Niemietz, Kristian, "Private Pension Provision: What an Ageing Europe Can Learn from a Latin Tiger", Stockholm Network. 2007, P.5

<sup>50</sup>Congressional Budget Office of Chile, "Social Security Privatisation: Experiences Abroad", CBO Paper, January, 1999. P.19

<sup>51</sup>Arenas de Mesa, A. "Cobertura Previsional en Chile: Lecciones y Desafios del Sistema de Pensiones Administrado por el Sector Privado". Serie de Financiamiento del Desarrollo, CEPAL, Santiago, Chile. 2000.

<sup>52</sup>Marcel, Mario and Alberto Arenas. "Social Security Reform in Chile." Inter-American Development Bank (IDB), Occasional Papers, No 5. Washington, D.C.: IDB.1992.

<sup>53</sup>Castañeda, T. Para combatir la pobreza. Política social y descentralización en Chile durante los 80. Centro de Estudios Públicos, Noviembre, 1990.

<sup>54</sup>Arenas de Mesa, A. "Cobertura Previsional en Chile: Lecciones y Desafios del Sistema de Pensiones Administrado por el Sector Privado". Serie de Financiamiento del Desarrollo, CEPAL, Santiago, Chile. 2000.

boshida to'liq amalga oshirila boshlandi. 1983 yildan so'ng Chili pensiya tizimi quyidagi 4ta asosiy xususiyatlarga ega bo'ldi<sup>55</sup> [4]:

#### 1) Individual kapitalizatsiya

Pensiya sug'urtasida ishtirok etadigan har bir xodim mehnat faoliyatini boshlashi bilan shaxsiy pensiya hisobi (PRA)ga ega bo'lganva uning to'lovlari pensiyaga chiqqunga qadar shu hisobda jamg'arilib borilgan. Pensiyaga chiqish muddati erkaklarda 65 yil, ayollarda 60 yilni tashkil etgan. Erta pensiyaga chiqish va nafaqalarni olishga faqat ma'lum bir sharoitlarda ruxsat berilgan. Pensiya tizimi ishtirokchilarining har oylik soliqqa tortiladigan daromadlarining 10%i shaxsiy pensiya hisobiga o'tkazilgan bo'lib, o'tkazilgan bu mablag' soliqlardan ozod etilgan. Ish beruvchi o'z xodimlari pensiyasi uchun hech qanday to'lov kiritmagan, shuning uchun ajratmalarning mutloq erkin tizimi rivojlangan. Tizimdagi barcha o'zgarishlar (to'lovlar va foyda), inflyatsiyaga qarab o'zini-o'zi tartibga soluvchi, shu bilan birga barcha ajratmalar va olinadigan mablag'lar real qiymat bo'yicha baholanishini kafolatlovchi Unidades de Fomento (UFS) pul birligida amalga oshirilgan. Barcha ishtirokchilar o'z pensiya hisoblariga qo'shimcha ajratmalar kiritish imkoniyatiga ega bo'lgan. Bu ajratmalardan ko'zlangan maqsad – pensiya chiqqan paytda ishtirokchilarning yuqori pensiya olishini ta'minlash hisoblanadi. № 19.768 Qonuni 2002 yil 01 martdan kuchga kirib, unga muvofiq pensiya sug'urtasi tizimida ixtiyoriy ravishda tijorat faoliyatini olib borishga ruxsat beriladigan tashkilotlar soni oshirildi. Bunday ixtiyoriy hisoblarga kiritiladigan mablag'lar soliq imtiyozlariga ega bo'lgan, mablag'larning egasi o'z hisobidan pensiyaga chiqqunga qadar pul echib olishi mumkin edi, va pensiya pullari shaxsning yillik shaxsiy daromadi hisoblanardi va soliqqa tortilishi kerak edi.

2) Mablag'larning xususiy boshqaruvi (Private management of funds) Pensiya fondlari mablag'larini boshqarish pensiya fondarini boshqarish bo'yicha mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tomonidan amalga oshirilgan (Administradoras de Fondo de Pensiones - AFPs). AFPs pensiya fondlarini boshqarishda monopoliyaga ega bo'lib, pensiya fondlarida jamg'arilgan mablag'larni samarali investitsiya qilganlar va foydani ishtirokchilar o'rtasida taqsimlaganlar.

Xodim o'zi istagan AFPsni tanlashi va uni o'zgartirishi mumkin edi, biroq fond boshqaruvchisini tez-tez o'zgartirish unga qimmatga tushar edi; xodim PRA (shaxsiy pensiya hisobi)dagi pullardan foydalanish uchun pensiya fondlarini boshqarish bo'yicha o'zi istagan xususiy kompaniyani tanlashi mumkin bo'lgan. Aholining aldanib qolishining oldini olish maqsadida bu kompaniyalar davlat organlari va AFPs nazorat organlari nazorati ostida bo'lishi talab etilgan.

#### 3) Afzalliklari

Pensiyaga chiqqandan so'ng shaxsiy pensiya hisobida jamg'arilgan pullardan turli usullarda foydalanish mumkin:

- Bir umrlik renta (lifeannuity). Pensionerlar shaxsiy hisoblaridagi pulga sug'urta kompaniyalaridan umrbodlik renta sotib olishlari mumkin. Bu renta ularni inflyatsiya ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda yillik barqaror daromad bilan ta'minlaydi.

- Vaqtinchalik pensiya to'lash tizimi yoki kechiktirilgan daromad. Pensiya chiqqan xodim shaxsiy hisobidagi pulni 2 qismga bo'lishi mumkin: birinchi qismi –kechiktirilgan daromad uchun to'lanadi, ya'ni bu pullar savdo soveti qaroriga muvofiq kelajakda sug'urta kompaniyasi tomonidan to'lanadi. Ikkinchi qismi pensiya to'lash dasturini tuzish uchun Pensiya fondi hisobida qoldiriladi, hisobda qoldirilgan pul pensiyaga chiqqandan boshlab kechiktirilgan daromad pullarini olishni boshlaganga qadar oylik yashash xarajatlarini qoplash uchun etarli bo'lishi kerak.

- Umrbodlik renta bilan birga pesiyalarni to'lash dasturi. V pensiyaga chiqqanda shaxsiy hisobda jamg'arilgan pullarning bir qismi pensionerga har oylik pensiya dasturini

---

<sup>55</sup>sherMukul G. and VasudevanDeepa. Lessons for Asian Countries from Pension Reforms in Chile. PIE/CIS Discussion Paper from Center for Intergenerational Studies, Institute of Economic Research, Hitotsubashi University. 2008. P.15-20



shakllantirish uchun Pensiya fondi hisobida qoldiriladi. Pulning qolgan qismi umrbodlik renta sotib olish uchun ishlatiladi, va bu bilan pensioner yillik daromadga ega bo'ladi. Shunday qilib, pensioner bir vaqtning o'zida ikki xil turdagi pensiya nafaqasiga ega bo'ladi: birinchisi pensiya to'lash dasturiga muvofiq bo'lsa, ikkinchisi umrbod renta sotib olishga muvofiq pensiya nafaqasini olish.

Eski tizim bo'yicha shaxslarning o'tkazmalari ham inobatga olindi. Taqsimlanadigan pensiya tizimidan jamg'ariladigan tizimga o'tganlar ularning o'tkazmalarini kompensatsiya qiluvchi davlat obligatsiyalariga ega bo'ldilar. Obligatsiyalar yillik 4% daromad keltiradi va xodim pensiyaga chiqqandan so'ng davlat ularni sotib oladi<sup>56</sup>[1]. Davlatning rag'batlantiruvchi siyosati va aholi o'rtasida o'tkazilgan tushuntirish ishlari natijasida 3 yil davomida aholining 95%i yangi jamg'ariladigan pensiya tizimiga o'tkazildi.

#### 4) Nizom

Pensiya fondi boshqaruvchilarining bosh boshqarmasi (SAFP) tartibga solish organi hisoblanib, AFPs faoliyatini nazorat qiladi. SAFPning funktsiyasi Mehnat vazirligi va ijtimoiy ta'minot orqali rayonlarning moliyaviy, yuridik, ma'muriy holatini va ularning markaziy hukumat bilan aloqasini saqlab turishdan iborat. SAFPning bosh direktori Respublika Prezidenti tomonidan tayinlanadi va tashkilot rahbari hisoblanadi<sup>57</sup>[15]. Uning funktsiyalari quyidagilardan iborat:

1. AFPni tashkilot sifatida tashkil qilish va uning faoliyatini nazorat qilish, uning ustavlarini ma'qullash va faoliyatini liborishgar xususat berish.

2. AFP faoliyatini dastlabki bosqichdan boshlab yuridik, moliyaviy va ma'muriy masalalar bo'yicha nazorat qilish.

3. AFPning minimal kapital va kassa rezervlari normativlariga amal qilishini ta'minlash.

4. Qonun doirasida, hamda Chili Markaziy banki siyosatiga muvofiq investitsiyalarning umumiy normalarini o'rnatish va AFP amalga oshirayotgan investitsiyalarni mazkur normalarga muvofiq qilishini kafolatlash.

5. Mavjud tartibga solish qoidalar samaradorligini tahlil qilish va zarurat tug'ilganda yangilarini qabul qilish.

6. Mavjud qonunchilikka amal qilmayotgan AFP larga nisbatan jarima qo'llash, zarur bo'lganda esa qonundabelgilangan tartibda ular faoliyatini to'xtatish.

7. AFP va uning mijozlari o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelganda hakam sifatida bu muammoni hal qilish. (life insurance-plus-saving contracts).

Bu turdagi jamg'arma ish beruvchilar tomonidan xodimlar uchun shakllantirilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi ishchi kuchini jalb qilish, kadrlarni tayyorlash ishlarida imtiyozlarni kengaytirish, shuningdek, o'rtacha daromadga ega shaxslarning qarilidka oladigan jamg'armalari hajmini oshirishdan iborat.

• Yosh xodimlarning ijtimoiy farovonligi uchun nafaqalar. Belgilangan to'lovlar tizimi (DC) tufayli va uzoq muddat davomida jamlama (kompozitsion) foiz olish imkoniyati ta'sirida, tizimdagi dastlabki yillarda o'tkazilgan ajratmalar, pensiyaga chiqqan xodimlarning pensiya nafaqalari hajmiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Past daromadga ega 18-35 yoshli xodimlarga yordam berish maqsadida alohida nafaqa turi joriy etildi. Ish beruvchilar dastlabki 24 marta xodimlariga pensiya to'lovlarini 50% miqdorini to'lab berish orqali yordam ko'rsatadilar.

2008 yilda amalga oshirilgan islohotlarda pensiya sug'urtasi tizimi sifati va masshtabini kengaytirish chora tadbirlari bilan bir qatorda shaxsiy pensiya hisobiga ajratmalar o'tkaziy va pensiyaga chiqqanda bu pullardan foydalanish borasida erkaklar va

---

<sup>56</sup>Дегтярь Л. Российская пенсионная система в контексте мирового опыта // Научный доклад Л. Дегтярь; Российская академия наук, Институт международных экономических и политических исследований. М.: ИМЭПИРАН, 2002. С. 14.

<sup>57</sup>Superintendencia de Administradoras de Fondos de Pensiones (SAFP), 2003, "The Chilean Pension System", Fourth Edition, Santiago:SAFP, downloaded on October 10, 2007 from www.safp.

ayollar o'rtasida tenglik ta'minlanishiga alohida e'tibor qaratildi. Ayollarga nisbatan uzoq muddat davomida pensiya sug'urtasi uchun to'lov kiritilmaslik tendentsiyasi mavjud bo'lgan, chunki ayollar bola yoki yaqinlari parvarishi bilan band bo'lganlar; ayollarni asosan kam ish haqi to'lanadigan ishlarga olishgan, ular erkaklarga nisbatan ertaroq pensiyaga chiqqanlar va uzoqroq umr ko'rganlar. Mazkur omillar pensiyaga chiqqanda pensiya to'lovini olishda erkaklar va ayollar o'rtasida sezilarli farq yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Yangi islohotlar natijasida ayollarga qo'shimcha imtiyozlar taqdim etildi, masalan, homiladorlik ta'tili mobaynida (18 hafta) pensiya sug'urtasi to'lovlari davlat tomonidan to'lanishi, ajrashish natijasida ayollarga etkazilgan iqtisodiy zararni qoplash uchun erining sug'urta to'lovining 50% uning ayoli hisobiga o'tkazilishi va boshqalar. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida, ayollarning shaxsiy pensiya hisoblarida jamg'arilgan mablag'lar 10%ga o'sdi<sup>58</sup>[14].

### **8.3.Chili va argentinada amalga oshirilgan pensiya sug'urtasi tizimi islohotlari natijalarining rivojlanayotgan mamlakatlarda, xususan O'zbekiston respublikasida qo'llash saboqlari.**

Vetnamda, dunyoning boshqa mamlakatlaridagi kabi, PAYG-DB (Pay as you go defined benefit-PAYG-DB) pensiya tizimi amal qiladi, ya'ni bu tizimga muvofiq, joriy davrda pensiyaga chiqqan shaxslarga jamg'armalar beriladi, va bu pullar ishlab turgan xodimlarning shaxsiy pensiya hisobiga o'tkazayotgan ajratmalaridan olinadi. O'zbekiston pensiya tizimida aholining qarishi muammosi vujudga kelmoqda. BMTning ma'lumotlari bo'yicha e'lon qilgan prognozlariga muvofiq, 60 yoshli va undan katta yoshdagi aholi soni tezlik bilan oshib bormoqda, va 2025 yilga kelib bu mamlakatda o'rtacha umr ko'rish 74,1 yoshni, 2050 yilga kelib esa 78,2 yoshni tashkil qiladi[16].

O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati belgilangan joriy ajratmalar va pensiya sug'urtasidan foydalanish darajasi sharoitida, Pensiya sug'urtasi fondining umumiy nisbatlari quyidagicha bo'lishi mumkin.

- 2025 yilga kelib, pensiya sug'urtasi tushumlari qiymati uning xarajatlari etishmovchilik yuz berishi mumkin;

- 2035 yilga kelib, agar mavjud siyosatga tuzatishlar kiritilmasa yoki rivojlanish natijasida pensiya sug'urtasi tushumlari oshib, uning xarajatlari optimallashtirilmasa Pensiya sug'urtasi fondi pensionerlarga to'lovlarni amalga oshirishni kafolatlay olmaydi:

O'zbekiston Respublikasining Chili tajribasidan olgan sabog'i: Tushumlar va xarajatlar o'rtasida mutanosiblikni ta'minlaydigan pensiya sug'urtasi tizimini shakllantirish. Oqilona pensiya tizimini shakllantirish murakkab masala hisoblanadi, jamg'armalarni pensionerlarga to'lash xodimlarning o'tkazmalariga bog'liq bo'lib turgan sharoitda pensiya tizimi strukturasi oldindan loyihalashtirilishi lozim. Optimal loyihalashtirilgan pensiya sug'urtasi tizimining muhim omillari quyidagilarni o'z ichiga oladi

- Tizim ishtirokchilarining pensiyaga chiqqandagi kutilayotgan iste'moli rejasini loyihalashtirish kerak (pensiyaga chiqish davriga kelib jamg'arma fondi qiymati tizim ishtirokchilarining pensiyaga chiqqan davrdan umrining oxirigacha kutilayotgan iste'moli rejasi qiymatiga teng bo'lishi kerak).

- Pensiyaning taqdim etish usullari: umrbodlik renta yoki jamg'arilgan summani to'liq bir martada hisobdan echib olish.

- Rejalashtirilgan pensiyaga chiqish muddati.

- Pensiya fondining investitsiya strategiyasi ishtirokchilarning risklarga bo'lgan munosabatini hisobga olishi kerak. Bunda ikkita masalani aniqlab olish muhim sanaladi: ya'ni, pensiyaga chiqish davrida fondning qiymati va investitsiyalardan olinadigan foyda qiymatini aniqlab olib, shu asosda pensioner oladigan yillik pensiya rentasini belgilash.

---

<sup>58</sup>Rofman, Rafael; Fajnzylber, Eduardo; Herrera, German. Reforming the pension reforms: the recent initiatives and actions on pensions in Argentina and Chile. (SP Discussion Paper No. 0831). Washington, DC: Social Protection & Labor. The World Bank. 2008. P.42.

Chili islohotlari tajribasining ko'rsatishicha, DC pensiya sug'urtasi tizimi aholiga to'liq mos keladi va ularga etarli darajada pensiya to'lash imkoniyatini beradi. Barqaror ish va daromadga ega bo'lgan, va 45 yil davomida pensiya hisobiga ajratmalar o'tkazgan shaxs kelajakda ishlab turgan davridagi daromadining 70-80%i miqdorida pensiya olishi mumkin.

## **9-MAVZU: AVSTRALIYA PENSIYA TIZIMI XUSUSIYATLARI**

### **Reja:**

- 9.1. Avstraliya pensiya tizimi.
- 9.2. Avstraliyada pensiyaga chiqish yoshi va ish staji.
- 9.3. Avstraliyada yoshga doir pensiyalarni tayinlanishi va to'lanishi.
- 9.4. Aholini ijtimoiy himoyalashda xususiy pensiya fondlarining ahamiyati.
- 9.5. Xususiy pensiya fondlariga fuqarolar tomonidan sug'urta badalarini to'lanishi..

**TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:** Avstraliya pensiya ta'minoti tizimi, sug'urtalangan shaxslar, xalqaro Mehnat tashkiloti, Aholini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy ta'minot, pensiya tizimlari modellari, xalqaro mehnat tashkiloti, avlodlar birdamligi, xorijiy mamlakatlar pensiya tizimlari, pensiya ta'minoti tizimi, davlatning ijtimoiy siyosati, pensiya ta'minoti, davlat budjeti, davlat pensiya tizimi, nodavlat pensiya tizimi, davlat maqsadli jamg'armalari, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, xalqaro moliya munosabatlari, byudjet tizimi, xalqaro moliya.

### **9.1. Avstraliya pensiya tizimi.**

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi uzoq davr mobaynida shakllangan bo'lib, dastlab sanoat inqilobi oqibatida vujudga kelgan. Evropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida yuz bergan sanoat inqilobi taraqqiyot jarayoniga kuchli ta'sir o'tkazib, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishga undadi.

Iqtisodiyotni sanoatlashtirish jarayonida yollanma ishchilar sinfi yuzaga kelganligi ularning ijtimoiy himoya qilish siyosatini o'zgartirishni talab qildi. Xususan kasallik, ishsizlik hamda mehnatda shikastlanganlik yoki qarilikda ularga ish haqi to'lanishi to'xtatib turilganda, ular turmush darajasini saqlash va qashshoqlik darajasiga tushib qolmaslik yangi qo'llab-quvvatlash tizimini ishlab chiqish zarurati paydo bo'ldi.

Alohida banklarda jamg'armalar tashkil qilish imkoni yaratildi, kasal yoki mehnatda shikastlangan ishchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ish beruvchilarning zimmasiga majburiyatlar yuklatildi, kasal bo'lganda va qarilik chog'ida moliyaviy yordam beradigan tashkilotlar rivojlandi, hususiy sug'urta fondlari ishchilar hayotini sug'urtalash va dafn nafaqasi ajratishni boshladi. Mazkur munosabatlar yangi "ijtimoiy ta'minot" tushunchasini vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Ijtimoiy ta'minot – bu jamiyat a'zolarini ijtimoiy vositalar yordamida himoya qilish tizimi bo'lib, u ishlab chiqarishning to'xtashiga sabab bo'ladigan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar (kasallik, bola to'g'ish, ishsizlik, nogironlik, qarilik va o'lim munosabati) oqibatida ajratiladigan yordam va imtiyozlar yig'indisidir. Ijtimoiy ta'minotning moliyaviy manbasi yollanma xodimlar tomonidan majburiy ajratiladigan sug'urta badallari hisoblangan. Mazkur sug'urta ajratmalari sog'ligi, malakasi, yoshi va jinsidan qat'iy nazar barcha xodimlar tomonidan to'langan. Sug'urta kontseptsiyasi ishchilar birdamligini ifodalab, ishdagi hamkasblar muhtoj bo'lgan hollarda ularni ajratilgan sug'urta badallari yordamida moliyaviy qo'llab-quvvatlashni nazarda to'tgan. Buning natijasida ijtimoiy sug'urta tizimi halqaro miqyosdagi qoidaga aylandi.

Ijtimoiy ta'minot tizimi rivojlanishining dastlabki bosqichida ish haqisi yuqori hisoblangan xodimlar o'zini-o'zi sug'urta qilishi mumkin bo'lgan. Keyinchalik, ijtimoiy ta'minot tizimining taraqqiyoti jarayonida pensiya va nafaqalarning qat'iy belgilangan miqdori yuzaga keladi va sug'urta tizimi jamiyatning barcha a'zolarini qamrab olish g'oyasi paydo bo'ladi. Majburiy sug'urtalash tizimida eng kam ish haqi oladigan xodimlarga belgilangan sug'urta badali yuki yuqori ish haqiga ega hizmatchilarga nisbatan og'ir keldi.

O'z navbatida, eng kam ish haqi darajasiga asoslangan nafaqalar yuqori oylik oluvchi xodimlarni qoniqtirmasligi ma'lum bo'ldi. Buning natijasida, ish haqi miqdori bo'yicha majburiy badallarni yig'ishga asoslangan pensiya va nafaqalar tizimi vujudga keldi. Ijtimoiy ta'minot ish beruvchilar va ularning yollanma ishchilari tomonidan boshqariladigan hususiy tizim bilan birgalikda rivojlandi. Bu esa ijtimoiy ta'minotni sifatli ta'minlashga mo'ljallangan qo'yidagi tizimni yuzaga keltirdi:

- ✓ qat'iy miqdorda davlat yohud ish haqi asosida hisoblangan pensiya;
- ✓ hususiy fondlar hisobidan ajratiladigan pensiyalar.

Hozirgi kunga kelib har bir mamlakat pensiya ta'minoti tizimi o'ziga xos hususiyatiga ega. Rivojlangan mamlakatlarda pensiya ta'minoti tizimi uch bo'g'indan iborat: davlat, nodavlat yoki hususiy pensiya jamg'armalari va sug'urta institutlaridir. Aksariyat mamlakatlarda pensiyaning miqdori ish haqining hajmi va to'langan sug'urta badali miqdoriga qarab belgilanadi.

Xorij tajribasi shuni k'ysatmoqdaki, bozor iqtisodiyoti tizimi aholining kam ta'minlangan, nogiron va keksayib qolgan fuqarolar turmush darajasini oshirish borasida tegishli choralar ko'rishi va sug'urta tizimini rivojlantirish zaruriyatini vujudga keltiradi. Shu bilan birga, aholining qarishi bilan belgilanadigan demografik vaziyatning o'zgarishi pensiya ta'minoti hamda ularni isloh qilishga jahon hamjamiyati tomonidan bo'layotgan qiziqishning yanada oshishiga sabab bo'lmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda pensiya ta'minoti tizimi bilan bir qatorda davlat tasarrufida bo'lmagan hususiy pensiya ta'minoti mavjud bo'lib, uning zarurligi quyidagi ikki asosiy sabablardan kelib chiqadi:

Birinchidan, bozor munosabatlari sharoitida fuqarolarni erkin faoliyat ko'rsatish bo'yicha ko'proq erkinlik berishi bilan bir qatorda, ularga ijtimoiy ta'minotni ta'minlash borasida mas'uliyat yuklaydi. Har bir fuqaro mehnatga qobiliyatiga ega davrdan boshlab, u qarigan yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganda o'zini ijtimoiy himoyalanihini uylashi kerak.

Ikkinchidan, har qanday rivojlangan davlatning moliyaviy imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. Davlat fuqarolar qariganda yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganda barqaror ijtimoiy himoyalash siyosatini amalga oshirish imkoniga ega emas. Ijtimoiy ta'minot o'z imkoniyatlaridan kelib belgilanadi. Ya'ni davlat mehnatga qobilyatsiz fuqarolarni o'rtacha turmush darajasidan yuqori miqdorda ta'minlay olmaydi.

Shved sotsiologi G.Esping-Andercen ijtimoiy yo'naltirilgan davlatning liberal, konservativ va sotsial-demokratik modelga ajratadi:<sup>59</sup>

Liberal model AQSh, Kanada, Avstraliya, Buyuk Britaniyada shakllanib, unda xususiy mulk xukmronlik qiladi. Modelning asosiy shartlari: davlatning iqtisodiyotga kam aralashuvi; YaIMda davlat ulushining pastligi. Fuqarolarga ijtimoiy yordam sug'urta badallari hisobidan amalga oshiriladi. Bu jarayonga davlat mumkin qadar kam aralashadi, u asosan muayyan kafolatlarni tartibga solish bilan shug'ullanadi. Sug'urta to'lovlari deyarli bir miqdorda bo'ladi. Tadbirkorlikni rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan, korxonalar ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun talab qilinmagan xodimlarni ishdan ozod etish huquqiga egadir. Bunday xolatning o'ta liberal shakli AQSh ko'zatiladi. Ishlab chiqarish pasaygan sharoitda ijtimoiy dasturlar qisqartirilib, aholini muxtoj qatlami, avvalo xotin-qizlar, yoshlar va qariyalarga ijtimoiy himoya kamaytiriladi.

Konservativ (korporativ) model ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar hisoblangan Avstriya, Germaniya, Italiya, Frantsiya kabi mamlakatlarga xosdir. Bu modelda davlatning mavqei yuqori: ijtimoiy soha xarajatlariga byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hamda xodimlar va ish beruvchilarning sug'urta badallari ajratmalari miqdori deyarli teng hisoblanadi. Qayta taqsimlashning asosiy yo'nalishlari davlat ixtiyorida yohud uning nazorati bo'ladi. Davlat fuqarolarning moddiy qo'llab-

---

<sup>59</sup> Ламбаева И.А. Социальная работа за рубежом. Учебное пособие. Улан-Удэ: Издательство ВСГТУ, 2000. 110 с.

quvvatlash vazifasini sug'urta tizimiga orqali amalga oshiradi. Shu sabab ijtimoiy nafaqalar miqdori mexnatdan olingan daromad va sug'urta badallari miqdoriga bog'liq bo'ladi. Ishsizlik yuz bergan xolda kafolatlangan to'lovlar mexnat stajiga, to'lovlar muddati esa sug'urta badallari to'lashning davomiyligi, ularning miqdori va xodimning yoshiga bog'liq bo'ladi. Ishsizlik nafaqasi 50 yoshdan katta fuqarolarga to'lanadi.

Sotsial-demokratik (solidar) modelda axolini ijtimoiy ximoyasida davlatning ishtiroki muhimdir. Axoli daromadini tenglashtirish va uni bandligini ta'minlash ijtimoiy siyosatning ustuvor vazifasi hisoblanadi. Model Shvetsiya, Norvegiya, Finlyandiya, Daniya, Niderlandiya va Shveysariyaga xosdir. Iqtisodiyotning rivojlangan davlat sektori – bu ijtimoiy soxani xarajatlarining asosiy qismi ijtimoiy axamiyatga molik ob'ektlarning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltiriladi. Milliy mahsulot aholining kam ta'minlangan tabaqalari foydasiga qayta taqsimlanadi. Buning uchun soliq tortish darajasi juda yuqori belgilanadi. ShvetsiyaYaIMda davlat xarajatlarning ulushi 66 foiz, Daniyada 61 foiz, Finlyandiyada 56 foizni tashkil etadi. Ushbu modelning o'ziga xos xususiyatlariga ishsizlik darajasini imkon qadar kamaytirish bo'yicha tegishli choralar ko'riladi.

Pensiya tizimining tashkil etish va rivojlanishi bosqichlari dunyo mamlakatlarida turlicha kechgan. Xususan, Amerika Qo'shma Shtatlarida pensiya tizimi 1935 yilda joriy qilinib, daromad manbasi milliy sug'urta fondi hisoblanadi. Fond federal byudjeti tarkibida konsolidatsiyalashgan. Bugunda AQSh fuqarolariga davlat va ish joyidan xususiy jamoaviy va shaxsiy hisob raqamda jamg'ariladigan pensiya tizimi xizmat qiladi.<sup>60</sup>

Davlat pensiyasi mehnat stajiga ega va tegishli pensiya jamg'armasiga majburiy badallar to'lagan fuqarolar oladi. Yirik davlat pensiya fondi – Umumiy federal dasturi deyarli barcha xususiy sektor vakillarini qamrab oladi va dasturga asosan minimal pensiya ajratiladi.

Jamoaviy xususiy jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga davlat va xususiy pensiya dasturlari kiradi. Davlat jamg'ariladigan pensiya tizimi Hukumat va mahalliy organlarda ishlaydigan fuqarolarni qamrab olsa, xususiy sektor vakillari ish joyilari orqali davlat pensiya ta'minotida ishtirok etish huquqiga ega. Sug'urta ajratmalari ish beruvchilari tomonidan amalga oshiriladi va ishchilar moliyalashtirishda ishtirok etmaydi. Xodim 5-10 yil ishlashi shart.

Shuningdek, fuqaro tijorat banki, pay jamg'armasi va sug'urta kompaniyasida ochilgan individual pensiya shaxsiy hisob raqamiga yillik 2000 AQSh doll. Ajratma amalga oshirishi mumkin. Mablag'ni fuqaro 59,5 yoshga to'lganda bir yula oladi, 79,5 yoshda shahsiy hisob majburiy tartibda yopiladi. Jamg'arilgan mablag'dan soliq undirilmaydi, faqat hisob raqam yopilishi vaqtida jamg'arilgan mablag'dan daromad solig'i chegirib qolinadi.

1938 yilgacha tug'ilgan fuqarolar uchun yoshga doir pensiya 65 yosh hisoblanadi. Faqat 62-64 yoshga to'lgan fuqarolarga qarilik pensiyasi qisqartirilgan holda to'lanadi. Aholining umr ko'rish muddati oshganligi sabab pensiya chiqish yoshini bosqichma-bosqich 67 yoshga oshirish belgilangan. Pensiya tayinlashga 40 kvartal yoki 10 yillik sug'urta badallari to'langan minimal staj talab qilinadi. Pensiya miqdori 22 yoshdan 62 yoshgacha o'rtacha daromad miqdoridan hisoblanadi. Bunda eng kam daromad olingan 5 yil chegirib tashlanadi. Qonunga ko'ra bepul tibbiy yordam, dori-darmon, oziq-ovqat va minimal (100 doll.) uy-joy to'lovlari kabi imtiyozlar mavjud.

Nogironlik pensiyasini tayinlash uchun sug'urtalangan shaxs 22 yoshdan nogironlik belgilangan davrgacha bir yilning kamida bir choragida, 5 yilda, eng ko'pi bilan 10 yilda sug'urta badallarini to'lagan bo'lishi lozim.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari bevalarga, shuningdek 10 yil davomida nikohda bo'lib, ajralgan er-xotinlarning biriga, 65 yoshga to'lganda vafot etgan pensionerga 100 foiz pensiyasi miqdorida to'lanadi. Mazkur shaxslarga ushbu pensiyalar 60-64 yoshdan

---

<sup>60</sup> Бровчак С.В. Пенсионное обеспечение: российский и зарубежный опыт. Учебное пособие. Издательский дом. Государственный университет Высшая школа экономики. 2008. 76 с.

boshlab qisqartirilgan holda tayinlanishi mumkin. Vafot etgan shaxsning etim farzandlariga pensiyasining 75 foizi 18 yoshga to'lgungacha (o'quvchiga – 19 yosh) tayinlanadi.

Frantsiyada pensiya ta'minoti taqsimlash xarakteriga ega.<sup>61</sup> Pensiyalar to'lanishi kasaba tashkilotlari yoki ishchilar uyushmalari hamda ish beruvchilar tomonidan davlat boshchiligida nazorat qilinadi. Pensiya ajratmalari majburiy hisoblanib, ishchi-hizmatchilar va ish beruvchilar o'rtasida taqsimlanadi. Hunarmandlar va kichik tadbirkorlarning oylik ajratmalari 16,35 foiz belgilangan. Pensiya miqdori o'rtacha ish haqining 50 foizini tashkil etadi va ohirgi 11 yillik mehnat ish haqidan kelib chiqib hisoblanadi. Lekin, davlat tomonidan minimal (bir yilda 6000 evro) va maksimal miqdorda (12000 evro) davlat pensiyasi ham belgilangan.

Pensiyaga chiqish yoshi erkak va ayollar uchun bir xil 60 yosh, biroq to'liq pensiya olish uchun umumiy ish staji 40 yildan kam bo'lmasligi kerak. Agar mehnat staji etarli bo'lmasa, pensiya miqdori stajning etishmayotgan choragi yoki 65 yoshga etmayotgan yillar soni uchun 1,25 foizga kamaytiriladi. Bu jarima koeffitsienti 25 foizdan oshmasligi zarur. 65 yoshga to'lgan fuqarolar mehnat stajidan qat'iy nazar to'liq mehnat pensiyasi olish huquqiga ega. Fuqaroning ish staji 40 yilga etgandan yoki 65 yoshga to'lgandan keyin mehnat faoliyatini davom etirish uchun har ish yiliga 3 foiz miqdoridan lekin 15 foizdan ko'p bo'lmagan ustama beriladi. Agar fuqaro 65 yoshida pensiya chiqsa, ish stajidan qat'iy nazar pensiya olish huquqiga ega bo'ladi. Nogironlar, urush qatnashchilari va boshqa imtiyozga ega fuqarolarga mehnat stajidan qat'iy nazar 60 yoshdan to'liq pensiya olish huquqi belgilangan. Pensiya tizimi ishtirokchilari yollanma ishchilar; davlat xizmatchilari; yirik milliy monopoliyalari maxsus ishchilariga bo'linadi.

2011 yilda pensiya tizimi tanqisligi 14 mlrd.evroni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda boshlangan pensiya islohotlari natijasida 2050 yilga borib tanqislik miqdori 20 mlrd. Evroni bo'lishi kuzda tutilgan.

Jahon bankining tahliliga ko'ra, 2010 yilda pensiya to'lovlarning umumiy miqdori Frantsiya YaIMning 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2050 yilda 15-16 foiz bo'lishi taxmin qilinmoqda.<sup>62</sup>

Frantsiyada majburiy pensiya ta'minotidan tashqari, kapitallashtirish printsiplariga asoslangan va korxonalar tomonidan muayyan toifadagi xodimlar uchun tashkil etilgan nomajburiy qo'shimcha dasturlar faoliyat ko'rsatadi. Buning sababi, majburiy sug'urta tizimi mehnat daromadlarini o'rnini bosishning yuqori darajasini ta'minlaydi. Hozirda kapitallashtirishga asoslangan xususiy pensiya tizimini rivojlantirish choralari ko'rilmogda.

Chili Respublikasi pensiya tizimi dunyoda eng yangi pensiya tizimlaridan biri hisoblanib, ko'pchilik mamlakatlar chili modelidan foydalanadi, jumladan Argentina, Kolumbiya, Peru, Meksika va Rossiya.

Chilida pensiya islohotlari 1981 yilda boshlanib, iqtisodiyotga ijobiy ta'siri ko'rsatdi. Bunda davlat tomonidan boshqariladigan pensiya tizimidan tegishli badallar asosida jamg'ariladigan pensiya tizimiga o'tildi. Bunga ko'ra jamg'arma mablag'larini shakllantirish ma'sulliyati ishlovchi fuqaroga yuklatildi. Fuqarolar jamg'ariladigan hisob raqamga ega bo'lib, har oyda oylik ish haqining 10 foizi sug'urta qiluvchi fondlardan biriga jamg'arib boradi. Sug'urta yoshi erkaklarga 65 yosh, ayollarga 60 yosh belgilangan.<sup>63</sup>

---

<sup>61</sup> Истомина Е.А. Пенсионная система Французской Республики: Правовые основы. Екатеринбург. 2005.

<sup>62</sup> The Inverting Pyramid: Pension Systems Facing Demographic Challenges in Europe and Central Asia. The World Bank. Europe and Central Asia Reports. 2014.

<sup>63</sup> Бровчак С.В. Пенсионное обеспечение: российский и зарубежный опыт. Учебное пособие. Издательский дом. Государственный университет Высшая школа экономики. 2008. 76 с.

Shuningdek, pensiya ta'minotiga qo'shimcha ravishda xodimlar nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik uchun ehtiyot shart sug'urtalanishi lozim bo'lib, bunga ish haqidan yana qo'shimcha 3 foiz ajratadi. Fuqaroning istagiga ko'ra jamg'arilgan mablag'lar xususiy sug'urta fondi tomonidan kapitalashtirilishi mumkin.

Fuqaro pensiya yoshiga etganda jamg'arilgan mablag'dan shaxsiy pensiya olish uchun foydalanishi yoki sug'urta kompaniyadan mablag'larni rejali asosda olishi mumkin. Hozirda Chili aholisining 8 foizi pensiya yoshida, 1 nafar pensionerga 12,8 ta ishlovchi to'g'ri keladi.

2013 yilda «International Living» sayti o'tkazgan so'rovnoma ko'ra Ekvador pensionerlarga eng yaxshi xayot kechiradigan davlat deb topilgan. Mamlakatda arzon yashash sharoitlari, bepul sog'liqni saqlash va muttadil ob-xavosi bilan pensionerlar diqqatini tortdi. Davlatning Ijtimoiy ta'minot fondi 40 foiz pensiya to'lovini amalga oshiradi. Pensiya chiqishning 4 yo'nalishi mavjud:

5. pensiyaga chiqish yoshi chegaralanmagan holda pensiya chiqish uchun (jamg'armaga 480 oylik to'lov yoki 40 yildan ortiq ish staji talab etiladi);

6. 60 yoshda pensiyaga chiqishga (360 oylik to'lov yoki 30 yil ish staji);

7. 65 yoshda pensiyaga chiqishga (180 oylik to'lov yoki 15 yil ish staji);

8. 70 yoshda pensiyaga chiqishga (120 oylik to'lov yoki 10 yil ish staji).

Pensiya yoshi erkak va ayollarga 60 yosh. Jamg'armaga 170 mingdan ziyod ishchilar ajratma qiladi. Ularning aksariyati davlat hizmatchilari (prokuratura, kemasozlik, munitsipal fond) hisoblanadi.

G'arb olimlarining fikricha, tabiiy tug'ilish kamayishi va umr ko'rish yoshining ortishi aholining qarishiga sabab bo'lib, mehnat bozoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun pensiyaga chiqish yoshining bosqichma-bosqich me'yorda oshirilishi pensiya fondlari mablag'larini barqaror rivojlanishga olib kelishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Qolaversa, rivojlangan mamlakatlarda aholining o'rtacha umr ko'rish yoshining oshishi va tug'ilishning kamayishi demografik masalalar qatoridan chiqib tobora iqtisodiy muammoga aylanib bormoqda. Xususan, 2000 yilda bir nafar 65 yoshdan oshgan pensioner fuqaroga 4-5 nafar mehnatga layoqatli aholi nisbati to'g'ri kelgan bo'lsa, 2020-2025 yillarga borib ayrim Evropa mamlakatlarida ularning o'rtasidagi nisbat 1:2.5 bo'lishi kutilmoqda.<sup>64</sup> Mazkur holat pensiya ta'minotiga oid xarajatlarni o'sishi pirovardida yaqin kelajakda barqaror moliyalashtirish uchun qo'shimcha moliyaviy manbalarini izlab topishni va davlat pensiya ta'minoti samaradorligini takomillashtirishni taqozo etadi.

Iqtisodiy xamkorlik va rivojlanish tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, Evropa mamlakatlarida yaqin 10-30 yilda pensiya ta'minotiga sarflanadigan o'rtacha xarajatlar YaIMga nisbatan 14-20 foizga etishi taxmin qilinadi. Qolaversa, 2004 yilda 6,4 trln. nafar dunyo aholining 7,3 foizi pensiya yoshidagi fuqarolar tashkil etsa, 2015 yilga kelib 7,2 trln. kishiga yoki ular tarkibida pensionerlar ulushi 8,4 foiz bo'lishi kutilmoqda. (1.1-jadval)

9.1-jadval

**Dunyo aholisi tarkibida 65 va undan katta yoshdagi fuqarolar soni <sup>65</sup>**

Mamlakatlar	Aholining umumiy soni, mln. kishi		65 va undan katta yoshdagilar ulushi (%)	
	2004 y.	2015 y. (prognoz)	2004 y.	2015 y. (prognoz)

<sup>64</sup> Kuznetsova Z. Пенсионная реформа в Чехии: цели и риски. Всплеск. Международное электронное периодическое издание. 9-сон (36), 2014 йил, сентябрь.

<sup>65</sup> Иқтисодий хамкорлик ва ривожланиш ташкilotи [www.oecd.org](http://www.oecd.org) ҳамда Development Human Report 2006. [www.hdr.undp.org](http://www.hdr.undp.org) интернет сайтлари маълумотлари асосида тайёрланди



<i>Jami</i>	6389,0	7219,0	7,3	8,4
Rivojlanayotgan mamlakatlar	5093,0	5885,0	5,4	6,5
Xitoy	1308,0	1393,0	7,5	9,6
Xindiston	1087,0	1260,0	5,2	6,2
Rossiya	143,9	136,7	13,6	14,3
IXTT mamlakatlari	1164,0	1233,0	13,6	16,1
Yaponiya	127,9	128,0	19,2	26,0
AQSh	295,4	325,7	12,3	14,1

Qolaversa xorij ekspertlarining fikricha, 2060 yilga kelib har 3 nafar evropalikning biri 80 yoshni qarshilagan bo'ladi. Ayrim Evropa Ittifoqi davlatlarida iqtisodiy faol aholining rivojlangan mamlakatlarga ko'chib o'tishi natijasida aholining tarkibiy o'zgarishi kuzatiladi. Jumladan, Chexiyada 1 mln. nafar aholi yuqotiladi. Boltiq bo'yi mamlakatlari, Ruminiya va Bolgariyada 2060 yilda 1/3 qism aholisidan mahrum bo'lishi kutiladi, Slovakiya va Polshada 2050 yilda 65 yoshdan yuqori bo'lgan fuqarolar umumiy aholining 36 foizini tashkil etadi.

Evropa statistika tashkiloti bashoratiga ko'ra, keyingi 50 yil davomida Evropa mamlakatlari aholisining qarishi kuzatilib, bunda Chexiya aholisi yoshi yanada tez sur'atlar bilan o'sishi taxmin qilinadi.<sup>66</sup>

Evropa Ittifoqi tarkibidagi Chexiya Respublikasi pensiya tizimida uch bo'g'in: davlat, jamg'ariladigan va xususiy pensiya fondlaridan iborat. Pensiya miqdori asosiy miqdor hamda daromad va ish stajidan shakllanadi.

Chexiyada majburiy sug'urta badallari to'lovchilar 8,5 mln. kishi bo'lib, ulardan 5 mln. nafari yollanma ishchi va xususiy tadbirkorlar tashkil etadi. Davlat pensiyasi uchun pensiya badallarini to'lashda yuqori chegara o'rnatilgan bo'lib, u hozirda 148 440 Chexiya kronni tashkil qiladi. Bu miqdordan oshiq ish haqi oluvchilar faqat shu miqdordagi ish haqlaridan sug'urta badali to'laydi. Bunda ishlovchi 6,5 foiz, ish beruvchi - 25 foiz, xususiy tadbirkor – 29,2 foiz sug'urta badallari to'laydi. Bunda xisoblangan baza 5928 kronadan kam bo'lmasligi kerak, ushbu bazadan kam bo'lsa 1730 krona to'laydi.

Pensiya ta'minoti tizimida uch pensiya turi: yoshga doir, boquvchisini yo'qotganlik va nogironlik pensiyalari mavjud.<sup>67</sup>

Yoshga doir pensiyaga chiqish erkaklar va ayollarga 65 yosh, talab qilingan ish staji 28 yil, bunda kamida 18 yil ish stajiga ega bo'lishi kerak. Pensiya hisoblashning yangi tartibi ishlab chiqilib, unda:

- asosiy belgilangan miqdori 2230 krona;
- o'rtacha ish haqining 11 061 kronagacha 100 foiz;
- o'rtacha ish haqining 11 061 dan 29 159 kronagacha 28 foiz;
- o'rtacha ish haqining 29 159 dan 100 548 kronagacha 16 foiz;
- o'rtacha ish haqining 100 548 kronadan ortiq qismiga 8 foiz hisobga olinadi

hamda umumiy miqdor yillik stajiga qarab 1,5 foizga ko'paytiriladi, aniqlangan summaga 2230 krona qo'shiladi va pensiya miqdori aniqlanadi. O'rtacha ish haqi miqdori tegishli koeffitsientlar bilan oxirgi 15 yillik sug'urta badallari to'langan ish haqidan aniqlanadi.

<sup>66</sup> Европа статистика ташкилоти [www.epp.eurostat.ec.europa.eu](http://www.epp.eurostat.ec.europa.eu) интернет сайти маълумотлари асосида тайёрланди.

<sup>67</sup> Хмыз О.В. Направления интеграции системы пенсионного обеспечения Чехии с европейской. Московский государственный институт международных отношений. 2011.

Yoshga doir pensiya tayinlashda fuqaro belgilangan yoshni muddatidan 3 yil oldin pensiyaga chiqish imtiyozi mavjud, bunda belgilangan yoshni muddatidan 3 yil oldin pensiyaga chiqsa 1,5 foizga, 2 yil oldin chiqsa 1,2 foizga, 1 yil oldin chiqsa 0,9 foizga aniqlangan pensiya miqdoridan xar bir chorak uchun kamaytiriladi.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini tayinlanishda yoshga doir pensiyasini hisoblab chiqish tartibi qo'llaniladi.

Nogironlik uch toifada aniqlanib, pensiya tayinlashda ish staji talab qilinmaydi, lekin 28 yoshdan oshganlarga kamida oxirgi 10 yillikning besh yilida ishlagan bo'lishi shart. Hisoblash tartibi quyidagicha:

➤ asosiy belgilangan miqdori o'rtacha ish haqining 9 foizi yoki 2250 krona belgilangan. O'rtacha ish haqi miqdori tegishli koeffitsientlar bilan oxirgi 15 yillik sug'urta badallari to'langan ish haqidan aniqlanadi;

➤ nogironlik I toifasiga miqdor yillik stajiga qarab 0,5 foizga ko'paytiriladi;

➤ II kategoriyaga yillik stajiga qarab 0,75 foizga ko'paytiriladi;

➤ III kategoriyaga yillik stajiga qarab 1,5 foizga ko'paytiriladi.

Chexiya pensiya tizimida jiddiy tus olayotgan muammo sifatida o'sib boruvchi pensiya xarajatlarini moliyalashtirish hisoblanadi. Hozirda, pensiya xarajatlari YaIMga nisbati 7 foiz bo'lsa, 2060 yilda bu ko'rsatkich 11 foizni tashkil etadi. Shuningdek, 2060 yilda mamlakatning 65 yoshdan yuqori aholi 1,6 mln. dan 3,2 mln. kishiga, 75 yoshlilar 0,7 mln. dan 2 mln. kishiga, 85 yoshlilar 0,2 mln. kishidan 0,7 mln. nafarga etishi kutilmoqda.<sup>68</sup>

Shu nuqtai nazardan, ekspertlarning fikricha, demografik o'sishning salbiy tendentsiyasini o'zgartirish yuzasidan zaruriy pensiya islohotlar amalga oshirilmasa, 2050 yilda Chexiya pensiya tizimi tanazzulga yuz tutadi. Aholi soni 10,5 million, uning 30 foizini pensionerlar tashkil etadi. Bu esa hukumatni pensiya ta'minotini yanada takomillashtirishga undadi.

Mazkur holatni to'g'ri baholagan Chexiya Hukumati 2013 yildan pensiya tizimini qayta isloh qilishning asosiy yo'nalishlarini belgiladi. Islohotlar rejasida, zararli va og'ir mehnat uchun imtiyozlarni bekor qilish, ish yurituvchilar sug'urta badallariga qo'shimcha badallarni kiritish, to'langan badallar va olingan pensiyalar o'rtasida bog'liqlikni kuchaytirish, ijtimoiy sug'urta tizimini rivojlantirish, individual pensiya tizimini kengaytirish, pensiya yoshini erkaklar va ayollar uchun 2015-2020 yillarda 65 yoshgacha oshirish nazarda tutilgan. Mamlakatda boshqa mamlakatlardan farqli ravishda pensiya yoshini yiliga erkaklar uchun 2 oyga, ayollar uchun 4 oyga oshirish mexanizmini ishlab chiqildi. Natijada ayollar bilan erkaklarni pensiyaga chiqish yoshi tenglashadi va umumiy pensiyaga chiqish yoshi oshiriladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, hozirda 40 yoshga to'lgan Chexiya fuqarosi 66 yoshida pensiya yoshiga etadi hamda 1977 yildan keyin tug'ilgan fuqaro 67 yoshda nafaqaga chiqadi. Yakunda 2041 yilga kelib erkak va ayollarning pensiya yoshi tenglashtiriladi. Bugunda 14 yoshga to'lgan chex bolalari 71 yoshga kirganda pensiyaga chiqish, 2012 yilda tug'ilgan chexiyalik 2085 yilda 73 yoshida nafaqaga chiqishi mumkin bo'ladi. Pensiyaga chiqish huquqi paydo bo'ladigan yoshlar tasnifi keltirilgan.<sup>69</sup>

<sup>68</sup> Kuznetsova Z. Пенсионная реформа в Чехии: цели и риски. Всплеск. Международное электронное периодическое издание. 9-сон (36), 2014 йил, сентябрь.

<sup>69</sup> Чехия Республикаси Хукумат сайти [www.vlada.cz](http://www.vlada.cz) маълумотлари асосида тайёрланган.

## **10-MAVZU: YAPONIYA VA JANUBIY KOREYA PENSIYA TIZIMI**

### **Reja:**

- 10.1.Yaponiya pensiya tizimining umumiy xususiyatlari
- 10.2.Yaponiya davlatida nogironlik va boquvchisini yo'qotganligi uchun pensiyalarning xisoblanishi va to'lanishi tartibi
- 10.3.Janubiy koreya davlati pensiya tizimi umumiy xususiyatlari
- 10.4.Janubiy koreya mptning institutsional xarakteristikasi

**TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:** Yaponiya pensiya ta'minoti tizimi, sug'urtalangan shaxslar, xalqaro Mehnat tashkiloti, Aholini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy ta'minot, pensiya tizimlari modellari, xalqaro mehnat tashkiloti, avlodlar birdamligi, xorijiy mamlakatlar pensiya tizimlari, pensiya ta'minoti tizimi, davlatning ijtimoiy siyosati, pensiya ta'minoti, davlat budjeti, davlat pensiya tizimi, nodavlat pensiya tizimi, davlat maqsadli jamg'armalari, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, xalqaro moliya munosabatlari, byudjet tizimi, xalqaro moliya.

### **10.1.Yaponiya pensiya tizimining umumiy xususiyatlari**

Yaponiyada amal qiluvchi pensiya ta'minoti modeli Buyuk Britaniya, Avstraliya va qator Shimoliy Evropa mamlakatlariga ham hosdir. Bu modelda davlat ijtimoiy ta'minoti ustuvor o'ringa ega bo'lib, moliyalashtirish byudjet hisobidan amalga oshiriladi. Boshqa ijtimoiy himoya institutlari etarli darajada rivojlangan bo'lsada, faqatgina qo'shimcha tizimlar rolini bajaradi.

1970 yilda Yaponiyaning 65 yoshdan oshgan aholisi 7%dan oshardi, shu sababli BMT Yaponiyani "qariyotgan" mamlakat sifatida e'tirof etgan. 1990 yilga kelib pensionerlar soni 14,9 millionga etdi, ya'ni aholining 12%ni tashkil qildi. Prognozlariga muvofiq, mazkur tendentsiya 2020 yilgacha saqlanib turadi va u paytga kelib 65 yoshdan oshgan aholi 25,5%ni tashkil qiladi. yaponiya pensiya invalidnost byudjet

Bunday demografik vaziyatda pensiya to'lash xarajatlarining o'sishi tabiiy holdir. Faqat 1994 yilning o'zida 1993 yilga nisbatan pensiya xarajatlari 7,9%ga oshdi va 37,3058 yenni tashkil qildi (ijtimoiy ta'minot sohasiga ajratilgan jami harajatlarning 60%ni tashkil qildi). Ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan xarajatlar yuki og'irlashib, pensiya tizimida islohotlarni amalga oshirish masalasining dolzarbligini yanada oshib bordi.

Yaponiyada so'nngi pensiya tizimi islohoti 1985 yilda amalga oshirilgan. Mazkur islohot faqat 1926 yil 2 apreldan keyin tug'ilgan shaxslarni qamrab oldi. Islohotning asosiy natijasi bazaviy pensiyalarni joriy qilinishi bo'ldi. Hozirda Yaponiyada 2 bosqichli pensiya tizimi amal qiladi. Birinchi bosqichni bazaviy pensiyalar tashkil qilsa, ikkinchi bosqichni davlat va professional pensiyalar tashkil qiladi.

1986 yil 1 apreldan millati, jinsi, faoliyat turi, daromadlari darajasi va boshqa omillardan qat'i nazar barcha shaxslar qarilik, nogironlik va boquvchisini yo'qotganligi bo'yicha bazaviy pensiya olish huquqiga ega bo'ldilar.

Qarilik bo'yicha pensiya to'lash huquqi 2 shartga asosan aniqlanadi – qonunda belgilangan 65 yoshga etish va sug'urta stajiga ega bo'lish.

O'zgaruvchan (moslashuvchan) pensiya yoshi mexanizmi ham qo'llanilib, unga ko'ra 60-64 yoshli fuqarolar pensiyaga ketganda uni qisqartirilgan hajmda oladilar. 65 yoshdan keyin ishlashni davom ettirgan shaxslarning pensiyalari har yili oshiriladi.

Sug'urta staji deganda majburiy pensiya badalini to'lash davomiyligi tushuniladi. Sug'urta stajini hisoblaganda fuqaro amalda majburiy pensiya badalini to'lab borgan muddat davomiyligi bilan birga sug'urtalangan shaxs qonunchilikda belgilangan uzurli sabablarga ko'ra badalni to'lashdan ozod etilgan vaqt ham inobatga olinadi (masalan, vaqtincha ishga layoqatsizlik sababli). Majburiy pensiya sug'urtasini to'layotgan turmush

o'rtog'ining qaramog'ida bo'lgan vaqt ham sug'urta stajiga kiritiladi. Biroq ta'kidlash joiz, bazaviy pensiya miqdori aniqlanayotganda amalda to'langan badallar muddati to'liq hajmda inobatga olinadi, yuqorida keltirilgan "to'lovdan ozod etilgan davr"ning esa faqat 1/3 qismi hisobga olinadi. Qarilik bo'yicha pensiya olish huquqini beruvchi sug'urta stajining minimal davomiyligi 25 yilga, maksimal davomiyligi esa 40 yilga teng.

Bazaviy pensiyalarni moliyalashtirish manbai sug'urtalangan shaxslar, ish beruvchilaning pensiya badallari va davlatning dotatsiyalari hisoblanadi. Davlat tomonidan bazaviy pensiya xarajatlarining 1/3 qismi qoplanadi.

Bazaviy pensiyadan tashqari yollanma ishchilar qo'shimcha ravishda davlat va professional pensiya oladilar.

Qo'shimcha davlat pensiyasini olish huquqiga ega bo'lish uchun barcha yollanma ishchilar majburiy pensiya sug'urtasini to'lashlari kerak. Badallar va pensiyalar o'rtacha oylik ish haqiga mutanosib ravishda hisoblab chiqiladi. Hisoblash jarayonida oylik ish haqi, mukofot pullari, pul yoki natural ko'rinishdagi nafaqa va qilingan mehnat uchun boshqa turdagi pul mukofotlari inobatga olinadi (rag'batlantiruvchi xarakterga ega doimiy to'lanadigan premiyalar hisobga olinmaydi).

Qarilik bo'yicha bazaviy pensiya olish uchun etarli sug'urta stajiga ega bo'lgan 65 yoshga kirgan erkaklar qarilik bo'yicha qo'shimcha pensiya olish huquqiga egalar.

Bazaviy pensiya asosiy hayotiy ehtiyojlarni qondirishga etadigan miqdorda har yil qat'i belgilanadi. O'tgan yilgi iste'mol narxlarini indeksi o'sishiga muvofiq har yil 1 apreldan pensiya miqdori oshiriladi.

Pensioner qaramog'ida 65 yoshdan yuqori yoshli turmush o'rtog'i bo'lsa, unda bazaviy pensiyaga ustama haq belgilanadi.

Nogironlik bo'yicha pensiya majburiy pensiya sug'urtasini to'layotgan 20-60 yoshli shaxslarga beriladi. Shuningdek, tibbiy ko'rik natijasida nogironlik tashhisi qo'yilgan vaqtda Yaponiyada yashab turgan 60-64 yoshli shaxslarga ham nogironlik bo'yicha pensiya to'lanadi. Nogironlik bo'yicha pensiya maksimal miqdorda to'lanishi uchun, nogironlik tashhisi qo'yilgan vaqtda shaxsning sug'urta staji qarilik bo'yicha bazaviy pensiya olish uchun kerakli sug'urta stajining 2/3 qismini tashkil qilishi kerak.

18 va 20 yoshgacha bo'lgan va nogironlik bo'yicha pensiya olayotgan bolalarning pensiyalariga ustama haq belgilanadi. Ustama haq miqdori bolalar soniga qarab belgilanadi.

Agar pensioner belgilangan miqdordan yuqori daromadga ega bo'lsa, yoki kattaroq miqdorda yana bir boshqa pensiya olish huquqiga ega bo'lsa nogironlik bo'yicha bazaviy pensiya to'lash to'xtatiladi.

Boquvchisini yuqotganlik bo'yicha bazaviy pensiya olish huquqiga 18 yoshga kirmagan bolasi yoki 20 yoshga etmagan nogiron bolasi bor beva va uni bolalari ega hisoblanadi. Bundan tashqari, mazkur pensiya marhum qaramog'ida bo'lgan 60-64 yoshli shaxslarga beriladi.

Boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha bazaviy pensiya to'lanishi uchun, olamdan o'tgan shaxsning nogironlik bo'yicha bazaviy pensiya olish uchun kerakli sug'urta staji, yoki qarilik bo'yicha bazaviy pensiya olish uchun talab qilinadigan minimal sug'urta staji (25 yil) ga teng sug'urta staji bo'lishi kerak. Bu vaziyatda, agar er-xotin 10 yildan kam bo'lmagan muddatda oila qurgan bo'lsa bevaga qarilik bo'yicha bazaviy pensiyaning 75% to'lanadi.

Qolgan hollarda boquvchisini yuqotganlik bo'yicha pensiya o'zgarmas aniq belgilangan miqdoda to'lanadi.

Yaponiyada davlat pensiya fondi va boshqa jamoat pensiya fondlari to'g'risida umumiy ma'lumotlar

(1) Yaponiyada yashayotgan yoshi 20 yoshdan katta va 60 yoshdan kichik bo'lgan shaxslar, qonun bo'yicha davlat pensiya sug'urta tizimiga a'zo bo'lishi va pensiya badallarini to'lashlari kerak.

- (2) Jamoat pensiya tizimi avlodlarning o'zaro qo'llab-quvvatlashi mexanizmiga asoslanib ish yuritadi.
- (3) Jamoat pensiya sug'urtasida, qarilik bo'yicha pensiyadan tashqari, shuningdek, nogironlik, boquvchisini yuqotganlik bo'yicha pensiyalar mavjud. (4) Davlat pensiya sug'urtasi tizimida pensiya to'lash xarajatlarining bir qismi davlat zimmasida bo'ladi.
- (5) davlat pensiya sug'urtasi bo'yicha to'langan barcha pensiya ijtimoiy sug'urta badali sifatida to'lanadigan daromadlar hisobidan to'lanadi.

Davlat pensiya sug'urtasi tizimi ishtirokchilari va a'zo bo'lish jarayoni

Davlat pensiya sug'urta tizimi ishtirokchilari 3 toifaga bo'linadi, va tizimga a'zo bo'lish jarayoni quyidagi punktlarni o'z ichiga oladi.

(1) 1-toifali pensiya sug'urtasi tizimi ishtirokchilari

Yoshi 20 yoshdan katta va 60 yoshdan kichik bo'lgan, 2 va 3-toifa ishtirokchilariga to'g'ri kelmaydigan shaxslar.

→ pensiya sug'urtasi tizimi ishtirokchilarining 1-toifasiga mos keladigan chet el fuqarolari, mahalliy munitsipalitetda rezident kartasini rasmiylashtiradilar, va huddi shu munitsipalitetning tegishli bo'limida davlat pensiya fondiga a'zo bo'ladilar.

→ Yaponiya fuqaroligini olish va fuqarolikka qabul qilinish rasmiyatchiliklarini amalga oshirishda ham huddi shu jarayonlardan o'tiladi.

→ Har oylik pensiya badali "The Japan Pension Service (JPS)"dan jo'natilgan to'lov kvitantsiyasidan foydalangan holda to'lanadi.

(2) 2-toifali pensiya sug'urta tizimi ishtirokchilari

Yollanma ishchilar uchun pensiya sug'urtasi tizimi ishtirokchilari hisoblanuvchi kompaniya, zavod va boshqalarda ishlaydigan shaxslar.

→ A'zo bo'lish jarayonini ish beruvchi amalga oshiradi, shuning uchun sug'urtalangan shaxsning shaxsan o'zi rasmiyatchiliklardan o'tishi shart emas.

→ Sug'urta badallari oylik ish haqidan ushlab qolinadi va ish beruvchi tomonidan to'lanadi.

(3) 3-toifali pensiya sug'urtasi tizimi ishtirokchilari

Pensiya sug'urtasining 2-toifali ishtirokchilari qaramog'ida bo'lgan yoshi 20 yoshdan katta va 60 yoshdan kichik bo'lgan er-xotinlar.

→ A'zo bo'lish jarayoni er yoki xotin ishlaydigan kompaniyadagi ishberuvchi orqali amalga oshiriladi, ya'ni pensiya sug'urtasining 2-toifali ishtirokchisi yordamida.

→ Sug'urta badallari olinmaydi. Badallar pensiya sug'urtasining barcha 2-toifali ishtirokchilari hisobidan to'lanadi.

Pensiya daftarchasi

Davlat pensiya fondiga a'zo bo'lish jarayonlari yakunlanganidan so'ng pensiya daftarchasi taqdim etiladi. Pensiya daftarchasi pensiya olayotganda muhim o'rin tutadi, shuningdek maslahat so'rab murojaat qilganda shaxsni tasdiqlovchi xujjat sifatida muhim rol o'ynaydi. Pensiya daftarchasini yuqotib qo'ygan 1-toifali ishtirokchilar "JPS Branch Office" yoki yashash joyi bo'yicha munitsipalitetega murojaat etishlari kerak, 2 va 3-toifali ishtirokchilar esa ish beruvchilari orqali ariza bilan murojaat qilishlari kerak.

### **Har oylik pensiya badali**

2013 yil apreldan 2014 yil martgacha bo'lgan davrda davlat pensiya fondiga to'lanadigan oylik pensiya badali 15040 yenni tashkil qilgan. Pensiya badalini to'lash naqd pulda banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlar, pochta bo'limlari, kunu-tun ishlaydigan do'konlar va boshqa to'lov qabul qilish punktlarida amalga oshiriladi. Shuningdek, naqd pulsiz to'lov shakli ham bo'lib banklararo o'tkazmalar yoki internet orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari, pensiya badalini ma'lum davr uchun oldindan to'lab qo'yganlar uchun imtiyozli chegirmalar tizimi ham mavjud. Bunda, agar oldindan to'lovchilar pensiya badalini banklararo o'tkazmalar orqali to'lasalar ular uchun chegirmalar naqd pulda oldindan to'laydiganlarga nisbatan yuqoriroq bo'ladi.

Sug'urta badallarini to'lash bilan bog'liq qiyinchiliklar yuzaga kelsa (sug'urta badallaridan ozod etish tizimi)

Daromadning yuqori emasligi sababli sug'urta badalini to'lash bilan qiyinchiliklar yuzaga kelganda, sug'urtalangan shaxslar mahalliy munitsipalitetlarga sug'urta badalini to'lashdan ozod etishni so'rab murojaat qilishlari mumkin. "JPS Branch Office" tomonidan murojaat qilgan shaxsning daromadi o'rganib chiqilib, uning talabi qondiriladigan taqdirda, u pensiya badalini to'lashdan qisman yoki to'liq ozod etiladi. Pensiya badalini to'lashdan ozod etish tizimining turlari, pensiya badalini to'liq yoki qisman to'laganda, yoki to'lovdan ozod etish muddatiga qarab qarilik bo'yicha bazaviy pensiya miqdoridagi o'zgarishlar 1-jadvalda ko'rsatilgan.

#### 10.1-jadval.

##### Pensiya badalini to'lashdan ozod etish tizimi

Pensiya badalini to'lashdan ozod etish tizimining turlari	Sug'urta badali miqdori	Qarilik bo'yicha bazaviy pensiya miqdori
To'lovdan to'liq ozod etish	0 yen	4/8
Badalning $\frac{1}{4}$ qismini to'lash (badalni $\frac{3}{4}$ qismini ozod etish)	3760 yen	5/8
Badalni yarmini to'lash (badalni yarmini to'lashdan ozod etish)	7520 yen	6/8
Badalni $\frac{3}{4}$ qismini to'lash (badalni $\frac{1}{4}$ qismini to'lashdan ozod etish)	11280 yen	7/8
Yoshlar uchun badal to'lashni kechiktirish	0 yen	0
Talabalar tomonidan badal to'lanishi	0 yen	0

#### 10.2.Yaponiya davlatida nogironlik va boquvchisini yo'qotganligi uchun pensiyalarning xisoblanishi va to'lanishi tartibi

Nogironlik bo'yicha pensiya miqdori qarilik bo'yicha qo'shimcha pensiyani hisoblash formulasi bo'yicha hisoblanadi. 1-guruh nogironlariga pensiya 25%ga oshiriladi. 3-guruh nogironlari uchun minimal pensiya miqdori tasdiqlangan minimumdan kam bo'lishi mumkin emas. Qarilik bo'yicha bazaviy pensiyaga belgilangan ustama haq miqdorida nogironlik bo'yicha qo'shimcha pensiyaga ham ustama haq belgilanadi (65 yoshga etmagan turmush o'rtoqqa, 18 yoshga etmagan bolalarga, 20 yoshga to'lmagan nogiron bolalarga).

Nogironlik yuz berganda ham qo'shimcha pensiya to'lanadi. Agar bazaviy pensiya faqat 1 va 2-guruh nogironlariga to'lansa, nogironlik bo'yicha qo'shimcha pensiya 3-guruh nogironlariga ham to'lanadi.

Quyidagi shaxslar boquvchisini yuqotganlik bo'yicha qo'shimcha pensiya olish huquqiga egalari:

- bolali beva ayollar;
- bolasiz beva ayollar;
- bolasiz beva ayollar va erkaklar;
- hozirda marhum odamning qaramog'ida bo'lgan ota-onalar, nevaralar, buvi va buvalar.

Bolalar va nevaralarga ular 18 yoshga to'lganga pensiya qadar to'lanadi, nogironlarga – 20 yoshgacha. Beva ayollar, beva erkaklar, buvi va buvalarga pensiya to'lanishi uchun, ularning boquvchisi olamdan o'tgan kunda ular 55 yoshga to'lgan bo'lishlari kerak.

Boquvchisini yuqotganlik bo'yicha pensiya navbat qoidasini qo'llagan holda to'lanadi: birinchi navbatda bolali beva ayolga, beva ayol bo'lmagan taqdirda uning

bolalariga va hokazo. Birinchi navbatdagi boquvchisini yuqotganlar mavjud bo'lib turganda ikkinchi navbatdagi boquvchisini yo'qotganlarga pensiya to'lanmaydi.

Boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha qo'shimcha pensiya qarilik bo'yicha qo'shimcha pensiyaning 75% miqdorida hisoblanadi. Turmush o'rtog'i olamdan o'tgan kunda yoshi 35 yoshdan yuqori bo'lgan bolasiz beva ayollarga maxsus har yillik ustama haq to'lanadi. Bu ustama haq beva ayol 40 yoshga to'lganda tayinlanadi va 65 yoshigacha to'lab boriladi.

Qo'shimcha pensiyalarni moliyalashtirish manbai majburiy pensiya sug'urtasini to'layotgan shaxslar va ish beruvchilar badallari hisoblanadi. Badal stavkasi ish beruvchi va sug'urtalangan shaxs o'rtasida teng taqsimlanadi. 1996 yil oktyabrda qo'shimcha davlat pensiyasiga badal sug'urtalangan shaxsning o'rtacha oylik ishhaqining 17,35%ni tashkil qilgan. Dengizchilar, shaxtada ishlovchilar va ayrim boshqa sohalarda faoliyat yuritayotgan shaxslar uchun maxsus pensiya badallari belgilanadi.

## **1. Janubiy Koreya davlati pensiya tizimi umumiy xususiyatlari**

Koreyada milliy pensiya tizimi 1988 yilda joriy etilgan. Shundan buyon bu tizim sezilarli darajada rivojlandi va jahondagi 4ta eng yirik davlat pensiya fondlaridan biri sifatida e'tirof etildi. Hozirgi vaqtda aholining 40%i qariyalar va muhtojlarni ijtimoiy ta'minlash tizimi sifatida chuqur ildiz otgan KMPT (Koreya milliy pensiya tizimi) sxemasi bo'yicha sug'urtalangan. Shuningdek, Koreya statistika qo'mitasi tadqiqotlariga ko'ra, KMPT 1955 va 1963 yillarda tug'ilgan 38,5% aholining pensiya daromadlarining yagona manbai hisoblanadi ([www.kostat.go.kr](http://www.kostat.go.kr)). Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (IHHT) a'zo mamlakatlar orasida Koreyada aholining qarishi tez sur'atlarda o'sib bormoqda, Koreyada aholi qarishi tezligi hatto Yaponiyadan baland hisoblanadi. Koreya statistika qo'mitasi (KOSTAT) ma'lumotlariga ko'ra, 2000 yilda 65 yoshdan yuqori aholi soni 7,2%ni tashkil qilgan, prognozlariga ko'ra 2020 yilda bu raqam 15,1%ni tashkil qiladi. Aholining tez sur'atlarda qarib borishi sababli uzoq umr ko'rish riski oshadi, ya'ni resurslardan birini yuqotish riski (MacMinn et al. 2006; Stallard 2006). Shunday ekan, KMPT Koreya pensionerlarini uzoq umr ko'rish riskidan himoya qilishning muhim manbai bo'lib, shuningdek, progressiv foyda formulasi yordamida daromadlarni qayta taqsimlovchi ijtimoiy sug'urta tizimi hisoblanadi.

Aksariyat tadqiqotlar Koreya milliy pensiya tizimida daromadlarni qayta taqsimlashning progressiv ta'sirini aniqladilar (masalan, Lee, 2006; Chung and Lee, 2008).

Koreyada 4 ta asosiy davlat pensiya dasturlari mavjud: bular, davlat xizmatchilarning pensiya ta'minoti sxemasi, xarbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti sxemasi, xususiy maktab o'qituvchilari pensiya sxemasi va milliy pensiya tizimi (MPT), ta'kidlash joiz MPT ishtirokchilar soni va mablag' hajmi bo'yicha eng yirigi hisoblanadi. MPT tarixi 1973 yildan, ya'ni prezident Park Chon Xi xokimiyati davrida (1962-79) Milliy pensiya ta'minoti tizimi to'g'risidagi qonunning (MPTTQ) qabul qilinishi bilan boshlangan. Biroq, neft mahsulotlari narxlarining keskin o'zgarishi va undan keyin boshlangan inqiroz kabi iqtisodiy sabablar tufayli MPQning amaldagi ijrosi 1988 yilgacha kechiktirildi. Koreya iqtisodiyoti tiklanganligi, va mamlakatda 1980-yillarda demokratik xarakterli tashkil etilib turli konfliktlar yuzaga kelganligi sababli, prezident Chon Du Xvan (1980-1987) MPTTQni amalga oshirilishini tasdiqladi. Hukumat dastlabki milliy pensiya qonunini konservativ asosda qayta ko'rib chiqdi va 1988 yilda MPT (NPS) nomini olgan majburiy pensiya sxemasini joriy etdi (National Pension Corporation, 1998a, pp. 121–123; Yang, 2000, pp. 106–115).

Koreya milliy pensiya sxemasi (MPT) kasb-hunarlarining integratsiyalashgan modeli sifatida, ya'ni davlat xizmatchilari va ishchilar, fermerlar, baliqchilar va xususiy tadbirkorlarni yagona tizim ostida birlashtirdi. Buning sababi shunda ediki, kompaniyalar tomonidan kooperativ yoki ixtiyoriy pensiya sxemasi, kasaba uyushmasi yoki jamoasini tashkil etishning ijtimoiy asosi mavjud emasdi, chunki Koreya urushi (1950-1953)

davomida kooperativlarning ijtimoiy strukturasi va kasaba uyushmalar tugatilgan edi. 1970-yillarda Milliy pensiya sxemasini joriy etish masalasi hukumat tomonidan jiddiy muhokama qilinganida, shu sababli, kasaba uyushmasi dasturlarini joriy etish borasida ijtimoiy bosim kuzatilmagan. Bundan tashqari, MPT davlatning ichki mablag' yig'ilishiga bo'lgan ehtiyojni qondirishga xizmat qilardi (National Pension Corporation, 1998a).

Bu vaqtda, Koreya, yirik investitsiya ehtiyojlariga javob berish uchun katta resurs mobilizatsiyasini talab qiluvchi agressiv (tajovuskor) rivojlantirish dasturini amalga oshirishni boshladi. Iski resurslar mobilizatsiyasini amalga oshirish uchun, bir nechta pensiya ta'minoti sxemalaridan ko'ra yagona Milliy pensiya sxemasini tashkil etish maqsadga muvofiq edi.

Dastlabki MPT rejasiga muvofiq, faqat 10tadan ko'p ishchiga ega bo'lgan firma xodimlari mazkur tizimga kiritilgan bo'lsa, keyinchalik, 1995 yilda qishloq joylardagi xususiy tadbirkorlar, shaharlardagi xususiy tadbirkorlar, 1999 yildan boshlab 4tadan kam ishchiga ega bo'lgan kichik firmalar xodimlari MPTga kiritilgan. Shunday qilib, Koreyada ishchilar va xususiy tadbirkorlarni yagona pensiya sxemasi ostida birlashtiruvchi yangi pensiya ta'minoti davri boshlandi. Biroq, bu tizimga davlat xizmatchilari, harbiy xizmatchilar va xususiy maktab o'qituvchilari kiritilmagan bo'lib, ularni boshqa bir uchta pensiya ta'minoti sxemalari o'z ichiga olardi.


MPT joriy etilganidan 10 yil o'tib, mazkur pensiya ta'minoti sxemasi bo'yicha 2 bosqichda jiddiy islohotlar amalga oshirildi. Islohotlarning birinchi bosqichi 1997-98 yillarga to'g'ri keladi; ikkinchi bosqichi 2002 yilda boshlangan bo'lib hozirgi vaqtga qadar davom etmoqda. Mazkur islohotlarni amalga oshirilishining asosiy sababi uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik muammolarini hal qilish edi. Birinchi pensiya islohoti davomida MPT fondi mablag'lari 2030 yilga kelib tugashi, shuningdek, qamrab olishni kengaytirish masalalarini hal qilishga e'tibor qaratilgan.

Biroq, pensiya islohotining birinchi bosqichida aholining qarishi masalasiga dolzarb muammo sifatida qaralmagan. Mazkur islohot doirasida, imtiyozlarni qisqartirish va pensiya tizimi strukturasi bir pog'onalidan ko'p pog'onali strukturaga o'tkazish masalasi jiddiy muhokamalarga sabab bo'lgan. MPT mablag'lari 2040 yil oxiriga kelib iste'mol qilinib bo'lishi sababli, islohotning ikkinchi bosqichida, uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalasiga jiddiy e'tibor qaratilgan. Tug'ilish darajasining keskin pasayishi va yoshi katta aholi sonining jadal o'sishi barqarorlikni ta'minlash muammosini yanada chuqurlashtiradi.

Jahon banking ta'kilashicha (2000) Koreya pensiya tizimini chorraxada joylashgan deb aytish mumkin. O'tmishda pensiya islohotlariga oid munozara va muhokamalar faqat tadqiqotchilar va hukumat doirasida amalga oshirilgan bo'lsa, doimiy yig'iladigan fond resurslari, pensionerlarning soni oshishi, internet paydo bo'lishi bilan ma'lumotlar olish imkoniyati engillashgani tufayli pensiya tizimi milliy darajada muhokama qilina boshlandi.

Koreyada pensionerlar daromadlarini himoya qilish 4ta davlat pensiya ta'minoti tizimi, xususiy sektorning doimiy ishchilari uchun pensiya nafaqasi tizimi, past daromadga ega yoshi kattalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimlaridan tashkil topadi (1-Rasmda ko'rsatilgan).





**1-Rasm. Koreya davlati pensiya tizimi elementlari.**

Davlat pensiya tizimi 3ta pensiya sxemasidan iborat: Harbiylarning pensiya ta'minoti sxemasi (HPTT), davlat xizmatchilarining pensiya ta'minoti sxemasi (DXPT) va xususiy maktab o'qituvchilari pensiya ta'minoti sxemasi (XMO'PT). Davlat xizmatchilarining pensiya ta'minoti sxemasi 1960 yilda birinchi bo'lib joriy etilgan. 2000-yilda mazkur sxemaning 913 192ta ishtirokchilarga va 160 721 pensiya oluvchilarga ega bo'lgan. 1963 yilda joriy etilgan harbiylarning pensiya ta'minoti sxemasi 200 000 ishtirokchilarga ega, xususiy maktab o'qituvchilari pensiya ta'minoti sxemasi 1975 yilda joriy etilgan bo'lib 216 362ta ishtirokchilarga va 14 639ta pensionerlarga ega. 2002 yilda mazkur uchta pensiya sxemasidan yig'ilgan ish haqi badallari 17 %ni tashkil qildi.

MPT Koreyaning eng yirik pensiya sxemasi hisoblanib, 16,5 million ishtirokchilarni o'z ichiga oladi. 2002 yilni oxiriga kelib MPT 6 millionta ishchilar(38,1%), 2 millionta fermerlar, baliqchilar va hududiy ishtirokchilar (12,1%), va 8 millionta qishloq joydagi xususiy tadbirkorlarni (48,5%) pensiya bilan ta'minladi (National Pension Corporation, 2003). MPT nisbatan yosh pensiya sxemasi ekanligi, ya'ni 15 yillik tarixga egaligi sababli u 1 millionta pensionerlarga ega (2003 yil ma'lumotlari).

MPT joriy qilingan davrda, pensiya nafaqasi tizimi 5tdan ortiq ishchiga ega xususiy kompaniyalarda doimiy ishlaydigan xodimlarga amal qilgan. 6 millionga yaqin ishchilar (48%i yollanma ishchilar) mazkur pensiya nafaqasini olish huquqiga ega bo'lganlar. MPT joriy etilishidan oldin, hattoki MPT amal qilishining dastlabki yillarida, pensiya nafaqasi yoshi kattalarning asosiy daromad manbai hisoblangan. Pensiya nafaqasi tizimi doirasida ish beruvchilar har yil bir oylik ish haqiga teng mablag'ni to'laydilar (bu har oylik maoshning 8,3%ni tashkil qiladi). MPT va pensiya nafaqasi tizimi pensionerlarning asosiy daromad manbai hisoblanganligi sababli, bu jihat pensiya islohoti davrida istiqbolda mazkur ikki pensiya sxemasining roli borasida murakkab muammolarga sabab bo'ldi.

## **2. Janubiy koreya mptning institutsional xarakteristikasi**

Davlat pensiya sxemalari 2 hil turga bo'linadi: Bismark va Beveridj modeli. Bismark turining asosiy jihati badallar yordamida moliyalashtirish hisoblanib, bu

model mehnat bozoridagi ishtirok orqali pensiya daromadini ta'minlab beradi (Bonoli, 2000, pp. 9–13), MPTni Bismark pensiya sxemasi modeliga kiritish mumkin. Bismark pensiya sxemasi bilan MPT o'rtasidagi farq shundaki Evropada aksariyat pensiya tizimlari Bismark modeliga muvofiq (ostida) joriy etilgan bo'lsa, MPT turli kasb guruhlarini qamrab oladi, ya'ni yollanma ishchilar, fermerlar, baliqchilar va xususiy tadbirkorlarni bir tizim ostida birlashtiradi (integratsion pensiya sxemasi).

Ikkinchidan, MPT bir (mono)-pog'onali pensiya sxemasi bo'lib, unda bazaviy pensiya va daromadga-bog'liq pensiya bir tizimga integratsiyalashgan. Bazaviy pensiya sxemasi va daromadga-bog'liq pensiya sxemasini o'z ichiga oluvchi Shvetsiya, Yaponiya va Buyuk Britaniyadagi ikki pog'onali pensiya tizimlaridan farqli ravishda, MPT yagona foyda formulasiga ega bo'lib, daromadlarni qayta taqsimlash elementini va daromadga-bog'liq funktsiyani birgalikda o'z ichiga oladi. Mazkur tizim bazaviy pensiya sxemasiga ega bo'lgan Germaniya va AQSh pensiya tizimlariga o'xshashdir.

MPTning uchinchi muhim jihati uning progressiv xarakteridir. MPT past daromadga ega shaxslar manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuzilgan bo'lsada, shu bilan birga yuqori daromadga ega shaxslar manfaatlarini ham himoya qiladi. Haqiqatda, barcha turdagi aholi gurug'lari daromadlari uchun MPT formulasida xarajat-foйда nisbati 1 dan yuqoridir. 1999 yilda o'rtacha daromadga ega yangi ishtirokchi uchun xarajat-foйда nisbati 1.61ga teng bo'lgan, o'rtacha daromadning 2 barobariga ega ishtirokchilar uchun esa 1.21ga teng bo'lgan (Kim, 2001a, p. 100). Bu borada, aytish mumkinki MPT joriy davr avlodini kelgusi davr avlodi subsidiyalari hisobidan pensiya bilan ta'minlash maqsadida shakllantirilgan. Mazkur taklif qilinayotgan kelgusi avlod subsidiyalari, pensiya islohotlarini muhokama qilish jarayonida avlodlararo adolat masalasini ko'tardi va bu omil pensiya intiyozlarini qisqartirishga bosim o'tkazdi.

MPTning asosiy daromad manbai ishtirokchilar to'laydigan badallar hisoblanadi. Badal stavkasi 9%ni tashkil qiladi, va ishchilar hamda ish beruvchilardan o'rtasida bu to'lov teng darajada taqsimlanadi. Biroq xususiy tadbirkorlar, norasmiy ishchilar, 5 kishidan kam ishchiga ega tashkilotlarning yollanma ishchilari uchun mazkur qoida istisno bo'lib, ular badalni to'liq hajmda to'laydilar. Ish beruvchilar pensiya nafaqasi uchun MPT tashkil etilishidan oldin badallarni to'lay boshlaganlari sababli, qo'shimcha badal majburiyati ular uchun ikki hissa og'ir (yuk) bo'lishini ta'kidlab e'tiroz bildirganlar (National Pension Corporation, 1998a, p. 128). Natijada, MPTning moliyalashtirilishi sxemasi shunday tarzda ishlab chiqildiki, bunda moliyaviy majburiyatlar ishtirokchilar (1/3 qismi), ish beruvchilar (1/3) va ish beruvchilarning pensiya nafaqasiga to'lovlari (1/3) o'rtasida teng taqsimlanadigan bo'ldi. Aslida ham, 1998 yilda amalga oshirilgan pensiya islohotlari natijasida belgilangan 9% badal to'lovini 3% ishchilar to'lovlari, 3% ish beruvchilarning MPTga badallari, va 3% ish beruvchilarning pensiya nafaqasi uchun to'lovlari tashkil qilishi nazarda tutilgan.

## 11-MAVZU: “XITOIY PENSIYA TIZIMI”

### Reja:

- 11.1. Xitoyning shahar va qishloq joylarida keksalarni himoya qilish tizimi.
- 11.2. Shahar keksalarini ijtimoiy himoya qilish sistemasidagi islohotlar.
- 11.3. Milliy ijtimoiy himoya fondi

**TAYANCH SO’Z VA IBORALAR:** Xitoy pensiya ta’minoti tizimi, sug’urtalangan shaxslar, xalqaro Mehnat tashkiloti, Aholini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy ta’minot, pensiya tizimlari modellari, xalqaro mehnat tashkiloti, avlodlar birdamligi, xorijiy mamlakatlar pensiya tizimlari, pensiya ta’minoti tizimi, davlatning ijtimoiy siyosati, pensiya ta’minoti, davlat budjeti, davlat pensiya tizimi, nodavlat pensiya tizimi, davlat maqsadli jamg’armalari, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, xalqaro moliya munosabatlari, byudjet tizimi, xalqaro moliya.


### 11.1.Xitoyning shahar va qishloq joylarida keksalarni himoya qilish tizimi.

Ko’plab mamlakatlar kabi Xitoy ham aholi tarkibida keksa yoshlilarning tez suratlarda o’sishiga yuzlashmoqda. Aslida Xitoyda bu borada boshqa mamlakatlarga qaraganda o’sish surati ancha tezroq. 1990-yillarda Xitoy aholisining bor yo’g’i 9 % i 65 yoshdan oshganlar bo’lgan bo’lsa, 2030-yilgacha bu ko’rsatkich ikki barobarga oshishi kutilmoqda. Bu holat o’z o’zidan ishchi kuchining yetishmovchiliga va aholi reproduktiv ko’payishi muammolariga olib keladi. Bundan tashqari pensiya majburiyatlarining bunaqa tez oshib borishi pensiya tizimida muammolarga sabab bo’lmoqda.<sup>70</sup>

Xitoy pensiya sistemasi Shahar va Qishloq keksalarini himoya qilish va ommaviy ish bilan taminalsh kabi uchta tizimdan tashkil topgan. Xitoy pensiya sistemasi shahar ishchilari uchun yuqori qoplash ko’ffisientiga ega lekin qishloq fermerlari uchun bu ko’rsatkich ancha past. Bunaqa ikki tizimdagi katta tafovutlar yersiz fermerlarga katta bosim yuklayapti. Shuning uchun Xitoy o’zining keng iqtisodiy va ijtimoiy tranzaksiyalarini taminlovchi institutsional yordam beruvchi malum islohotlar o’tkazishi lozim.

### 11.1-jadval.

**Mamlakat aholisining 65 yoshdan katta bo’lgan qismi. jami aholiga nisbatan foizda.**



Qishloq aholisi pensiya tizimi 2009-yilda boshlangan, qatnashish ixtiyoriy hisoblanib, amalga oshirish mahalliy hukumatga topshirilgan. Har bir fuqaro 55 RMB (9 \$)

<sup>70</sup> Estelle James Consultant. HOW CAN CHINA SOLVE ITS OLD AGE SECURITY PROBLEM? THE INTERACTION BETWEEN PENSION, SOE AND FINANCIAL MARKET REFORM. World Bank To be presented at the Conference on Financial Sector Reform in China. September 11-13, 2001.


miqdorida pul to'laydi va 60 yoshdan so'ng har oyda 100 dan 500 RMB gacha pensiya oladi. 2013-yilning oxirigacha bu sistemada 500 milliondan ortiq odanlarni qamrab oldi.

Shahar ijtimoiy sug'urta pensiya jamg'armasi 320 million ishtirokchilarni qamrab oladi va ulardan 80 millioni nafaqadagilar hisoblanadi.

### 11.2. Shahar keksalarini ijtimoiy himoya qilish sistemasidagi islohotlar.

Rejalashtirilgan iqtisodiyot davrida ishlab chiqaruvchilar yoki ishni tashkil qiluvchilar shahar ishchilariga pensiya bilan taminlashi majburiy edi. O'sha paytlarda hukumat barcha ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy holati ularning daromadi, xarajatlari, foyasi va zararlarini nazorat qilardi. Ishlab chiqaruvchilar o'z ishchilarini ishlagan davriga qarab malum miqdorda pensiya to'lab borishga o'zlari javobgar edilar.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan 1970-yillardagi islohotlar oldingi pensiya tizimining asosini o'zgartirdi. 1980-yillardagi davlat korxonalarida umrbod ishlashning bekor qilinishi va korxonalar masuliyatining kiritilishi nafaqat davlat va ishlab chiqaruvchilar balki korxonalar va ishchilar o'rtasidagi aloqalarni ham o'zgartirdi. Hamma daromadni davlatga to'lash o'rniga daromad solig'i to'lash va foydani bo'lishish joriy qilingach, korxonalarda ishchilarini pensiya bilan taminlash majburiyati qisman saqlanib qoldi. "Korxonalar pensiya tizimidagi islohotlar" to'g'risidagi 1991-yildagi qaror keksalarni himoya qilish dasturi uchun asos vazifasini bajarib erdi. Bu sistemada pensiyani moliyalashtirish davlat korxonalar va inviduallar tomonidan amalga oshiriladi.



### 11.1-Rasm. Shahar joylarida keksalarni himoya qilish dasturining qamrov darajasi<sup>71</sup>

1997-yilda Davlat Konsulligi "Korxonalar ishchilari uchun asosiy sug'urta sistemasini tashkil qilish" to'g'risidagi qarorida barcha inviduallarning mablag'lari bir joyga to'plashni tashkil qilish orqali keksalarni himoya qilish dasturi detallarigacha ko'rsatildi. Pensiya jamg'armasiga to'lov ishchining oylik maoshining 8% miqdorida qilib o'rnatildi.

2000-yilda Davlat Konsulligi tomonidan "Shahar ijtimoiy himoyasini yaxshilash to'g'risida" gi tezkor dasturi qabul qilindi. Bu dasturda Xitoydagi bazi shaharlar va provinsiyalarda 2001-yildan boshlab davlat tomonidan to'g'ridan to'g'ri tezkor dasturlar amalga oshirilishi ko'rsatib o'tildi<sup>72</sup>.

<sup>71</sup>Manba: data from 1999 to 2003 come from China Labor Statistical Yearbook (2000-2004)

<sup>72</sup> Wang Dewen. China's Urban and Rural Old Age Security System: Challenges and Options. China & World Economy · February 2006

Yuqoridagi islohotlardan so'ng shahar joylarida keksalarni himoya qilish dasturini ko'lami sekin sekin oshib bordi. 1997- yildan keying barcha islohotlar pensiya tizimidagi ikkita asosiy muammolarni yani to'lovlardagi kechikishlar bilan pensionerlarning noroziliklarini pensiya programmalarini yaxshilash orqali hal qilish asosiy maqsad bulib kelmoqda.

## 11.2-jadval.

### Mamlakatda ishchi va pensionerlar soni zichligi.


Yillar	Har 10000 kishiga to'g'ri keluchi ishchilar ulushi	Har 10000 kishiga to'g'ri keluchi pensionerlar ulushi	Pensionerlarning ishchilarga nisbati
1993	7,336	1,628	0,22
1994	8,494	2,079	0,24
1995	8,738	2,241	0,26
1996	8,758	2,358	0,27
1997	8,671	2,533	0,29
1998	8,476	2,727	0,32
1999	9,501	2,984	0,31
2000	10,448	3,170	0,30
1993-98 yillardagi o'sish sur'ati	15,5%	67,7%	10%

### Qishloq keksalarini ijtimoiy himoya qilish dasturi.

Olgingi islohotlarda qishloq joylarida barcha asosiy ishlab chiqarish vositalariga davlat egali qilardi, fermerlar birgalikda ishlashga majbur edilar va ular shahar joylariga ko'chib borishi taqiqlangan edi. Farzandi yo'q, nogiron keksalar ovqat, kiyim-kechak va boshpana taminlnar edi.

Household Responsibility System ning yaratilishi qishloq joylaridagi oldingi tizimni o'zgartirdi. Endi daromad, ish bilan bandlik barchasi fermerlarning o'z majburiyatlari hisonlanardi.

Xitoy bir vaqtning o'zida ham qishloq ham shahar hududlarida keksalarni ijtimoiy himoya qilish dasturlarini amalga oshirishga harakat qildi. 1986-yilda qishloq joylarida keksalarning sug'urta sistemasi joriy etildi. Bir qancha tajribalardan keyin, Inson Huquqlari vazirligi 1992-yilda " Qishloq joylarida xavfsizlik sug'urtasini uchun asosiy dastur"ni qabul qildi. Xitoy individual pensiya jamg'armalrini joriy qildi.



### 11.2-chizma. Qishloq joylarida pensiya sug'urtasining ko'lami.<sup>73</sup>

Bu islohotlar fermerlarning sug'urta dasturida qatnashish xohishini oshirib yubordi. 1997-yilning oxirigacha 75.42 million fermerlar sug'urta dasturiga kiritigandi.

#### 11.3. Milliy ijtimoiy himoya fondi

Milliy ijtimoiy himoya fondi (MIHF) pensiya sistemasing qismi emas. Lekin bu pensiya sistemasi uchun muhim, chunki uning asosiy funksiyasi yuqori demografik o'sish sharoitida yuzaga keladigan defitsitlar uchun pensiya fondiga capital yaratishdir. MIHF 2000-yilda tashkil qilingan bo'lib, u Ijtimoiy Himoya Fondi Milliy Konsulligi tomonidan boshqariladi. MIHF ning resusrlari quyidagilardan shakllanadi:

- Hukumat budjetidan pul o'tkazmalari
- Davlat korxonalarini listingidan tushumlar
- Lotareya tushumlari
- Investitsiya daromadlari

Qishloq joylarida keksalarni ijtimoiy himoya qilish sistemasining muhimligi

Hozirgi qishloq oilasiga asoslangan keksalarni ijtimoiy himoya qilish dasturi quyidagi prekvizitlarni talab qiladi:

- Daromadlarni taqsimlashda katta uy xo'jaliklarining hajmi
- Yashash standartini saqlab turish uchun doimiy daromad manbai
- Yaxshi ijtimoiy sherikchilik (qarindoshlar, do'stlar, qo'shnilar)

Avvalo oilada tug'ilishni rejalashtirish, yani oiladagi farzandlar sonini kamaytirish. Ikkinchidan, bu sistemani o'rnatish qishloq joylarida rivojlanishni shahar joylari bilan proporsional holatda olib borishga yordam berish.

Xitoy hukumati o'zining yaxshi tashkil qilingan ijtimoiy himoya tizimining potensialini yaxwi anglagan holda, muammo yechib bo'lmaydigan darajaga kelishidan oldin malum islohtlarni o'tazishi judayam zarur.

Bunga yordam berish uchun Xitoy hukumatiga quyidagi to'rtta yo'nalishlarni taklif qilish mumkin<sup>74</sup>:

<sup>73</sup>Manba: data from 1994 to 1997 come from annual statistical communiqués of the Ministry of Civil Affairs; data from 1999 to 2003 come from China Labor Statistical Yearbook (2000-2004); data in 2004 come from annual statistical communiqué of the Ministry of Labor and Social Security.

<sup>74</sup>Martin Feldstein and Jeffrey Liebman. Harvard University. Realizing the Potential of China's Social Security Pension System. Published in China Economic Times, February 24, 2006

1. Oldingi iqtisodiy tizimda qatnashgan fuqarolarni pensiya bilan taminlashda qonuniy xarajatlarni yangi pensiya tizimidan alohida ajratib olish.
2. Ijtimoiy himoyani tasgkil qilish rivojlantirilishi lozim. Harakatlar to'lovlarni yig'ish bilan va sistemani qamrab olgan isgchilarni sonini oshirish yo'nalishlarida amalga oshirilishi lozim.
3. To'lov soliq stavkalari keskin kamaytirilishi lozim. Chunki Xitoyning to'lov soliq stavkalari boshqa davlatlarga qaraganda ancha yuqori. Buni dastur ehtiyojlari muvozanatga keltirilganda kamaytirish mumkin.
4. Xitoy shaxsiy hisobvaraqlarga asoslangan fondga o'tishi lozim. Bu islohot uzoq kelajakda soliq stavkalrini kamaytirish va ishchilar ishonchini egallash uchun muhimdir.

## **12-MAVZU“MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO‘STLIGI DAVLATLARINING PENSIYA TA‘MINOTI TIZIMI”**

### **Reja:**

- 12.1. MDH davlatlarida davlat pensiya tizimini takomillashtirish va rivojlantirish mohiyati va zaruriyati.
- 12.2. MDH davlatlarida jamiyatning o‘zgarishi va uning pensiya tizimiga ta‘siri
- 12.3. MDH davlatlari pensiya tizimidagi islohotlari mohiyati va natijalari

**TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR:** MDX davlatlari pensiya ta‘minoti tizimi, sug‘urtalangan shaxslar, xalqaro Mehnat tashkiloti, Aholini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy ta‘minot, pensiya tizimlari modellari, xalqaro mehnat tashkiloti, avlodlar birdamligi, xorijiy mamlakatlar pensiya tizimlari, pensiya ta‘minoti tizimi, davlatning ijtimoiy siyosati, pensiya ta‘minoti, davlat budjeti, davlat pensiya tizimi, nodavlat pensiya tizimi, davlat maqsadli jamg‘armalari, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, xalqaro moliya munosabatlari, byudjet tizimi, xalqaro moliya.

### **12.1.MDH davlatlarida davlat pensiya tizimini takomillashtirish va rivojlantirish mohiyati va zaruriyati.**

XX asrning boshida fuqorolik jamiyati institutuda pensiya ta‘minoti tizimining paydo bo‘lishi insoniyatning ijtimoiy himoyaga erishishdagi muhim yutuqlaridan biri bo‘ldi. Barcha industraal jihatdan rivojlangan davlatlar pensiya sug‘urtasisi va davlat pensiya ta‘minotini shakllantirish orqali nafaqaxo‘rlarni moddiy jihatdan ta‘minlash vazifasi echildi va shuning bilan bir qatorda yoshi katta avlodni yanada to‘laroq hayot kechirish imkoniyatini yaratdi.

SOBIQ ITTIFOQda tashkil etilgan pensiya tizimi davlat tomonidan tartibga solinadigan ish faoliyatidan, ya‘ni, deyarli barcha sohalarni qamrab oluvchi davlat tashkilotlari va kolxozlarda iqtisodiy faol bo‘lgan aholining ish xaqidan markazlashgan tarzda tashkil etilgan davlat pensiya tizimi orqari moliyaviy nazorat qilingan. Pensiya tizimining moliyaviy resursi sifatida davlat byudjeti bo‘lib, bu esa barcha pensionerlarga to‘g‘ri keladigan xajmda pensiya ta‘minotini moliyaviy ta‘minlashning eng maqsadga muvofiq turi bo‘lib xizmat qildi.

Yoshi katta avlodning davlat pensiya ta‘minotini tizimi mexanizmlari va institutlarini rivojlantirishni talab qiluvchi asosiy sabablar quyidagilar bo‘lib xizmat qiladi:

Birinchi sabab bo‘lib sobiq SOBIQ ITTIFOQ davlat tuzumining qulashi va buning bilan bir qatorda mamlakatlarda davlat tuzumining o‘zgarishi natijasida yangidan tashkil etilgan mexnat, ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy va moliyaviy tamoyillarning yuzaga kelib, mazkur davlatlarda davlat pensiya ta‘minotini davlat tomonidan moliyaviy ta‘minlash imkoniyatlari kamayganligidir.

Ikkinchidan sabab asosiy MDX davlatlarining deindustrializatsiya-lashganligidi. Buning natijasida davlat tashkilotlarida xizmat qiluvchi shtatlar jadvali qisqarishi va mexnat munosabatlarining transformatsiyalashuvi natijasida iqtisodiy faol aholiga nisbatan ishlovchi hodimlar ulushi kamaydi. Bu esa davlatning xo‘jalik yurutuvchi subektlarga nisbatan ta‘sir o‘tkazish imkoniyatini cheklanishiga olib keldi. Yuqoridagi holatlar natijasida esa davlat pensiya ta‘minotini ishchi hodimlarning majburiy va ixtiyoriy sug‘arta badallari yordamida yig‘iladigan yangidan tashkil etilgan pensiya ta‘minoti tizimini yaratilishiga sabab bo‘ldi.

Uchinchidan, mexnat sohasining globallashuvi talabi bo‘lsa, to‘rtinchidan, mamlakatardagi demografik holatdir. Bular doimiy tarzda ishga yollanib ishlovchilar



sonining qisqarishi natijasida ishlovchi hodimlar soning kamayishiga va ularga nisbatan pensiya yukining oshishiga olib keldi.

Shuning natijasida so'ngi yigirma yillikda MDX davlatlarida bozor iqtisodiyoti sharoitida dastlabki o'rindagi muammo sifatida davlat ijtimoiy siyosatini olib borish va rivojlangan pensiya tizimini yaratish birinchi o'ringa chiqadi.

Barcha MDX mamlakatlari uchun yagona bo'lgan muammo sifatida- o'z pensiya tizimini qanday qilib uzoq muddatli va oqilona moliyalashtirishga o'zgarib borayotgan dunyoda mehnat munosabatlari sharoitida, demografik qarishning uzoq muddatli tendentsiyalari va ishchi kuchi sonining qisqarishi holatida erishish hisoblanadi.

## **12.2.MDX davlatlarida jamiyatning o'zgarishi va uning pensiya tizimiga ta'siri**

MDX davlatlarning bozor iqtisodiyotiga o'tishi davlat pensiya ta'minoti tizimidagi amal qiluvchi barcha mexanizmlar va bazaviy institutlarning qayta tuzish zaruriyatini keltirib chiqardi. Sovet davrida qolipga solingan pensiya tizimi bepul xizmat ko'rsatish va ijtimoiy iste'mol fondlari xisobiga moliyalashtirish tamoyiliga asoslangan tizim rad etildi. Uning o'rniga bozor iqtisodiyoti institutlarini shakllantirishga, majburiy va ixtiyoriylik tamoyiliga asoslangan pensiya sug'urtasini shakllantirish yo'nalishini o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

O'sha vaqtda mavjud iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoit bunday katta masshtabdagi vazifalarni echish imkonini bemasdi. Undan tashqari, yagona iqtisodiy, ijtimoiy va byudjet zonasining yo'q bo'lishi oldingi SOBIQ ITTIFOQ Respublikalarida iqtisodiyotning deindustrializatsiyalashuvi, xufyona mehnat bozorining paydo bo'lishi, ishsizlik darajasining sezilarli ravishda oshishi va to'liq bo'lmagan bandlik holati kabi inqirozli holatlarning paydo bo'lishi real YaIM xajmining kamayishiga va pensiya ta'minotining moliyaviy va iqtisodiy imkoniyatlarining (bir necha martalab) kamayishiga, jami iqtisodiy faol aholi soniga nisbatan ishchi hodimlarning ulushining pasayishi ijtimoiy infrastrukturani degradatsiyaga (yo'qolishi) olib keldi.

Shuning uchun so'ngi o'n yillikda MDX davlatlarida darhol echilishi zarur bo'lgan vazifalar sifatida pensiya va nafaqalarni to'lashga moliyaviy resurs qidirib topish xisoblanardi. Bu vazifa esa yuqori inflyatsiya sharoitida tovarlarni sotib olish qobiliyati birdan tushib ketgan vaziyatda yanada og'irlashdi.

Bunday og'ir vaziyatda MDX davlatlari ikki gurux vazifani echishga xarakat qilishdi:

- pensiya to'lovlarini mavjud moliyaviy resurslar darajasida to'lash va ular xajmini bosqichma-bosqich oshirib borish;

- daromad manbalarining iqtisodiy va qonuniy vakolatlarini chegaralash, pensiya huquqini hisobini yurutuvchi va ularning to'lanishini nazorat qiluvchi zamonaviy infrastruktura shakllantirish, sug'urta badallarining qonuniy-huquqiy bazasini shakllanish orqali majburiy va ixtiyoriy pensiya sug'urtasi mexanizmlarini amaliyotga jorish qilishga sharoit yaratish yo'li bilan pensiya tizimini qayta tashkil etishga shart-sharoit yaratildi;

MDX davlatlarining sobiq SOBIQ ITTIFOQ davridan keyingi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy holati bir biridan farq qilganligi sababli ushbu davlatlarda pensiya tizimini takomillashtirish bo'yicha turli xil stsenariylar orqali amalga oshirilganligi va isloh etish tezligi bir biridan farqlanadi.

MDX davlatlari pensiya tizimini takomillashtirish masalasidagi islohotlarni umumlashtirgan holda ikki qismga ajratish mumkin:

- yillar davomida davlat pensiya tizimi boshqaruvi amaliyotidan sinovdan o'tgan solidarlik tamoyiliga asoslangan moliyaviy resurslarni ishlayotgan avlod va pensionerlar o'rtasida taqsimlanadigan mavjud pensiya tizimini maqlab qolish, shuningdek, pensiya huquqi hisobini yurutuvchi yangi infrastrukturani shakllantirish orqali yangi sug'urtalash mexanizmlarini amaliyotga qo'llanishi imkoniyatlarini yaratish– Ozarbayjon, Armaniston, Qirg'iziston, Moldoviya, Tojikiston;

- sug'urta mexanizmlarini qonuniy tomondan amaliyotga joriy qilish maqsadida pensiya tizimida keng masshtabli o'zgarishlarni amalga oshirish. Buning natijasida pensiya huquqi hisobini individuallashtirish va pensiya institutining shartli-jamg'arilgan xisoblarga yig'ish tamoyiliga tuzilgan, jamg'arib boriladigan pensiyalar va nodavlat pensiya sug'urtasi kabi yangi tamoyilini amaliyotga joriy qilindi – Belarusiya, Qozog'iston, Rossiya, Ukraina.

MDX davlatlarining pensiya tizimini takomillashtirish natijasida so'ngi 20 yil davomida ularning uchta muhim xususiyati mavjud.

Birinchidan, hali ham pensiya miqdori 1980-1990 yillardagi holat bilan taqqoslaganda sotib olish qobiliyati darajasigacha ko'tarilgani yo'q.(1-jadval)

So'ngi 10 yildagi MDX davlatlari pensiya miqdorlarining o'zgarishi dinamikasini tahlili shuni ko'rsatadiki, sotib olish qobiliyati bo'yicha pensiya miqdori va qoplash koeffitsenti pensiya miqdori sovet davrida mos ravishda 250% va 55% ni tashkil etib, biror bir MDX davlatlari hali bu ko'rsatkichlarga erishgani yo'q.

MDX davlatlarini iqtisodiy rivojlangan davlatlar pensiya miqdori bilan taqqoslaganda ko'p hollarda juda pastligi ma'lum bo'ladi. Bu hajmdagi pensiya miqdori esa industrilazitsmya davrining birinchi bosqichida faqatgina fiziologik iste'molning minimum darajasini qoplashga etadti. Shu bilan birga MDX davlatlarining pensiyaga xarajatlari YaIMning 3,3 foizdan (Tojikiston) 10 foizgacha (Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldoviya, Rossiya)tashkil etadi. Faqatgina ikki davlatda YaIMdagi ulushi yuqoriroq; Belarusiyada – 10,3% va Ukraina – 15,0%.

## 12.1-jadval.

### 2005-2010 yillardagi MDH davlatlarining pensiya ta'minoti dinamikasi

Mamlakatlar	O'rtacha pensiya miqdori, AQSh dollarida		Pensiyaning tovarlarni sotib olish qobiliyati (pensiya miqdorini pensionerning pensiya tirikchilik uchun zarur eng kam miqdorga nisbatan)		Qoplash koeffitsenti (o'rtacha oylik ish xaqiga o'rtacha pensiya miqdorining nisbati), % da		Pensiya va nafaqlarning YaIMdagi ulushi, % da	
	2006g.	2010g.	2006g.	2010g.	2006g.	2010g.	2006g.	2010g.
Ozarbayjon	47,2	141,5	90,7	166	27,6	35,1	-	-
Armaniston	30	74,6	-	-	17,5	26,4	3,3	-
Belarusiya	129,7	194,9	183,9	223	47,7	48	10,6	11
Qozog'iston	86	152,7	141	175,1	26,8	29	-	-
Qirg'iziston	19,6	49,9	-	67,8	22,8	32,7	5	8,1
Moldoviya	34,3	66,7	55,8	69,9	26	27,3	-	-
Rossiya	107,9	249,3	103,8	162,3	26,7	36,3	5,5	8,9
Tojikiston	12,4	28,4	-	-	36,4	35,4	2,4	-
Ukraina	94,7	140,9	130,6	152,8	45,9	50,1	-	-

*Manba:* Statisticheskaya informatsiya Statkomiteta SNG, M., 2011g.

Ikkinchi xususiyati, 1952 yilda qabul qilingan 102 sonli Konventsiyaga asosan qoplash koeffitsenti asosida aniqlanadigan pensiya miqdorini tirikchilik qilishning eng kam miqdoridan kam bo'lmasligini ta'minlash bo'lib, bu esa iqtisodiyot tarmoqarida xizmat ko'rsatuvchi ishchi-xodim oylik ish-haqining 40%ni tashkil etishi zarur. MDX davlatlaridan faqatgina Belarusiya va Ukrainadan tashqari boshqa davlatlar ushbu ko'rsatkichlarni bajara olmayapti. Yaqin kelajakda ushbu muommoni echish asosiy vazifa hisoblanadi.

Uchunchi xususiyati, asosiy MDX davlatlarida (Belarusi, Qozog'istona va Rossiidan tashqari) yangi iqtisodiy tizimga moslashmaganligi sababli to'lanayotgan o'rtacha Pensiya miqdori o'rtacha 12-15 kun kechirishga etadi.

Qo'shimcha nodavlat pensiya tizimi Rossiya Federatsiyasidan tashqari shakllanish bosqichidadir.

Mavjud juda tarraqqiy etmagan bozor iqtisodiyoti tizimining amal qilishi hozirgi kundagi zamonaviy ish beruvchilar to'laydigan ish haqidan 25 foizdan 40 foizgacha to'laydigan ijtimoiy sug'urta tizimidan "olib qochib" ketmoqda. Aytib o'tish joizki, mustaqillik yillarida MDX davlatlarining barchasida xususan Rossiya Federatsiyasida hisoblanadigan yagona ijtimoiy to'lov miqdori uchdan biriga qisqardi (1990 yilda YaIMning 38 foizdan 2010 yil YaIMning 26%ni tashkil etdi).

Undan tashqari sovet davridan keyingi davrlarda MDX davlatlarining aksariyat qismida iqtisodiy faol aholiga nisbatan doimiy ravishda yollanib ishlovchi hodimlar ulushi 85 foizdan 50 foizgacha tushib ketdi. Shu bilan bir qatorda 35-40 yillik ish stajiga ega bo'lgan fuqorolar ham ish haqi miqdorining kamligi sababli hisoblangan pensiya miqdori tirikchilikning eng kam miqdori 150-250 % gacha etkazish mumkin emas.

## 12.2-jadval.

### MDH davlatlarida ishchi hodimlariga to'lanadigan ish xaqi miqdorining tizimli tahlili

Oylik ish-haqi miqdori, AQSh dollarida	Ozarbayjon	Belarusiya	Qozog'iston	Moldoviya	Rossiya	Tojikiston	Ukraina
	(noyabr 2009y.)	(may 2009y.)	(iyun 2009y.)	(sentyabr 2009y.)	(aprel 2010y.)	(dekabr 2009y.)	(dekabr 2009y.)
100,0 gacha	5,5	4,4	2,6	21,6	11,0	73,5	11,6
100,0-200,0	45,1	24,0	23,7	33,5		19,3	36,6
200,1-300,0	17,7	25,2	24,1	22,0	14,0	4,7	20,6
Jami - 300,0 gacha	68,3	53,6	50,4	77,1	25,0	97,5	68,8
300,0 dan yuqori	31,6	36,4	49,6	22,9	75,0	2,5	31,2

*Manba:* Informatsiya o sotsialno-ekonomicheskomo razvitiio gosudarstv SNG v 2010g. i deystviyax profsoyuzov. Prilozhenie k postanovleniyu Soveta VKP ot 08.04.2011g. № 5-5, M., 2011g., S. 10.

Minimal pensiya miqdori darajasida pensiya olish AQShlarida qashshoqlik chegarasi deb hisobga olingan (kuniga 4 dollar) 120 dollardan yuqori bo'lish va optimal zarur bo'lgan yagona ijtimoiy to'lov miqdori 300 AQSh dollari miqdoridagi oylik ish-haqi olish zarur. (2-jadval)

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki MDX davlatlarining asosiy qismi ushbu ulushdan kam bo'lib Tojikistonda 97,5 foizni, Moldoviyada 77,1 foizni, Ukrainada 68,8 foizni, Ozarbayjonda 68,3 foizni, Belarusiyada 50,4 foizni, Qozog'iston va Rossiya Federatsiyasida 25 foizni tashkil etadi.

Shunday qilib, MDX davlatlarining asosiy qismida pensiya ta'minotidagi muammolarning kelib chiqishi eng kam oylik ish haqi darajasining pastligi bilan asoslash mumkin.

2011 yil yakunlariga ko'ra eng kam ish haqi miqdori quyidagilarni tashkil etdi. Qirg'izistonda 15 doll.; Tojikistonda 18; Moldoviyada -53; Armeniyada- 90;Ozarbayjonva Qozog'istonda-108, Belarusiya vaUkrainada-120, Rossiyada-160.

Shuning uchun eng kam miqdorini belgilashda ushbu miqdor eng kam tirikchilikka etishi bilan bir qatorda, qarab pensioner, sog'liqni saqlash va ijtimoiy sug'urta ham hisobga olish zarur.

Davlatlar o'rtasida turgan yana bitta katta muammo sifatida pensiya tizimini takomillashtirish davrida davlatning aholi bandligini ta'minlash siyosati hisoblanadi. MDX davlatlarida erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishi natijasida bandlik holati shart sharoitlari o'zgarganligi natijasida ishchi hodimlarning o'zini o'zi band qilish holatlari oshdi, shuningdek, ishchi hodimlarning qisman va doimiy bo'lmagan bandlik xususiyatiga ega turlari ham paydo bo'ldi.

Yuqoridagi aholi qatlamlariga doimiy va maqul bo'lgan hajmda ish haqi olish imkoniyati va shart sharoiti chegaralangan bo'lib, taxminan iqtisodiy faol aholining 40 foizi qarilikda qashshoqlikda o'tkazish riski yuzaga keladi.

Bunday holatlarning yuzaga kelishi pensiya tizimi moliyaviy barqarorligini ta'minlash imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatib, aholiga davlat pensiya ta'minoti majburiyatlarini to'liq bajarish yuzasidan jiddiy muammo tug'diradi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqsak, bunday globalizatsiya jarayonida ishlab chiqariv kuchlarini katta korpariyalar ishchi kuchi arzonroq bo'lgan joylarga ko'chib o'tishi ish joylarning taqsimotida muommolar keltirib chiqaradi. Bunday vaziyatda ko'pgina davlatlarda kopmaniyalar ishchilarni osonroq ishga yollash, yollanma ishchilarni yollash hamda mehnat qiymatini pasaytirish maqsadida ishdan bo'shatish borasidagi mehnat qonunchiligini erkinlashtirishga majbur bo'ldi.

Ishsizlik va to'liq bo'lmagan bandlik barcha MDX davlatlarida eng muhim muammo bo'lib hisoblanadi.

Bu ko'rsatkichlar Ozarbayjonda barcha iqtisodiy band aholiga nisbatan io'sizlik darajasi 5,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, Armeniyada 18,7%, Qozog'istonda – 5,5%, v Qirg'izistonda – 8,4%, Moldoviyada - 6,5%, Rossiida – 7,2%, Tojikistonda - 11,5%, Ukrainada – 8,0%. Undan tashqari ishchilarning har beshtadan bittasi doimiy bo'lmagan ishsizlik shart sharoitlarida ishlaydi.

Natijada, MDX davlatlarining iqtisodiy faol bo'lgan aholisining 30-40 fiozi etarli darajada ish xaqi olmaganligi yoki pensiyaga etarli darajala huquqi, staji bo'lmaganligi sababli pensiya yoshiga etganda qashshoqliq riski bilan duch keladi.

### **12.3.MDH davlatlari pensiya tizimidagi islohotlari mohiyati va natijalari**

MDX davlatlarida milliy iqtisodiyotning potentsialini qayta tiklash sharoitida, shuningdek, yangi sug'urta mexanizmlari paydo bo'lishi natijasida pensiya tizimida qilinadigan islohotlarning birinchi bosqichida pensiya tizimini shakllantirishida echilishi zarur bo'lga vazifa quyidagilar hisoblanadi:

- pensiya institutarini (ijtimoiy nafaqa va yoshga doir pensiyalar) daromadlarining va to'lanish moliyaviy manbalarini aniqlab olish;

- davlat va nodavlat pensiya tizimlarida sug'urtalashning alohida elementlarini amaliyotga joriy qilish, shuningdek, nodavlat pensiya fondlarini tashkil etish;

- pensiyalarni to'lanishining hisobi va nazoratini sug'urtalash tizimini tashkil qilish.

Kontseptsiyal yondashuv sifatida faoliyat yo'nalishining anannaviy dasturi sifatida:

- MDX davlatlarining deyarli barchasida, Kozog'istondan tashqari, solidar tizimga qo'ra (avlodlar almashinuvi o'rtasida) taqsimot tizimiga asoslangan davlat pensiya ta'minotini barqaror faoliyat yuritishiga shart-sharoit yaratish;

- davlat pensiya ta'minotini pensiya sug'urtasini rivojlantirish asosida saqlab qolish – *Armaniston, Qirg'iziston, Moldoviya, Rossiya, Ukraina*;

- pensiya sug'urtasi mexanizm va elementlarini shakllantirish- *MDX davlatlarining barchasida*;

- Chili modeli asosida jamg'arib boriladigan pensiya tizimini shakllantirish, qo'shimcha sifatida zaruriyat tug'ilganda davlatning chora tadbirlari asosida qishloq joylar istiqomat qiladigan kam daromadli aholi qatlamlarini ijtimoiy qo'llab quvatlash– *Qozog'iston*

### 12.3-jadval.

#### MDH davlatlari pensiya tizimida sug'urta badalining taqsimlanishi, ish haqi fondidan foizda.

Mamlakatlar	Ish beruvchi	Ishchi hodim	Jami
Ozarbayjon	22	3	25
Armaniston	-	-	-
Belarusiya	34	1	35
Qozog'iston	11	10	22
Qirg'iziston	17,2	10	27,2
Moldoviya	23	6	29
Rossiya	30	-	30
Tojikiston	25	1	26
Ukraina <sup>75</sup>	22	0	22

*Manba:* Mejdunarodnoy assotsiatsii pensionnix i sotsialnix fondov SNG i stran Baltii, 2015g.

MDX davlatlarining barchasi (Armanistondan tashqari) echishga muvaffaq bo'lgan muammolardan bittasi sifatida – pensiya tizimini moliyalashtiradigan sug'urta to'lovlarning qonuniy-huquqiy bazasini ishlab chiqdi. Bunda Ozarbayjon, Belarusiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldoviya, Tojikiston va Ukrainada (Rossii Federatsiyasidan tashqari) ish beruvchilardan ham ishchi hodimdan ham sug'urta badallarini to'lash majburiyati yuklatildi. Bu esa rivojlangan davlatlar tajribalariga mos keladi va majburiy ijtimoiy pensiya sug'urta tashkil etilishiga fuqorolar ongini va mentalitetini shakllantirib borishiga yordam beradi. (3-jadval)

### 12.4-jadval.

#### 2015 yil MDH davlatlari o'rtacha ish xaqi

Mamlakatlar	O'rtacha ish xaqi, AQSh doll.	O'rtacha pensiya miqdori, AQSh doll.	Pensionerning kunlik daromadi, AQSh doll.
Ozarbayjon	370,7	124,92	4,16
Armaniston	280,49	67,5	2,25
Belarusiya	275,4	167,03	5,57
Qozog'iston	359	250	8,3

<sup>75</sup><http://index.minfin.com.ua/index/social/>

Qirg'iziston	145,79	42,85	1,43
Moldoviya	69,78	51,33	1,71
Rossiya	443	230	7,6
Tojikiston	100	30	1
Ukraina <sup>76</sup>	170 <sup>77</sup>	52	1,73

Murakkabligi ikkinchi darajadagi bo'lgan vazifani faqat Belarusiya va Ukraina davlatlari echishga muvaffaq bo'lib, bu ish faoliyati og'ir va xavfli bo'lgan sohalarga muddatidan oldin pensiyaga chiqishning sug'urtalash mexanizmini ishlab chiqdi.

---

<sup>76</sup><http://pensia-expert.ru/trudovye-pensii/pensiya-v-2015-godu/srednyaya-pensiya/>

<sup>77</sup><http://112.ua/mnenie/hto-neobhodimo-sdelat-htoby-v-ukraine-zarplata-by-la-ne-menshe-1000-dollarov-ssha-300021.html>

## **13-MAVZU: ROSSIYA PENSIYA TA'MINOTI**

### **Reja:**

- 13.1. Rossiya Federatsiyasida maqsadli ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish.
- 13.2. Majburiy pensiya sug'urtasini moliyaviy ta'minlashning nazariy asoslari.
- 13.3. Rossiyaning byudjetdan tashqari davlat ijtimoiy fondlari.
- 13.4. Moliyaviy munosabatlar tizimida pensiya fondining tutgan o'rni va ahamiyati.
- 13.5. Pensiya fondi daromadlari va xarajatlari.

**TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:** MDX davlatlari pensiya ta'minoti tizimi, sug'urtalangan shaxslar, xalqaro Mehnat tashkiloti, Aholini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy ta'minot, pensiya tizimlari modellari, xalqaro mehnat tashkiloti, avlodlar birdamligi, xorijiy mamlakatlar pensiya tizimlari, pensiya ta'minoti tizimi, davlatning ijtimoiy siyosati, pensiya ta'minoti, davlat budjeti, davlat pensiya tizimi, nodavlat pensiya tizimi, davlat maqsadli jamg'armalari, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, xalqaro moliya munosabatlari, byudjet tizimi, xalqaro moliya.

### **13.1. Rossiya Federatsiyasida maqsadli ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish.**

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda xorij tajribasidan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon tajribasining ko'rsatishicha, davlatning byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi faoliyatini yo'lga qo'yish va undan samarali foydalanish aholini ijtimoiy himoyalashda muhim o'rin tutadi.

Xorijiy mamlakatlar moliya tizimida mazkur fondlarning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalari mavjud. Davlat bu fondlarning mablag'lari bilan ishlab chiqarish jarayoniga aralashadi, tashkilot va muassasalarga kreditlar va subsidiyalar beradi, ijtimoiy siyosat chora-tadbirlarini moliyaviy ta'minlaydi, shuningdek, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatadi. Byudjetdan tashqari maqsadli fondlarning izchil faoliyati natijasida aholi kuchli ijtimoiy himoya qilinishi bilan birga, iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari ham rivojlantiriladi.

Mazkur markazlashgan jamg'armalar ishlatilish maqsadlariga ko'ra, iqtisodiy, ilmiy-tadqiqot, kredit, ijtimoiy, xarbiy, siyosiy yoki davlatlararo rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari asosida faoliyat yurituvchi fondlarga bo'linishi mumkin. Xorijiy mamlakatlaridagi fondlar pensiya fondlari, davlat ijtimoiy sug'urta fondlari, majburiy tibbiy xizmat ta'minoti fondlari, aholi bandligi fondlari ko'rinishida ifodalanadi. Fondlarning miqdori doimo o'zgarib boradi, ba'zilar tashkil etiladi, ba'zilar esa tugatiladi.

Umuman olganda, xorijiy mamlakatlarda fondlarning sonining oshishi va hajmining kattalashishi an'anasi kuzatiladi. Shuni hisobga olgan holda Rossiya Federatsiyasida byudjetdan tashqari fondlari faoliyatini o'rganishimiz mumkin.

Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 1993 yil 22 dekabrda Qarori bilan daromadlari korxonalar, tashkilot va muassasalarning majburiy to'lovlari hisobiga shakllanadigan barcha byudjetdan tashqari fondlar (ayrim istisnalar bilan) Rossiya Federatsiyasi respublika byudjetlari bilan birlashtiriladi. Biroq birlashtirilgan fondlarning maqsadli yo'naltirilganligi saqlanib qoladi. Federatsiya sub'ektlarining davlat hukumat organlariga ham aynan shunday byudjetdan tashqari fondlarni ma'muriy-davlat va milliy-hududiy tuzilmalar byudjetlariga kiritish tavsiya etildi.

Byudjetdan tashqari fondlarni byudjetlar bilan birlashtirish zarurati ularning resurslaridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratning etarli emasligi bilan

izohlanadi, chunki soliq organlari mohiyatiga ko'ra bu mablag'larning kelib tushishi uchun javobgar hisoblanmaydi. 1998 yilning 17 iyunida qabul qilingan Rossiya Federatsiyasi Byudjet kodeksiga muvofiq, quyidagilar Davlat byudjetdan tashqari fondlari hisoblanadi:

- Rossiya Federatsiyasi Pensiya fondi;
- Rossiya Federatsiyasi ijtimoiy sug'urtalash fondi;
- Majburiy tibbiy sug'urtalash Federal fondi;
- Rossiya Federatsiyasi aholi bandligiga ko'maklashish davlat fondi.

Ijtimoiy byudjetdan tashqari fondlarni shakllantirish va ulardan foydalanish tamoyillari va usullarini batafsilroq ko'rib chiqamiz.

#### 1. Rossiya Federatsiyasi Pensiya fondi (RPF)

Rossiya Federatsiyasi Pensiya fondi RSFSR Oliy Kengashining 1990 yil 22 dekabrda Qarori bilan tashkil etilgan bo'lib, RSFSR Oliy Kengashining 1991 yil 27 dekabrda 2122-1 sonli Qarori bilan 1992 yil 1 yanvardan faoliyat ko'rsata boshlagan. Rossiya Federatsiyasi Pensiya fondi bu – mamlakat moliya tizimiga kiruvchi mustaqil moliyaviy birlik bo'lib, pensiya ta'minoti moliyasini boshqarishi ko'zda tutilgan.

RPF asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- sug'urta mablag'larini maqsadli to'plash va jamg'arish, shuningdek, RPF vazifalariga muvofiq xarajatlarni moliyalashtirish;
- xodimlar va boshqa fuqarolar salomatligiga zarar etkazishda aybdor bo'lgan ish beruvchilar va fuqarolardan jarima undirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish;
- RPF mablag'larini kapitallashtirish unga jismoniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriy mablag'larini jalb qilish;
- soliq organlari ishtirokida RPFga sug'urta badallarining o'z vaqtida va to'liq kelib tushishini, shuningdek, uning mablag'laridan to'g'ri va oqilona foydalanilishini nazorat qilish;
- RPFning vakolatlari doirasiga kiradigan masalalar bo'yicha davlatlararo va xalqaro hamkorligi, qonunchilikda belgilangan tartibda pensiya va nafaqa to'lovlari bo'yicha davlatlararo va xalqaro shartnoma va kelishuvlar ishlab chiqarish va amalga oshirishda ishtirok etish.

Rossiya Federatsiyasining Pensiya fondi xaqidagi Qonunga muvofiq (27.12.1991 y.) RPF unga yuklatilgan quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- to'lovchilarning sug'urta badallarini maqsadli to'plash va jamg'arish;
- RPF mablag'larini kapitallashtirish, shuningdek, unga ixtiyoriy xayriya va badallarni jalb qilish;
- soliq organlari ishtirokida sug'urta badallarining fondga o'z vaqtida va to'liq hajmda kelib tushishini nazorat qilish;
- fond mablag'laridan to'g'ri va oqilona foydalanish ustidan nazorat qilish;
- 1996 yil 1 apreldagi 27-FZ sonli «Davlat pensiya sug'urtasi tizimida individual hisob to'risida»gi Federal qonunga muvofiq sug'urtalangan shaxslarning individual hisobini yuritish;
- fondga sug'urta badallari to'lovchilarni ro'yxatga olish va hisobini yuritish;
- xodimlar va boshqa fuqarolar salomatligiga zarar etkazishda aybdor bo'lgan ish beruvchilar va tadbirkorlardan jarima undirish, ish joyida shikastlanish tufayli nogiron bo'lish, kasb kasalliklariga chalinish yoki boquvchisini yo'qotish bo'yicha nafaqa to'lovlari belgilash bo'yicha ishlarni tashkil qilish;
- Rossiya Federatsiyasining boshqa mamlakatlar bilan pensiya bilan bog'liq qonunlar bo'yicha davlatlararo hamkorligini amalga oshirish;



➤ RPF vakolatlariga daxldor masalalar bo'yicha me'yoriy hujjatlarni qo'llash amaliyotini o'rganish va umumlashtirish, Rossiya Federatsiyasi Hukumatiga uni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

➤ davlat pensiya sug'urtasi sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish.

Pensiya fondi mablag'lari byudjetdan tashqari mablag'lar maqomini olgan, ya'ni davlat mulki bo'lib qolavergan holda ular davlat byudjetidan chiqarilgan va qat'iy belgilangan maqsadli foydalanish xarakterini qo'lga kiritgan.

Fond mablag'lari quyidagilar hisobiga shakllanadi:

➤ ish beruvchilarning sug'urta badallari;

➤ yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan fuqarolarning, jumladan, fermerlar, dexqon xo'jaligi advokatlarning sug'urta badallari;

➤ ishlayotgan fuqarolarning boshqa toifalari sug'urta badallari;

➤ RF respublika byudjetidan harbiy xizmatchilar va unga tenglashtirilgan shaxslarga davlat pensiyalari va nafaqa to'lovlariga, ularning oilalariga ijtimoiy pensiyalar, bir yarim yoshgacha bo'lgan bolalarga to'lanadigan to'lovlarga, ko'rsatilgan pensiya va nafaqalarni indeksatsiyalashga, shuningdek, Chernobil halokatidan jabr ko'rgan fuqarolarga pensiya, nafaqa va kompensatsiyalar borasida imtiyozlar taqdim etishga ajratiladigan mablag'lar;

➤ muddatidan oldin pensiya va nafaqa to'lovlari belgilanishi tufayli RF aholi bandligiga ko'maklashish Davlat fondi tomondan RPFga ajratiladigan mablag'lar;

➤ regressiv talablar bildirilishi natijasida ish beruvchilar va fuqarolardan undiriladigan mablag'lar;

➤ jismoniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriy badallari, shuningdek, RPF mablag'larini kapitallashtirishdan olingan daromadlar va boshqa tushumlar.

➤ yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlar sifatida davlat organlarida ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxslar;

➤ Pensiya fondi xaqidagi Qonunga muvofiq RPF mablag'lari asosan quyidagi asosiy manbalar hisobiga shakllanadi:

Pensiya fondi mablag'larini sarflash rejalashtirilgan yo'nalishlarga muvofiq amalga oshiriladi va fond Boshqarmasi tomondan tasdiqlanadi. Pensiya fondi mablag'lari quyidagilarga sarflanadi:

➤ davlat pensiyalari to'lash (mehnat pensiyasi va yosh bo'yicha pensiyalar, nogironlik bo'yicha pensiya, boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha pensiya), shu jumladan, chet elga ketayotgan fuqarolar uchun;

➤ qariyalar va mehnat layoqatiga ega bo'lmagan shaxslarga moddiy yordam ko'rsatish;

➤ ish haqining o'sishi va hayot qiymati indekslarining o'zgarishi tufayli pensiyalarning ortishi;

➤ zaxiralarni davlat qimmatli qog'ozlariga joylashtirish, boshqa tijorat operatsiyalari o'tkazish;

➤ fondning joriy faoliyatini moliyalashtirish.

Rossiya Federatsiyasi federal byudjetidan ajratiladigan mablag'lar harbiy xizmatchilar va unga tenglashtirilgan shaxslarga davlat pensiyalari va nafaqa to'lovlariga, ularning oilalariga ijtimoiy pensiyalar, bir yarim yoshgacha bo'lgan bolalarga to'lanadigan to'lovlarga, ko'rsatilgan pensiya va nafaqalarni indeksatsiyalashga, shuningdek, Chernobil halokatidan jabr ko'rgan fuqarolarga pensiya, nafaqa va kompensatsiyalar borasida imtiyozlar taqdim etishga sarflanadi.

Rossiya Federatsiyasida yagona ijtimoiy soliq stavkalari har bir jismoniy shaxsga yil davomida soliq solinadigan baza o'sib boruvchi tartibda hisoblanadi.(2-jadvalda)

Rossiya Federatsiyasida yagona ijtimoiy soliq stavkalari<sup>78</sup>

Har bir jismoniy shaxsga yil davomida o'sib boruvchi soliq solinadigan baza	Yagona ijtimoiy soliq stavkalari
280000 rublgacha	14,0 foiz
280001 rubldan 600000 rublgacha	39200 rubl +5,6 foiz 280000 rubldan oshgan qismiga.
600000 rubldan oshgan qismiga	57120 rubl + 2,0 foiz 600000 oshgan qismiga

Rossiya Federatsiyasi Pensiya fondi mablag'larini shakllantirish manbalari qatoriga yagona ijtimoiy soliqdan tashqari, shuningdek, muddatidan oldin pensiya va nafaqa to'lovlari belgilanishi tufayli RF aholi bandligiga ko'maklashish Davlat fondi tomondan RPFga ajratiladigan mablag'lar; regressiv talablar bildirilishi natijasida ish beruvchilar va fuqarolardan undiriladigan mablag'lar; jismoniy va yuridik shaxslarning ko'ngilli badallari, shuningdek, RPF mablag'larini kapitallashtirishdan olingan daromadlar ham kiradi.

Pensiya fondi va davlat byudjeti o'rtasidagi munosabatlarning eng muhim sharti byudjet dotatsiyalaridan to'liq voz kechish hisoblanadi. Moliyalashtirishning o'z manbalari rivojlanishi ko'rsatilgan maqsadlarga sug'urta badallari to'plashni yaxshilash hisobiga erishilishi lozim.

Pensiya islohoti sharoitlarida PFR mablag'lari qarilik bo'yicha pensiya va nogironlik bo'yicha pensiyalarning sug'urta va jamg'ariladigan qismini, boquvchisini yo'qotganlik holati bo'yicha mehnat pensiyasining sug'urta qismini, shuningdek, vafot etgan davrda ishlamayotgan bo'lgan pensionerlarni dafn etish marosimiga ijtimoiy nafaqa to'lovlarini to'lash uchun foydalaniladi.

RPFga rahbarlikni fond Boshqarmasi va uning doimiy faoliyat ko'rsatuvchi organi – Ijrochi direksiya amalga oshiradi. Direktsiyaga Rossiya Federatsiyasi sub'ektlaridagi bo'linmalar bo'ysunadi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 2000 yil 27 sentyabrdagi 1709-sonli «Rossiya Federatsiyasida davlat pensiya ta'minotini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorini ijro etish borasida Rossiya Federatsiyasining barcha sub'ektlarida pensiyalar tayinlash va to'lash bo'yicha vakolatlar Rossiya Federatsiyasi Pensiya fondining hududiy organlariga topshirilgan. Shu tariqa majburiy pensiya sug'urta mablag'larini boshqarishning umumiy markazlashgan tizimi tashkil qilingan.

<sup>78</sup> [www.pfrf.ru](http://www.pfrf.ru)– Россия Федерацияси Пенсия фонди расмий веб сайтитдан олинди

Rossiya Federatsiyasi Pensiya fondi va uning hududiy organlari Rossiya Federatsiyasi majburiy pensiya sug'urta mablag'larini boshqarish organlari umumiy markazlashgan tizimini tashkil qiladi.

Joylarda (shahar va tumanlarda) Pensiya fondi boshqarmalari (bo'limlari) mavjud bo'lib, ular pensiya sug'urtasi bo'yicha badallar to'plash ishini tashkil etish, ijtimoiy ta'minot organlari xarajatlarini moliyalashtirish, shuningdek, mablag'larning sarflanishini nazorat qilishni ta'minlaydi. Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash bo'yicha faoliyatni boshqarish tashkiliy strukturasi borasida avvalgi tizim aholini ijtimoiy ta'minlash davlat organlari orqali, hozirgi paytda esa aholini ijtimoiy himoya qilish organlari orqali saqlanib qolgan.

## 14-MAVZU: QOZOG'ISTON PENSIYA TIZIMINING XUSUSIYATLARI

### Reja:

- 14.1.Qozog'iston respublikasining pensiya tizimi: uning shakllanishi va rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari, bosqichlari.
- 14.2.Qozog'istonda pensiya ta'minotini tartibga soluvchi organlar
- 14.3.Qozog'iston Respublikasi pensiya fondi daromadlarini shakllantirish.
- 14.4.Qozog'iston Respublikasi pensiya fondi xarajatlari tizimi.
- 14.5.Davlat pensiyalarining turlari, ularni hisoblash va tayinlash xususiyatlari.

**TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:** Qozog'iston Respublikasi pensiya ta'minoti tizimi, sug'urtalangan shaxslar, xalqaro Mehnat tashkiloti, Aholini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy ta'minot, pensiya tizimlari modellari, xalqaro mehnat tashkiloti, avlodlar birdamligi, xorijiy mamlakatlar pensiya tizimlari, pensiya ta'minoti tizimi, davlatning ijtimoiy siyosati, pensiya ta'minoti, davlat budjeti, davlat pensiya tizimi, nodavlat pensiya tizimi, davlat maqsadli jamg'armalari, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, xalqaro moliya munosabatlari, byudjet tizimi, xalqaro moliya.

### **1.Qozog'iston respublikasining pensiya tizimi: uning shakllanishi va rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari, bosqichlari.**


“Qozog'iston boshqa MDH mamlakatlari uchun yo'llanma bo'lib hisoblanadi. Chunki bu erda boshqa MDH mamlakatlari orasida birinchi bo'lib pensiya islohoti boshlangan va u mos holda umumiy pensiya tizimidan jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga muvaffaqiyatli ravishda o'tishga misol bo'la oladi.Shu bilan bir vaqtda, pensiya fondlariga uzoq muddatli qirqimda qaralishi zarur chunki bu erdagi yoshi o'rtacha 40 yosh bo'lgan omonatchilar oradan 20 yillar o'tgach, pensiyaga chiqadilar va o'shandagina Qozog'istonda hozir amalda bo'lgan jamg'arma tizimi muvaffaqiyatli deb aytish mumkin bo'ladi”

Qozog'iston Respublikasi – Mustaqil davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari orasida aholi pensiya ta'minoti islohotini birinchi bo'lib amalga oshirgan mamlakat. Qozog'istondagi pensiya tizimi uchun Chili pensiya tizimi namuna bo'lib xizmat qildi. Sovet Ittifoqining parchalanishi bilan yagona pensiya ta'minoti tizimining emirilishi(tugashi) yuz berdi.1997 yil 20 iyunda Qozog'iston Respublikasining 136–1–raqamli “Qozog'iston Respublikasida pensiya ta'minoti haqida”gi Qonuni qabul qilindi.1997 yil sentyabrda Qozog'istonda birinchi jamg'arma fondi”DJPF”(Davlat jamg'arma pensiya fondi) yaratildi.1998 yilda Qozog'istonda pensiya tizimi islohoti boshlandi, natijasida uch darajali (bosqichli) pensiya tizimi amal qila boshladi. Yangi pensiya tizimining kiritilishi ommalashmagan choralar bilan kuzatildi: 1998 yil 1 yanvrndan asta – sekin pensiya yoshi ortib bordi va 2002 yil Iiyulda erkaklar uchun 62,ayollar uchun 58 yoshga etdi.Shuningdek, 1998 yil 1 yanvardan Sobiq Sovet davridan saqlanib qolgan hamma imtiyozli pensiyalar bekor qilindi.2012 yildan Qozog'istonda konservativ va mo''tadil(o'rtacha) portfel kiritilib,uning mohiyati, omonat qo'yuvchi (jamg'aruvchi) o'z yoshidan kelib chiqib, investitsiyalashning ko'proq yoki kamroq tavakkalchiligi (riski) bo'lgan variantini tanlash huquqiga ega edi. Konservativ (eski) portfel birinchi navbatda, mablag'larni bank depozitlariga va Qozog'iston MBga, mo''tadil portfel esa obligatsiyalarga qo'yishni ko'zda tutadi.

Hozirgi paytda Qozog'iston Respublikasida ko'p daraja(bosqich)li pensiya tizimi faoliyat yuritiladi va ular bazaviy, majburiy hamda ixtiyoriy darajalardan iborat bo'lib, bir vaqtning o'zida umumiy va jamg'arma tizmlar mexanizmlarini qo'shib oladi.

- 1-daraja a. Umumiy pensiya tizimi b..
- 2-daraja. a. Jamg'arma pensiya tizimi
- b. Majburiy pensiya badallari -10%
- v. Majburiy kasbiy pensiya badallari-5%.

3-daraja-ixtiyoriy pensiya badallari



**14.1-rasm. Qozog'iston Respublikasi pensiya tizimi.**

Birinchi daraja-umumiy pensiya tizimi bo'lib u Qozog'istonga SSR parchalangandan keyin meros bo'lib qolgan va "avlodlar birdamligi"ga asoslangan, bunda pensiya to'lovlari manbalari davlat byudjeti bo'lib, u aholining ishlovchi qismidan soliq ajratmalari va boshqa tushumlar hisobidan to'lanadi.<sup>79</sup>

Pensiya to'lovlari miqdori mehnat staji bilan belgilanadi. Hozirgi paytda ushbu daraja doirasida (1998 yil 1 yanvar holatiga ko'ra) pensiyaga chiqishida ish staji olti oydan kam bulmaganlar uchun pensiya to'lovlari shakllantiriladi.

Ikkinchi daraja – Qozog'iston fuqarolari, chet elliklar va Qozog'istonda yashovchi, fuqaroligi yo'q shaxslar uchun oylik daromadidan jalb etiladigan 10 foiz miqdoridagi majburiy pensiya badallari bo'lgan va ish beruvchi hisobidan ishchilarning oylik daromadlaridan kasblari Qozog'iston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilangan ishlab chiqarish, ish va kasblar ro'yxatida ko'zda tutilgan ishchilar foydasi o'tkaziladigan 5 foiz miqdordagi majburiy kasbiy pensiya badallari bo'lgan majburiy jamg'arma pensiya tizimidir.

Uchinchi daraja – ixtiyoriy pensiya badallariga (IPB) asoslangan jamg'arma tizimi. IPBning miqdori, ularning to'lanish tartibi va keyingi to'lovlari tomonlarning INB hisobidan pensiya ta'minoti haqidagi shartnomasida kelishuvlari bo'yicha aniqlanadi.

<sup>79</sup> US Pension Reform: Lessons from Other Countries. by Martin Neil Baily and Jacob Funk Kirkegaard February 2009. Notional accounts in other countries.

Shu tariqa, Qozog'iston Respublikasining pensiya tizimini amalga qo'llayotgan daromadlari darajasi uchun mas'uliyat(javobgarlik) his qilishdani kerak bo'ladi, chunki pensiya to'lovlarining manbasi ularning individual pensiya hisobraqamlari da shakllantirilgan jamg'armalar bo'lib qoladi.

Har bir fuqaroga ixtiyoriy pensiya badallari hisobiga o'z jamg'armalarini ko'paytirish va shu yo'l bilan o'z mehnat faoliyatlarini tugatganlaridan keyin o'zlarini yuqoriroq daromad bilan ta'minlash imkoniyati taklif qilinadi.

Qozog'iston Respublikasining jamg'arma tizimi joriy bosqichda ikki bosqichdan iborat bo'ladi: davlat va xususiy (bosqichlar).

Davlat jamg'arma pensiya fondi (DJPF) – faqat omonatchi(jamg'aruvchi)larning majburiy pensiya ajratmalarini yig'adi va Qozog'iston Respublikasi Hukumati o'rnatgan tartibda oluvchilarga pensiya to'lovlarini amalga oshiradi. Ma'lum vaqt davri o'tishi bilan DJPFni xususiylashtirish ko'zda tutiladi,ya'ni deyarli hamma pensiya tizimi xususiy sektorga yig'iladi.

Nodavlat jamg'arma pensiya fondi (NJPF, ustav kapitali 180 mln.tengedan kam bo'lmagan) – ochiq yoki yopiq turdagi aksionerlik jamiyati shaklida tashkil etilgan yuridik shaxslar."Qozog'iston Respublikasida pensiya ta'minoti haqida"gi qonunga mos ravishda pensiya tizimida NJPF markaziy bo'g'in hisoblanadi. Ular omonatchilar bilan ishlarni tashkil etadilar,pensiya shartnomalarini tuzadilar,pensiya badallari va investitsion daromadlar o'tkazmalarining individual hisobini, shuningdek, omonatchilar oldida fond majburiyatlarini yuritadilar. Fond o'z faoliyati uchun komission taqdirlashlar oladi,o'z omonatchilari va davlat organlari oldida hisob beradi,aholi orasida tushuntirish ishlari olib boradi,shikoyat va arizalarni ko'rib chiqadi,omonatchining o'limi yoki xorijga ketishi bilan bog'liq masalarni ko'rib chiqadi.

2002 yil 1 noyabrga pensiya xizmatlari bozori 16ta jamg'arib boriladigan pensiya fondidan iborat bo'lib, shundan 13tasi nodavlat jamg'arma pensiya fondlari(NJPF), 2tasi korporativ pensiya fondi ("Kazaxmis" korporatsiyasi va "Philip Morris" korporatsiyasi fondi) va davlat jamg'arma pensiya fondi (DJPF)dir. Dastlab 20ta fond bo'lgan, keyin Mehnat va ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan fondlar xususiy kapitalaning minimal miqdori belgilanganidan keyin (180mln.tenge) bir qancha qo'shilishlar yuz berdi. Ularning mablag'larini pensiya aktivlarini boshqarish bo'yicha ettita kompaniya boshqaradi(PABK).Respublikaning hamma viloyatlarida 60dan ortiq filiallar va vakolatxonalar, 130dan ortiq agentlik punktlari faoliyat yuritadi. Hozirgi paytda Qozog'iston parlamenti qonunlarga fondlarga yig'ilgan pensiya mablag'larini o'zlari boshqarilari huquqini beruvchi tuzatishlar kiritishni ko'rib chiqmoqdalar.

Investitsion aktivlar moliyaviy vositalarga foiz munosabalarida aniq kelishilgani bo'yicha investitsiya qilinmoqda. Pensiya tizimini isloh qilina boshlangan paytdan, ya'ni 1998 yildan pensiya fondlari aktivlari Qozog'iston Respublikasi kapital bozorining rivojlanishiga yordam beradi, deya faraz qilingan edi. Jumladan, xususiy pensiya fondlarining aktivlari korporativ qimmatli qozog'lar bozori rivojlanishini stimullaydi, deya rejalashtirilgan edi. Biroq pensiya islohotlarning birinchi yilidagi natijalarga ko'ra 99.3% aktivlar u yoki bu davlat qimmatli qog'ozlariga, ya'ni aynan: evroobligatsiyalarga – 15.53% Moliya vazirligining o'rta qisqa va uzoq muddatli qimmatli qog'ozlariga – 81.78%,Milliy bank not(a) lariga – 2% qo'yildi.Pensiya fondlarini investitsiyalari uchun boshqa yo'nalishlar shunchaki, yuq edi: mamlakatda fond bozorlari yo'q, xorijiy emitentlarning qimmatli qog'ozlarini sotib olish man qilingan edi. Mantiqqa zid holat yuzaga keldi: Qozog'istonning suveren (o'z, mustaqil) obligatsiyalariga talab

o'ta kattaligidan ulardan daromad olish to'lash muddati bir hil bo'lgan AQSh obligatsiyalariga nisbatan kam edi.

Joriy paytda davlat qimmatli qog'ozlarining ulushi jiddiy ravishda kamayib kechdi va davlat pensiya fondiga 70% atrofidagini tashkil etadi. Qonunchilikka mos ravishda Pensiya aktivlarini (PABK) quyidagi investitsion vositalar bilan pensiya aktivlarini investitsiyalashi mumkin:

- davlat qimmatli qog'ozlari bilan 40%dan kam bo'lmagan miqdorda;
- munitsipal qimmatli qog'ozlar 5%dan ko'p bo'lmagan miqdorda;
- xalqaro banklar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar – 10%dan ko'p bo'lmagan miqdorda;
- korporativ aksiyalar – 30% dan ko'p bo'lmagan miqdorda;
- korporativ obligatsiyalar – 5%dan ortiq bo'lmagan;
- bank depozitlari – 20%dan ortiq bo'lmagan;
- chet el korporativ qimmatli qog'ozlari – 10%dan ortiq bo'lmagan;
- halqaro moliyaviy tashqilotlar tomonidan emitetlangan qimmatli qog'ozlar – 10%dan ortiq bo'lmagan miqdorda.<sup>80</sup>

Hozirgi paytda parlament pensiya qonunchiligidagi o'zgarishlar paketini ko'rib chiqmoqda, yuqorida ko'rsatilgan limitlar o'zgarishi ehtimoli ham mavjud.

Pensiya aktivlarini boshqarishga xarajatlar ulushi qonunchilikda qayd etilgan va quyidagilarni tashkil etadi:

- badallardan 1%(omonatchilarga ajratiladigan 10% ish haqidan fond shu zahoti boshqaruv uchun 1% ajratib oladi);
- investitsiyalash jarayonida olingan investitsion daromaddan 10%. Bu miqdor pensiya fondining o'zi va boshqaruvchi kompaniya (PABK) o'rtasida kelishuv bo'yicha bo'linadi.

1998 yilda MPF (Milliy pensiya fondi) va PABK investitsion daromaddan o'z kulushlarini deyarli teng bo'ldilar, lekin vaqt o'tishi bilan PABKning ulushi 20–30% gacha pasaydi.

Pensiya fondi PABK bilan shartnoma tuzish bilan bir vaqtda ushbu pensiya fonining hamma operatsiyalariga texnik xizmat ko'rsatuvchi kastodian bank bilan ham shartnoma tuzishi lozim. Kastodian bankning vazifasi pensiya aktivlarini akkumulyatsiyalash (jamg'arish) bo'yicha hamma operatsiyalar hisobini yuritish, ularni joylashtirish, investitsion daromadlarni olish, shuningdek, fondga uning schyotlari va PABK faoliyati haqida axborotlari berish hisoblanadi. Bunda bank mablag'laridan maqsadli foydalanilishi va investitsiyalash limitiga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

## 14.2. Qozog'istonda pensiya ta'minotini tartibga soluvchi organlar

Qozog'iston Respublikasida davlat ijtimoiy va pensiya sug'urtasi mablag'larini davlat boshqaruvi organi Ijtimoiy sug'urta Davlat fondi va Qozog'iston Respublikasi Hukumatining 2004 yil 27 fevrdagi 237 va 2013 yil 31 iyuldagi 747 - raqamli qarorlari bilan tashkil etilgan va mos holda akqtionerlik jamiyati shaklida ro'yxatdan o'tkazilgan Yagona jamg'arib boriladigan pensiya fondi hisoblanadi.<sup>81</sup>

E'tiborga olish kerakki, Qozog'iston Respublikasining ijtimoiy (byudjetdan tashqari) fondlari xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisoblanadilar, shu munosabat bilan ularning faoliyati Qozog'iston Respublikasining 2005 yil 13 maydagi 415 - raqamli

<sup>80</sup> Imagining the Ideal Pension System: International Perspectives. By Dana M. Muir; John A. Turner. 155

<sup>81</sup> The New Pensions in Kazakhstan: Challenges in Making the Transition. Richard P. Hinz, Asta Zviniene and Anna-Marie Vilamovska. SP DISCUSSION PAPER NO. 0537.

“Aksionerlik jamiyatlari haqida”gi qonuni, Nizom va fondning ichki hujjatlari, shuningdek, boshqa me’yoriy – huquqiy hujjatlar bilan boshqariladi.

Qozog’iston Respublikasida ijtimoiy sug’urta Davlat fondi va Yagona jamg’arib boriladigan pensiya fondi byudjetlari mamlakat byudjet tizimiga qo’shilmaydi va konsolidatsiyalashtirilgan byudjet tarkibiga kirmaydi. Ko’rsatilgan fondlarning mablag’lari moliyaviy hisobi xo’jalik yurituvchi sub’ekt buxgalteriya hisobi printsilarida amalga oshiriladi.

Yagona jamg’arib boriladigan pensiya fondining daromadlari va xarajatlari davlat byudjeti mablag’lari ishtirokisiz shakllanishini, uning byudjeti esa davlat boshqaruvi sektori byudjetiga qo’shilmaligi va davlat boshqaruvi sektori konsolidatsiyalangan byudjeti defitsitining hisob – kitobida hisobga olinmasligi e’tiborga olib:

Qozog’iston Respublikasining 2013 yil 21 iyuldagi 105-V-raqamli “Qozog’iston Respublikasida pensiya ta’minoti haqida”gi qonun bilan Yagona jamg’arib boriladigan pensiya fondi byudjeti daromadlarini shakllantiruvchi sug’urta badallari turlari belgilandi, shuningdek ularni to’lovchilar aniqlandi (3 - jadvalga qarang).

Bundan tashqari, fond byudjeti daromadlari penyalari, shuningdek, pensiya sug’urtasi mablag’larini moliyaviy vositalarga joylashtirishdan olinadigan investitsion daromadlar ham hisoblanadi. Ko’rsatilgan fond xarajatlari pensiyalarni to’lash, komission taqdirlan, fondning operatsion faoliyatlari va xarajatlarning boshqa turlariga yo’naltiriladi.

#### 14.1-jadval

#### Qozog’iston Respublikasida pensiya badallari stavkalar

Nomi	Ishlovchi fuqarolar	O’z ishi bilan band shaxslar	Dehqon xo’jaliklari (qishloq xo’jalik ishlab chiqarish)	Yuridik shaxslar	Jismoniy shaxslar
Majburiy pensiya badallari	10%	10%	10%	-	-
Professional (kasbiy) pensiya badallari	-	-	-	5%	-
Ixtiyoriy pensiya badallari	-	-	-	Kelishuv bo’yicha belgilanadi	Kelishuv bo’yicha belgilanadi

Qozog’iston Respublikasi qonunchiligida ijtimoiy sug’urat davlat fondining aktivlari va o’z mablag’lari (ustav kapitali va komission taqdirlash) alohida (ajratilgan) hisobi ko’zda tutilgan.<sup>82</sup>

<sup>82</sup> Seitenova, Ai-gul S.; Becker, Charles M. KAZAKHSTAN’S PENSION SYSTEM: PRESSURES FOR CHANGE AND DRAMATIC REFORMS. Hitotsubashi Journal of Economics 45 (2004), pp.151-187.



Fond aktivlari bilan operatsiyalar bo'yicha moliyaviy hisobdorlik Fond aktivlarini joylashtirish haqida hisobot, fond aktivlari va passivlari bo'yicha hisobot, fondning moliyaviy vositalar turlari bo'yicha investitsion portfelni tuzilmalari haqida hisobot, fond aktivlarining kelib tushishi va ulardan foydalanish bo'yicha hisobot moliyaviy vositalar muddatlari bo'yicha Fond aktivlari investitsion portfelni tuzilmasi haqida hisobotlarni o'z tuzilmasi haqida hisobotlarni o'z ichiga oladi.

O'z mablag'lari operatsiyalari bo'yicha hisobot buxgalteriya balansi, daromadlar va xarajatlar haqida hisobot, pul mablag'larining harakati haqida hisobot, o'z kapitalidagi o'zgarishlar haqidagi hisobotdan iborat bo'ladi.

Fond aktivlari hisobi Qozog'iston Respublikasi Milliy banki schyotlarida bajariladi:

- ijtimoiy sug'urta mablag'lari, penyalar, komissio rag'batlantirishlar o'tkaziladigan, shuningdek, ijtimoiy transfertlar amalga oshiriladigan va xato hisoblangan yoki ortiqcha berilgan summalar qaytariladigan joriy schyot;

- ijtimoiy (byudjetdan tashqari) fondlar investitsion faoliyatidan pul mablag'lari harakatining hisobi uchun mo'ljallangan investitsion schyot;

Bundan tashqari, fondning tijorat bankida o'z mablag'i jamlanadigan (akkumulyatsiyalanadigan) schyoti ham mavjud.

Byudjet barqarorligini va to'lov qobiliyatini ta'minlash maqsadida Fond majburiy rezervlarni shakllantiradi va normativi (me'yori) respublikaning me'yoriy-huquqiy hujjatlari bilan belgilangan ijtimoiy to'lovlar bo'yicha proviziyalarni ham hisoblab chiqadi (ajratadi).

Fond faoliyatini moliyalashtirish fond aktivlarini joylashtirishdan olingan komission taqdirlashlar mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Fond byudjetini tashkil etish, ko'rib chiqish va tasdiqlash ijtimoiy sug'urta Davlat fondi direktorlar Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Fond aktivlari va passivlarining tuzilishi. Qozog'iston Respublikasi ijtimoiy sug'urta Davlat fondi aktivlarining shakllanishi va passivlarining taqsimlanishi manbalari quyidagi jadvalda keltirilgan (- jadvalga qarang)

2013 yilda Fond aktivlarining shakllanishi manbalari quyidagi tushumlar bo'lgan:

1. Ijtimoiy ajratmalar, fond tushumlarining umumiy hajmidagi ulushi 92% atrofida;

2. Ijtimoiy ajratmalar to'lovi kechiktirilganligi uchun olingan penyalar, Fond tushumlarining umumiy hajmidagi ulushi 0.3% atrofida;

3. Investitsion daromad, tushumlarning umumiy hajmidagi ulushi 7.7% atrofida tashkil etadi;

Ijtimoiy ajratmalarni hisoblab chiqish ob'ekti Qozog'iston Respublikasi Hukumatining 2004 yil 21 iyundagi 683-raqamli qarori bilan tasdiqlangan ijtimoiy ajratmalarni hisoblash va qayta hisoblash Qoidalariga mos holda ish beruvchining xodimga bajargan ishi va ko'rsatgan xizmati uchun daromad ko'rinishida to'laydigan xarajatlari hisoblanadi. Mustaqil band bo'lgan shaxslar uchun ijtimoiy ajratmalarni hisoblash ob'ekti ular tomonidan olinadigan daromad hisoblanadi. Yuridik shaxslar, shuningdek, yollanma ishchilar mehnatidan foydalanuvchi mustaqil band bo'lgan shaxslar xarajatlariga ishchiga pul yoki natura shaklida to'lanadigan daromadlarga moddiy, ijtimoiy boylik yoki boshqa moddiy foydalarni ham qo'shgan holdagi daromadlar kiradi.

Fond byudjetiga ijtimoiy ajratmalar stavkasi Qozog'iston Respublikasining 2003 yil 25 yanvardagi 405-II raqamli "Majburiy ijtimoiy sug'urta haqida"gi qonun bilan belgilangan.

Ta'kidlash kerakki, Qozog'iston Respublikasida ijtimoiy ajratmalarga stavkasi 11% bo'lgan ijtimoiy soliq ham kiradi. Qozog'iston Respublikasi Soliq Kodeksiga

muvofig ijtimoiy soliq summasi byudjetga Fond uchun ijtimoiy ajratmalar ajratilgan holda hisoblab o'tkaziladi.

Qozog'iston Respublikasi qonunchiligiga mos holda Fond aktivlari istisno tariqasida sug'urta to'lovlari amalga oshirish uchun, ularni moliyaviy vositalarga joylashtirishda, shuningdek, ortiqcha to'langan summalarni qaytarishda ularning ro'yxati Qozog'iston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilanadi.

2013 yilda Fond passivlari quyidagi to'lovlarni o'z ichiga olgan:

1. Ijtimoiy to'lovlar ulushi Fond to'lovlarining umumiy hajmida 99% atrofida tashkil etadi., shu jumladan, mehnatga layoqatligi yo'qolishi holatlarida – 4.2%, boquvchisini yo'qotganlikda –2.5%, ish o'rnini yo'qotganda – 1%, homiladorlik va tug'ish, yangi tug'ilgan bolani (bolalarni) asrab olish bo'yicha – 49.1%, bolaning bir yoshga etguncha qadar parvarishlagani munosabati bilan – 42.2%.

2. Ortiqcha to'langan ijtimoiy ajratmalar va boshqa xato hisoblab yuborilgan mablag'larning Fond to'lovlarining umumiy hajmidagi ulushi 0.1% atrofida bo'lganda, qaytarish;

- Fond faoliyatini ta'minlashga hisoblab, o'tkazilgan komission taqdirlashlar 0.9%ni tashkil etadi;

Ta'kidlash zarurki, Fondning aktivlari va passivlariga moliyaviy va nomoliyaviy aktivlar bilan operatsiyalar qo'shilmaydi.

1. Ijtimoiy sug'urta tizimining tashkiliy qurilmasi;

2. Majburiy ijtimoiy sug'urtaga sug'urta badallari va stavkalarining turlari;

3. Aholining byudjetdan tashqari fondlariga byudjetdan (ijtimoiy) ko'rsatiladigan ijtimoiy to'lovlarning turlari.

Bundan tashqari, Qozog'iston Respublikasida fuqarolarning majburiy tibbiy sug'urtasi yo'k. Aholiga tibbiy xizmat kursatish tizimining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Qozog'iston Respublikasida pensiya yoshi.

Erkaklar uchun pensiya yoshi 2018 yilgacha yoshi 63, ayollar uchun –58 yoshdan boshlanadi. Qozog'iston Respublikasida "Pensiya ta'minoti haqida"gi qonunning 11–moddasiga muvofiq 2018 yildan boshlab ayollar uchun pensiya yoshi har yili 2027 yilga qadar 63 yoshga etguncha yarim yilga ortib boradi. Shu tariqa, 1964 yilda tug'ilgan ayollar pensiyaga erkaklar bilan bir qatorda –63 yoshda chiqadi.

Ayollar pensiya yoshining bosqichma–bosqich ortib borishi:

1 yanvar 2018 yildan – 58.5 yoshga etganda;

1 yanvar 2019 yildan – 59 yoshga etganda;

1 yanvar 2020 yildan – 59.5 yoshga etganda;

1 yanvar 2021 yildan – 60 yoshga etganda;

1 yanvar 2022 yildan – 60.5 yoshga etganda;

1 yanvar 2023 yildan – 61 yoshga etganda;

1 yanvar 2024 yildan – 61.5 yoshga etganda;

1 yanvar 2025 yildan – 62 yoshga etganda;

1 yanvar 2026 yildan – 62.5 yoshga etganda;

1 yanvar 2027 yildan – 63 yoshga etganda

1949 yil 29 avgustdan 1963 yil 5 iyulga qadar (5 yildan kam bo'lmagan) ekologik xavf zonasida yashagan, semipalatinsk yadro poligonida yadro qurollarini sinash oqibatida zarar ko'rgan fuqarolar pensiyaga ertaroq chiqish huquqiga ega:

➤ erkaklar – 50 yoshga etganda, ish staji 1 yanvar 1998 yil holatiga 25 yildan kam bo'lmaganda;

➤ ayollar – 45 yoshga etganda, ish staji 1 yanvar 1998 yil holatiga 20 yildan kam bo'lmaganda;

Shuningdek, 5 yoki undan ko'p bola tuqqan yoki asrab olgan va ularni 8 yoshgacha tarbiyalagan ayollar 53 yoshdan – erta pensiyaga chiqishi mumkin.

Qozog'istonda aralash pensiya tizimi amal qilib, u umumiy (mehnat), jamg'ariladigan tizim va bazaviy (asosiy) pensiyalardan iborat. 18.06.2014 yilda 841 – raqam bilan Qozog'iston Respublikasi Prezidentining “Kozog'iston Respublikasida 2030 yilga qadar pensiya tizimini kelgusi modernizatsiya qilish tamoyillari haqida”gi farmoni imzolandi.

Davlatning bazaviy pensiyasi.

2015 yilda 11 182 tengeni tashkil etgan (har yili summasi o'zgaradi) davlatning bazaviy (asosiy) pensiyasi deyarli hamma pensiyaga chiqqan fuqarolarga, mehnat staji va avval o'tkazilgan ajratmalardan qat'iy nazar, beriladi. Bu pensiyani boshqacha qilib, “Prezident pensiyasi” ham deyiladi.

Mehnat(ish) staji bo'yicha pensiya (faqat 1998 yilgacha ishlagan fuqarolar uchun).

Umumiy pensiya to'lovlari ish staji va pensiya jamg'armalaridan kelib chiqib, hisoblab chiqiladi. Chunki 1998 yilga qadar ish beruvchilar tomonidan 1998 yilgacha ishlagan fuqarolarga pensiyalar hisoblash uchun xodim foydasiga pensiya ajratmalari qilinmagan, shu bois, faqat ish staji hisobga olinadi.

Qonunchilikka muvofiq, ish staji 1998 yilga qadar quyidagicha bo'lishi lozim:

Erkaklarga – 25 yoshdan;

Ayollarga 20 – yoshdan

Pensiya hisoblashda to'liq yillar staji hisobga olinadi. Umumiy to'liq pensiyasi yosh bo'yicha tayinlashda 3 omil hisobga olinadi yoshi.